

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
УДК 74:371.3:681.142.37

Xudoyberdiyev Mirolim Iskandar o'g'li


Mutaxassislik: 5A110801 – Tasviriy san'at va Amaliy bezak san'ati
yo'nalishi

“Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-mahorati
kompetentligini rivojlantirish (qalamtasvir fani misolida)”

Magistr darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA


“Himoyaga tavsiya etaman”



Tasviriy san'at va uni
o'qitish metodikasi kafedrasi
mudiri



Imziy rahbar:
dotsent O'.Nurtayev
iyun 2019 yil



Toshkent – 2019

DN-66

5A110801-Тасвирий санъат ва амалий безак санъати мутахассислиги магистри Миролим Худойбердиевнинг мавзуеи; “Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини касбий маҳорати компитентлигини ривожлантириш” (каламтасир фани мисолида) деб номланган магистирлик диссертация ишига

ТАҚРИЗ

Республикамызда “Таълим тўғрисида”ги Қонун ва “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” талаблари асосида таълим-тарбия жараёнини такомиллаштириш, педагог кадрларнинг касбий тайёргарлигини таркиб топтириш ва ошириш муаммосига бағишланган тадқиқот ишлари кенг камровда олиб борилмоқда.

Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини касбий маҳорати компитентлигини ривожлантириш (каламтасир мисолида) деб номланган магистирлик диссертация иши “Тасвирий санъат ва уни ўқитиш методикаси” кафедрасида олиб борилаётган илмий-тадқиқот ишлари йўналиши доирасида амалга оширилмоқда, диссертация иши бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини касбий маҳорати компитентлигини ривожлантириш муаммосини урганиш ва унинг таълим олишига оид масалалар кишилик жамияти тараққиётининг барча босқичларида бир қатор ютуқларга эришган олим-фузалолар, мутафаккирлар, психологлар, файласуф ва педагог олимларнинг тажрибаларига суянган. Мазкур диссертация ишида жуда кўп бадий таълим муаммоларининг ечимини мужассамлаштирган бўлиб, унда бадий таълим соҳасида олиб бориладиган битирув малакавий ишлари, магистирлик диссертация ишларида методик ва назарий асос бўлиб хизмат қилади. Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини касбий маҳорати компитентлигини ривожлантиришда қаламтасир фанининг мазмуни-моҳияти ҳамда ўзаро боғлиқ интерактив методлардан: белгиланган педагогик мақсадлар; ишлаб чиқилган мазмун; турли усуллар, ташкиллаштириш турларининг ва воситаларнинг мақсадга мувофиқ фойдаланилиши; ўқув ва ўқишдан ташқари вақт мобайнида фаолият турининг танланиши (ва уларнинг алоҳида кўринишлари) ташкил этади. Келтирилган таркиб доирасида олий таълим тизимида бўлажак тасвирий санъат ўқитувчини фан ўқитувчиси, мурабийлик фаолияти, тўғарак раҳбари сифатида бадий-педагогик касбий маҳорати компетентлигини ривожлантиришга йўналтирилган таълим-тарбия жараёни самарали тадқиқотлари олиб борилган келгусида ушбу диссертация иши ҳозирги кундаги давр талабларига жавоб беради.

К.Бехзод номидаги МРДИ “дастгохли рангтасвир” кафедраси мудири доцент



Э.Хантов

16.05.2013

**BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINING
KASBIY MAHORATI-KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH
(Qalamtasvir fani misolida)**

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASIGA ANNOTATSIYA

Magistrlilik dissertatsiya mazmunida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishda qalamtasvir fanining nazariyasi-metodik asoslari ochib berilgan, oliy ta’lim tizimidagi zamonaviy masalalaridan kelib chiqib qalamtasvir chizishga o‘rgatish jarayonida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishning modellashtirish tarkibi, tuzulishi va mazmun-mohiyati masalalari ishlab chiqilgan. Oliy ta’lim tizimidagi zamonaviy masalalaridan kelib chiqib qalamtasvir chizishga o‘rgatish jarayoni masalalari ko‘rib chiqilgan. Tasviriy san’at o‘qituvchisi faoliyatining ishlab chiqilgan modeli taqdim etilgan, mahalliy va chet el amaliyoti o‘rganib chiqilgan, qalamtasvir chizishga o‘rgatish jarayonida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy holati o‘rganilgan, oliy ta’lim muassalarining oldingi qatordagi ilg‘or tajribasi o‘rganilgan, hamda tajriba-sinovi mazmuni to‘liq bayon etilgan.

ANATATION OF MASTERS DISSERTATION

In the context of the masters thesis ,methodological bases of contemporary art in the development of professional competence of future art teachers has been explained. The modeling of the development of the compatibility of future artistic skills of teachers has been worked out in the process of drawing up of issues in the system of higher education structure and essence of content.

The process of drawing up has been examined through the issues of higher education system of modern subjects .The process of doing masters thesis, such kind of things have been learnt: model of visual arts teachers work, domestic and foreign practice, in the process of drawing up pencil sketch, the study of the state of the future development of the professionalism of future artists, as wel as the content of the experimental test.

Mundarija

KIRISH.....	5
-------------	---

I-BOB. BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINI KASBIY MAHORATI-KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....

1.1. Bo‘lajak tasviriyl san’at o‘qituvchilarini kasbiyl mahorati kompetentligini rivojlantirishning tavsifi va mohiyati	12
---	----

1.2. Bo‘lajak tasviriyl san’at o‘qituvchilarini kasbiyl mahorati kompetentligini o‘qitishning didaktik shart-sharoitlari.....	28
---	----

1.3. Qalamtasvir fan o‘qituvchisining kasbiyl mahoratiga qo‘yilgan talablar.....	41
--	----

I bob yuzasidan xulosalar.....	43
---------------------------------------	-----------

II BOB. BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINI KASBIY MAHORATI-KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK ASOSLARI.....

2.1. Bo‘lajak tasviriyl san’at o‘qituvchilarini kasbiyl mahorati kompetentligini rivojlantirishda qalamtasvir fani darajasini oshirishning mazmuni, metod va vositalari.....	44
--	----

2.2. Bo‘lajak tasviriyl san’at o‘qituvchilarini kasbiyl mahorati kompetentligini rivojlantirishda amaliyl mashg‘ulotlar va mustaqil ta’lim faoliylati modeli	55
--	----

2.3. Bo‘lajak tasviriyl san’at o‘qituvchilarini kasbiyl mahorati kompetentligini rivojlantirishni tashkil etish texnologiyasi.....	68
--	----

II bob yuzasidan xulosalar.....	79
--	-----------

**III BOB. BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINI
KASBIY MAHORATI-KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNI
ANIQLASH BO‘YICHA OLIB BORILGAN TAJRIBA-SINOV
ISHLARI.....**

3.1. Tadqiqot natijalarini tajriba-sinovdan o‘tkazish metodikasi hamda
baholash ko‘rsatkichi va mezonlari.....81

3.2. Tajriba–sinov ishlari natijalari.....87

III bob yuzasidan xulosalar.....89

Umumiy xulosalar.....90

Adabiyotlar ro‘yxati.....92

Ilovalar.....

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi: Uzluksiz ta'lim tizmini yanada takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash siyosatini rivojlantirish hamda ta'limning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashdagi chora-tadbirlar tizimi, Respublikamizda pedagog-kadrlarni tayyorlash va pedagogik ta'lim jarayonini sifat jixatdan yangi bosqichga ko'tarish masalasi, jamiyatni modernizatsiyalash va yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab olingan Turli darajadagi yuqori malakali, raqobotbordosh mutaxassislar tayyorlash tizimini rivojlantirish, ma'naviy boy, erkin ijodiy fikrlovchi shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nlisllari bo'yicha harakatlar strategiyasining to'rtinchi bo'limida quyidagi vazifalar belgilab berilgan: ta'lim va fan sohasini rivojlantirish: uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash; ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish orqali ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish va hako-zolar.¹

Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar ilmiy salohiyatidan unumli foydalanib, o'qitiladigan fanlar bo'yicha o'quv-metodik hujjatlar, tarqatma materiallar tayyorlanib talabalarga berilmoqda. Talabalarga zamonaviy axborot vositalaridan foydalanishga qulaylik yaratish maqsadida virtual kutubxonadan foydalanish imkoniyati kengaytirilib, u yerda barcha fanlar

¹ 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича ҳаракатлар стратегияси IV бўлим.

bo'yicha ma'ruza matnlarining, darslik va o'quv qo'llanmalarining elektron versiyalari jamlandi va takomillashtirilmoqda.

2017-2021-yillarda Oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturida, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak pedagog-kadrlarni yuqori kasbiy bilim, malaka va ko'nikma bilan qurollantirish, ularning kasbiy kompetentligini oshirishga doir vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishdagi yechim, nazariya va amaliyotning o'zaro uyg'unlashuvini talab etadi. Kompetensiya - bilim, ko'nikma, malaka, qarashlar, shaxsning qadriyati va shaxsiy sifatlari, kvalifikatsiyaning namoyon bo'lishi yoki ta'sir ko'rsatish qobiliyatidir. Ma'lumki, 2017 yil 3 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ijodkor ziyolilar vakillari bilan uchrashuvda taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida madaniyat, adabiyot va san'at sohasini, jumladan, tasviriy san'at yo'nalishini rivojlantirish borasidagi dolzarb vazifalarni belgilab, ularni hal etish yo'llarini ko'rsatib berdi. O'tgan qisqa muddatda ana shu taklif va tashabbuslarni amalga oshirish bo'yicha davlatimiz rahbari tomonidan 10 ga yaqin farmon va qarorlar qabul qilindi. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashda pedagogik-psixologik tayyorlashda qator kamchiliklar, jumladan, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy bilim berishiga imkon yaratadigan zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarga ega emasligi, o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida yakka hokim ekanligi, pedagogik munosabatlar avtoritar tamoyiliga asoslanishi, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi munosabat majburiy itoatkorlikka asoslanganligi, talabalarda ongli intizomni vujudga keltirishga e'tibor berilmayotganligi, talabalarning bilish faoliyati esa bilim va ko'nikmalarni reproduktiv darajada o'zlashtirishga qaratilganligi, o'quvchilarning faoliyati erkin va mustaqil fikrlashga yo'naltirilmayotganligi ta'kidlanib, ularni bartaraf etish dolzarb muammo ekanligi qayd etilgan. Ta'lim-tarbiya jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etish va o'qituvchilarning pedagogik faoliyati, ularning bo'lajak tasviriy san'at

o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashda pedagogik-psixologik tayyorlash, qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun:

- o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish;

- umummadaniy-milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo'lish kompetensiyasi – mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etishi, milliy urf-odatlariga hurmat, ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'lishi, ilm fanning yangiliklarini inson xayotidagi o'rnini talabalarga tushuntira olishligiga erishish;

- ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini hamkorlikda tashkil etish va boshqarish orqali ongli intizomni tarkib toptirish;

- o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan uyg'un ravishda foydalanish orqali ta'lim samaradorligiga erishish;

- talabalarining bilish faoliyatini mustaqil va ijodiy izlanish asosida tashkil etish orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirish;

- psixologik-pedagogik uslublar yordamida talabalarining yosh va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;

- talabalarining qiziqishlari, ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishda qalamtasvir fanining zamonaviy texnologiyalari asoslarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur. Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimi oldidagi davlat va ijtimoiy buyurtmalarni hisobga olgan holda pedagog kadrlar, shu jumladan bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishda qalamtasvir fani bo'yicha amalga oshirishga bag'ishlangan alohida tadqiqot o'tkazilmagan.

Binobarin, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirish (qalamtasvir misolida) deb nomlangan magistirlilik

dissertatsiya ishi “Tasviriy san’at va uni o’qitish metodikasi” kafedrasida olib borilayotgan ilmiy- tadqiqot ishlari yo’nalishi doirasida olib boriladi.

Tadqiqot ob’ekti: bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchilarini kasbiy mahorati- kompetentligini rivojlantirishda qalamtasir darslari jarayoni.

Tadqiqot bazasi: Nizomiy nomidagi TDPU “Tasviriy san’at va uni o’qitish metodikasi” kafedrası.

Tadqiqot predmeti: bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchilarini kasbiy mahorati -kompetentligini rivojlantirishda qalamtasir faniga oid tushunchalarni shakllantirishda ilmiy pedagogik yondashishni amalga oshirish.

Tadqiqot maqsadi: bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchilarini kasbiy mahorati-kompetentligini rivojlantirish jarayonida qalamtasir fanini ilmiy-pedagogik jihatdan mazmunini takomillashtirish.

Tadqiqot vazifalari: - Bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchilarining kasbiy mahorati- kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo ekanligini o’rganish va tahlil qilish;

- Bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchilarining kasbiy mahorati-kompetentligini rivojlantirishning samarali shakl, metod va vositalarini tanlash;
- Oliy ta’lim muassasalarida qalamtasvir fanini o’qitish bo’yicha dasturlar mazmuni bilan tanishish;
- Oliy ta’lim muassasalarida o’qitiladigan qalamtasvir fanining amaliy mashg’ulotlarini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg’unlashtirish;
- Oliy ta’lim muassasalarida qalamtasvir fanidan amaliy va mustaqil ta’lim mashg’ulotlarini takomillashtirish modelini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

1. Bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchilarini kasbiy mahorati-kompetentligini rivojlantirishda qalamtasir fanining metodikasini nazariy asoslari ochib berildi.

2. Bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchilarini kasbiy mahorati - kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg’ulotlar va mustaqil ta’lim faoliyati modeli uyg’unlashtirilgan holda ishlab chiqildi;

3. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati-kompetentligini rivojlantirishda 1-kurs qalamtasir fanining ishchi o'quv dasturining mavzulariga o'zgartrish va qo'shimchalar kiritildi (tavsiya sifatida).

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari: bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy- mahorati kompetentligini rivojlantirish, qalamtasir fanini takomillashtirishda quyidagilarni inobatga olgan holdagina muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin, agar:

- bir-biri bilan mutanosblikda harakatlanuvchi bosqichma-bosqich muayyan tizimni shakllantiruvchi o'zaro bog'liqlarda o'rganib chiqilsa;
- keltirilgan metodikani nazariy modellar ko'rinishida berilgan pedagogik tadqiqot natijalariga asoslanib, pedagogik yangiliklarning o'ziga xosligi va ularning yangiligini hisobga olgan holda amalga oshirilib borilsa;
- tarkibiy model va konsepsiya ishlab chiqilsa, hamda didaktik shart-sharoitlar nazariy jihatdan asoslangan bo'lsa;

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy- mahorati kompetentligini rivojlantirishda qalamtasir fanini mazmuni, turi va usullari oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlash tizimida badiiy ta'limning ilg'or yutuqlari va rivojlantirish istiqboliga muvofiq samarali ta'lim tizimi amalga oshiriladi

Tadqiqot ishida foydalanilgan adabiyotlar sharhi: Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati-kompetentligini rivojlantirish muammosini o'rganish va uning ta'lim olishiga oid masalalar kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida olimu-fuzalolar, mutafakkirlar, psixologlar, faylasuf va pedagog olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Qomusiy allomalar – Abu Nasr Forobiy, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalarning komil inson tarbiyasi va uning mohiyati haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Tadqiqot yuzasidan olib borilgan izlanishlar, adabiyotlarni o'rganish va tahlil etishdan shunday xulosaga keldikki, E.Kvyatkovskiy, T.Mahmudov, M.Ovsyannikov, V.Skatershikov, S.Fayzulina, S.Shermuhammedov kabi olimlar tomonidan san'at, madaniyat, nafosatning falsafiy, pedagogik jihatlarini ishlab chiqilgan. Tasviriylar san'at o'qitish metodikasi va nazariyasini ishlab chiqishda hamdo'stlik mamlakatlari olimlari O.Artyunyan, V.Kuzin, N.Rostovsev, V.Strokov, K.Eralin, va O'zbekiston olimlaridan R.Hasanov, N.Abdullaev, S.Bulatov, A.Inagamov, Q.Qosimov, B.Baymetov, S.Abdirasilov, R.Rajabov, A.Sulaymonov, N.Tolipov, U.Nurtaev, B.Azimov, B.Qo'chqorov, X.Alyaminov, A.Amanullaev, J.Darmenov, B.Oripov, O.Xudoyorova, K.Gulyamovlarning ilmiy ishlarida bayon etilgan. Jumladan, O'.Nurtaev tadqiqoti bo'lajak tasviriylar san'at o'qituvchilarini O'zbekiston sharoitida tizimli tayyorlash metodikasiga bag'ishlangan bo'lib, kadrlar tayyorlash milliy modeli va dasturining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari unda kadrlar tayyorlash milliy modelining zaruriylar tarkibiy qismlari o'zaro aloqadorlikda va alohida olingan holda tadqiq etilgan, shuningdek, mamlakatimizdagi va xorijiy mamlakatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, yangilanishlar asosida to'plangan tajribalar qiyosiy tahlil qilingan.

Shuningdek, mazkur tadqiqotlar jumlasiga J.G'.Yo'ldoshevning malaka oshirish tizimida o'qituvchi kasbiylar tayyorgarligini faollashtirish masalalari, F.R.Yuzlikaev tomonidan olib borilgan bo'lg'usi o'qituvchilarning didaktik tayyorgarligini jadallashtirishning nazariyasi va amaliyoti, D.X.Nasriddinova-ni oliylar pedagogik ta'lim tizimida bo'lg'usi o'qituvchi-bakalavrlarni tayyorlash jarayonini insonparvarlashtirish¹, Sh.N.Majitovani kasbiylar tayyorlash jarayonida bo'lg'usi o'qituvchilar shaxsini faollashtirishning pedagogik asoslari; O.Q.Haydarovani bo'lg'usi o'qituvchilarni ta'lim jarayoniga texnologik yondashuvga tayyorlashning nazariylar asoslari kabi

¹ Nasriddinova D.X. oliylar pedagogik ta'lim tizimida bo'lg'usi o'qituvchi-bakalavrlarni tayyorlash jarayonini insonparvarlashtirish¹). Avtoref. dis... kand. ped.nauk.-T., 2000. - 21 s.

tadqiqotlarini kiritish mumkin².

Hamdo'stlik mamlakatlari olimlari tomonidan talabalarning pedagogik faoliyatga tayyorgarligi K.M.Duray-Novakova, mehnat o'qituvchilari va ustalarining kasbiy tayyorgarligi³, pedagogik faoliyat tarkibiy qismlari N.V.Kuzmina, o'qituvchilarning ijtimoiy faolligi V.A.Slastenin V.E.Tamarin, D.S.Yakovleva, umumta'lim maktablari o'qituvchilarining professiogrammasi A.K.Markova, pedagogika institutlari bitiruvchilarining kasbiy faoliyatga moslashishining pedagogik asoslari kasbiy-pedagogik yo'naltirilganligi metodik jihatdan tadqiq etilgan.

N.A.Muslimov pedagogning kasbiy kompetensiyasi mazmuniga o'qituvchi, tarbiyachi, pedagogning, unga mustaqil ravishda va yetarli darajada samarali tarzda pedagogik vazifalarni yechishga imkon beradigan shaxsiy imkoniyatlarini kiritadi¹.

Rus pedagog olimi A.V. Xutorskiyning fikrlariga to'xtaladigan bo'lsak, u "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalarini o'ziga xos tarzda talqin qilgan va o'qituvchining kompetensiyasini ko'rsatib bergan.

Ma'lumki, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishda qalamtasvir fanining ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik, ilmiy-metodik tayyorgarligi, g'oyaviy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy yetukligi majmua holda tushuniladi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi:

Vazifalarni xal etish va farazni tekshirish uchun quyidagi usullar foydalanildi:

- Tadqiqot mavzusi bo'yicha falsafiy, psixologik, pedagogik va metodik adabiyotlar tahlili;

² Haydarova O.Q. Bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim jarayoniga texnologik yondashuvga tayyorlash. Ped. fanlari nomzodi ... dis. avtoref. T.: -2004 -23 b.

³ Duray-Novakova K.M. Formirovanie professionalnoy gotovnosti studentov k pedagogicheskoy deyatel'nosti: Avtoref. dis...d-ra ped.nauk. –M., 1983.

¹ N.A.Muslimov Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi shakllantrish. Monografiya T.TDPU-2012

- OTM da qalamtasvir fani bo'yicha dasturlar, o'qitish shakllari, metodlari va vositalari taxlili;
- OTM talabalari orasida sinov-tajriba, so'rovnoma va testlar o'tkazish;
- Umumlashtirish, taqqoslash, tizimlashtirish;
- Izlanuvchan-tasdiqlovchi, shakllantiruvchi, nazorat tuzatish va nazorat bosqichlaridan iborat pedagogik eksperiment;

Tadqiqotning metodologik asosi va metodlari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov-ning va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev-ning nutqi va risolalarida ta'lim to'g'risida ilgari surilgan fikrlari¹, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan qabul qilingan Davlat Dasturlari, nizom va qarorlari, pedagog-metodist olimlarning ilmiy, uslubiy ishlari va maqolalari, o'qitish jarayoni.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy maxorat-kompetentligini rivojlantirishda mustaqil va amaliy mashg'ulotlarida talabalarning o'zlashtirish samaradorligini oshirish. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarga oid metodik ishlanmalar, master-klasslar qo'yish, tarqatma materiyallar, slaydlar, tavsiyalar berish orqali Qalamtasvir fanini o'qitishda sifat va samaradorligiga erishish.

Talabalarning Qalamtasvir fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun ishlab chiqiladigan metodik tavsiyalarni o'qituvchi hamda talabalar o'z pedagogik amaliyotida qo'llab, Qalamtasvir darslarining samaradorligini oshishiga erishishdir.

Nazariy tadqiqot va tajriba-sinov natijalari badiiy ta'limi uchun yangi turdagi didaktik materiallar ishlab chiqishga imkon beradi, shuningdek, natijalardan Qalamtasvir fani bo'yicha to'garaklarida, olimpiada ishtirokchilarini tayyorlashda foydalanish mumkin.

¹ Mirziyoyev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz". – Toshkent.: "O'zbekiston", 2017. -486 b.

Ish tuzilmasining tavsifi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

I BOB. BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINI KASBIY MAHORATI-KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishning tavsifi va mohiyati

Ma’lumki, davlat va jamiyat rivojining har bir bosqichi shaxs, jamiyat va davlatning ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ma’naviy-ma’rifiy va madaniy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda didaktikaning tarixiy va mantiqiy birligi metodologik tamoyiliga muvofiq ta’lim tizimi oldiga muayyan davlat va ijtimoiy buyurtmalarni qo‘yadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da uzluksiz ta’lim tizimi oldiga har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta’lim va oliy ta’lim dasturlarini ongli ravishda tanlagan va keyinchalik, puxta o‘zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratish, jamiyat, davlat va oila oldidagi o‘z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalash kabi davlat buyurtmalarini qo‘yadi va mazkur buyurtmalarni bajarish uchun quyidagi vazifalarni bajarish nazarda tutilgan:

- bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishda qalamtasvir mashg‘ulotlari jarayonida ta’lim oluvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash va ma’rifiy ishlarning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish va joriy etish;

- bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishda qalamtasvir mashg‘ulotlari jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda talabalarni o‘qitishni jadallashtirish;

- xalqning boy ma’naviy va intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlar asosida ta’limning vatanparvarlik asosini ta’minlash;

- o‘quv-uslubiy majmualarning hamda ta’lim jarayoni didaktik va

axborot ta'minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish;

- o'quv jarayonini yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlashni amalga oshirish;

- milliy mustaqillik tamoyillari va xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlar ustuvorligi asosida ta'limning barcha darajalari va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini faollashtirish;

- bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishda qalamtasvir fani o'qituvchisini estetik tarbiyasini takomillashtirish;

- bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishda qalamtasvir mashg'ulotlari jarayonida yuqori malakali pedagogik kadrlar tayyorlash, ta'lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, pedagoglarning kasbiy nufuzini oshirish, ta'lim muassasalarini mahsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhitni vujudga keltirish.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida mamlakatimizning ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga oid asosiy yo'nalishlar sifatida ta'lim va tarbiyaning, vatanparvar, demokratik xarakterda ekanligi, ta'lim uzluksizligi va izchilligi, ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi, davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi, talim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv, bilimli bo'lish va iste'dodni rag'batlantirish kabilar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»¹da ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, qayta qurish, uzluksiz talim tizimining turlari, ta'lim muassasalari oldidagi vazifalar, kadrlar tayyorlash milliy modelini amaliyotga tatbiq etish masalalari bilan bir qatorda uzluksiz ta'lim tizimining quyidagi faoliyat ko'rsatish prinsiplari qayd etilgan:

¹ O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1997 – B. 64.

1. Ta'limning ustuvorligi - ta'lim-tarbiya jarayonining samarali tashkil etilishi va faollashtirilishi jamiyatimizdagi ustuvor yo'nalish sanaladi. Ta'limning ustuvorligi yuksak ma'naviyatli, bilimli va salohiyatli barkamol shaxsning shakllanishiga zamin yaratadi.

2. Ta'limning demokratlashuvi - ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda, ta'lim-tarbiya, jarayonini tashkil etish va boshqarishda ustoz va tahsil oluvchining hamkorligiga asoslanadi.

3. Ta'limning vatanparvarlashuvi - inson qobiliyatlarining to'liq ochilishi va bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarning qondirilishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhitning o'zaro munosabatlarini uyg'unlashtirishga asoslanadi.

4. Ta'limning ijtimoiylashuvi - ta'lim oluvchilarda ongli intizom, insonning qadr-qiymati tuyg'usi, yuksak ma'naviyati, ijtimoiy normalarga asoslangan hulq-atvori, estetik boy dunyoqarashi, madaniyati va ijodiy fikrlashni tashkil etish nazarda tutiladi.

5. Ta'limning milliy yo'naltirilganligi - ta'limning milliy tariximiz, xalq an'analari va urf-odatlari bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlashni ta'minlaydi.

6. Ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishni nazarda tutadi.

7. Iqtidorli yoshlarni aniqlash - ta'lim jarayonini tabaqalashtirish va individuallashtirish asosida iqtidorli yoshlarga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratishni ko'zda tutadi.

8. Respublikamizda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlarning muvaffaqiyati uzluksiz ta'lim tizimining barcha turlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda qo'llaniladigan o'qitish tamoyillari ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari va uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat

ko'rsatish tamoyillariga qanchalik mos kelishi va ularni amaliyotga joriy etishga safarbar etilganligiga bog'liq.

9. Ma'lumki, o'qitish tamoyilari ta'lim tizimining tuzilishi, mohiyati, uning qonunlari va qonuniyatlari haqidagi, shuningdek, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini tashkil etadigan, amaliyotni boshqarishda namoyon bo'ladigan bilimlar majmuasi sanaladi.

Didaktik adabiyotlarda o'qitish tamoyiliga barcha tadqiqotchilar turlicha yondashganlar. Ulardan eng ahamiyatga moligi o'qitish tamoyillariga o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish jihatdan yondashuv bo'lib, ular Y.K.Babanskiy, V.I.Zagvyazinskiy, M.N.Skatkin tadqiqotlarida yoritilgan¹.

Respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, ma'naviy-ma'rifiy yangilanishlar tasviriy san'at jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy faollashishning metodologik, ilmiylik, tizimlilik, ko'rgazmalilik nazariyani amaliyot bilan bog'lash, samaradorlik mantiqiy ketma-ketlik, tushunarlilik, ta'lim va tarbiyaning uzviyligi bilan bir qatorda, individual va guruhni yondashishni uyg'unlashtirish, o'qishni vatanparvarlashtirish va demokratlashtirish, individuallashtirish va tabaqalashtirish kabi tamoyilarga ham amal qilinishi zarurligini ko'rsatdi.

Hozirgi zamon pedagogikasida o'qitish tamoyilari, unga bog'liq holda qonunlar va qonuniyatlari masalasi munozarali bo'lishi tabiiy.

Yuqorida qayd etilganidek, o'qitish tamoyilari, avvalo, muayyan davlatning ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari, so'ngra, ta'lim tizimi oldidagi buyurtmalarga mos kelishi lozim. Shuningdek, o'qitish tamoyillari jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar va yangilanishlarni o'zida aks ettirib yangilanib, o'zgarib, faollashib, o'zgacha ahamiyat kasb etadigan jarayondir. O'qitish tamoyillari pedagogik faoliyatning mazmuni va ta'lim-

¹ Skatkin M.N. Sovershenstvovanie protsessa obucheniya. – M.: Pedagogika, 1971. – 206 s
Babanskiy Yu.K. Optimizatsiya protsessa obucheniya. Obmedidakticheskiy aspekt. – M.: Pedagogika, 1977. – 254 s.

tarbiya jarayonining yo‘nalishini belgilaydi.

Shunga binoan, tasviriy san’atni o‘qitishda foydalaniladigan tamoyilar mazmun va mohiyatiga ko‘ra ikki guruhga ajratildi:

1. Tasviriy san’at mazmunini belgilaydigan tamoyilar.
2. Ta’lim-tarbiya jarayonining yo‘nalishini belgilaydigan tamoyilar.

1.1-jadval

O‘qitish tamoyilari	
Tasviriy san’at mazmunini belgilaydigan tamoyilar	Ta’lim-tarbiya jarayonining yo‘nalishini belgilaydigan tamoyilar
Ilmiylik, tizimlilik, ko‘rgazmalilik, nazariyani amaliyot bilan bog‘lash, samaradorlik, mantiqiy ketma-ketlik, tushunarlik, ta’lim va tarbiyaning uzviyligi	Ijtimoiy-iqtisodiy faollashishning metodologik tamoyili, pedagogik munosabatlarni vatanparvarlashtirish va demokratlashtirish, ta’limni individuallashtirish va tabaqalashtirish, individual va guruhli yondashuvni uyg‘unlashtirish, onglilik.

Didaktik adabiyotlarda ta’lim mazmunini belgilaydigan ilmiylik, tizimlilik, ko‘rgazmalilik, nazariyani amaliyot bilan bog‘lash, samaradorlik, mantiqiy ketma-ketlik, tushunarlik, ta’lim va tarbiyaning uzviyligi kabi prinsiplarning mazmun va mohiyati keng yoritilgan.

Ta’lim-tarbiya jarayonining yo‘nalishini belgilaydigan tamoyillarning tavsifi va mohiyati quydagilarda namoyon bo‘ladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda ijtimoiy-iqtisodiy faollashishning metodologik tamoyili yetakchi o‘rinni egallaydi. Mazkur tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan xalos etib, ta’lim mazmunini belgilash;

- uzluksiz ta’lim tizimi oldidagi davlat va ijtimoiy buyurtmalarni amalga oishrish;

- «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» maqsadlarini amalga oshirish uchun belgilangan vazifalarni amaliyotga tatbiq etish;

- o'quvchi-yoshlar ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish kabi vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Pedagogik munosabatlarni vatanparvarlashtirish tamoyili:

- ta'lim mazmunini vatanparvarlikka yo'naltirilgan gumanistik g'oya va me'yorlar bilan mujassamlashtirish;

- shaxsni o'z imkoniyatlari darajasida faollashtirib, pirovard natijada ijodiy va ijtimoiy faol, turli hayotiy vaziyatlarni anglab tahlil qiladigan, mo'ljalni ongli ravishda mustaqil, to'g'ri ola biladigan shaxsni shakllantirish;

- har bir shaxsda mavjud bo'lgan uning ehtiyoji, qiziqishi, iqtidori va imkoniyatlari asosida ijobiy fazilat va xislatlarni shakllantirish va faollashtirish kabilarni amalga oshirishga imkon beradi.

Pedagogik munosabatlar va o'qitishni demokratlashtirish tamoyili esa, o'qituvchi va o'quvchilarning fuqarolik huquqlarini tenglashtirish, o'quvchilarga tanlash huquqining berilishi, o'z fikri va nuqtai nazarini erkin bayon etish, o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga yarasha tabaqalashtirilgan ta'limga o'tish, iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratadi. O'qitishni individuallashtirish va tabaqalashtirish tamoyili ta'lim-tarbiya jarayonida individual va guruhli yondashuvni uyg'unlashtirishni talab etadi¹.

Shu sababli tasviriy san'at o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini yalpi shaklda tashkil etish bilan bir qatorda, individual va guruhli o'qitish uyg'unlashtirildi. O'quvchilar bilish faoliyatining yalpi, individual va kichik guruhlar shaklida tashkil etilishi o'quvchilar tomonidan o'quv materialini ongli ravishda o'zlashtirishlariga imkon yaratdi. Shu sababli tasviriy san'at o'qitish jarayonida onglik tamoyiliga amal qilish lozim.

Ma'lumki, o'qitish tamoyillari negizida o'qitish qonunlari va qonuniyatlari yotadi. O'qitish qonunlari va qonuniyatlari o'qitish tamoyilining

¹ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" (maxsus kurs). -T.: 2012-v.

nazariy asoslarini ishlab chiqishga va pedagogik amaliyotga qo'llashga zamin tayyorlaydi. Didaktik adabiyotlarning tahlili, mazkur adabiyotlarda o'qitish qonunlari va qonuniyatlari serqirra va ko'ptomonlama yoritilganligi, ularning bir emas, balki bir nechta o'qitish tamoyillariga asos bo'lib xizmat qilishini ko'rsatdi. Barcha jabhalarda qonunlarning maqsadi va istiqbolda ko'zlangan natijasi bo'lgani kabi, o'qitish qonunlari ham pedagogika fanining mantiqiy tarkibiy qismi sanalib, pedagogik jarayonning ob'ektiv, tashqi, ichki, muayyan va nisbiy bog'lanishlarini aks ettiradi, ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni, metod, vosita va shakllarining uzviyligini, mazkur jarayonning ilmiy asosda tashkil etilishi va boshqarilishi, olinadigan natijalar va samaradorlikni oshirish yo'llarini belgilaydi.

Didaktikaga oid adabiyotlarni tahlil qilish juda ko'p tadqiqotchilar tomonidan o'qitish qonuniyatlari muammosi ustida izlanishlar olib borilganligini ko'rsatdi.

Tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan va tavsiya etilgan qonuniyatlar o'z vaqtida ahamiyatga molik bo'lgan va didaktika fanining yutug'i sanalgan. Shunga ko'ra, mazkur tadqiqotlar tarixiy va mantiqiy birlikning metodologik tamoyiliga asoslanib taxlil qilindi, Y.K.Babanskiy, I.Yalerner, V.Okon, M.I.Maxmutov, M.N.Skatkin kabi tadqiqotchilar tomonidan tavsiya etilgan o'qitish qonuniyatlari hozir ham o'z qiymatini yo'qotmagan¹. Respublikamizning uzluksiz ta'lim tizimi oldidagi davlat va ijtimoiy buyurtmalari, o'qitish tamoyillari hisobga olingan holda, tasviriy san'at quyidagi o'qitish qonuniyatlarini pedagogik amaliyotda qo'llash maqsadga muvofiq deb topildi.

1. O'qitish maqsadi, mazmuni, vositalari va shakllarining ijtimoiy muhitga bog'liqligi qonuni, mazkur qonun ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari bo'lgan o'qitish mazmuni, vosita, metod va shakllarini tanlashda jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar, ijtimoiy munosabatlarni hisobga olish orqali ta'lim oluvchilarda yuksak ma'naviyat,

¹ Maxmutov M.I. Sovremennyy urok. –M.:Pedagogika, 1981.-184s.

Skatkin M.N. Problemy sovremennoy didaktiki. – M.: Pedagogika, 1980. 334s.

madaniyat, mustaqil va ijodiy fikrlarni shakllantirishga imkon beradi. Ushbu qonuniyat o'qitish qonuniyatlari ichida yetakchi o'rinni egallaydi, qolgan o'qitish qonuniyatlari mazkur qonuniyat talablaridan kelib chiqadi va unga bo'ysunadi. Keyingi yillarda yuqorida qayd etilgan fikrlar, o'qitish maqsadi va vazifalari hisobga olingan holda barcha o'quv fanlari kabi tasviriy san'at o'quv fanining ta'lim mazmuni yangilandi. Ta'lim mazmunining yangilanishi o'quv-tarbiya jarayonini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, faollashgan huquqiy demokratik davlat qurilishi jarayonlariga moslanishiga imkon yaratadi. Tasviriy san'at o'quv fanining davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarining yangi avlodi yaratildi.¹

2.Tarbiyalovchi va faollashtiruvchi ta'lim qonuniyati. Respublikamizda qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy modeli»da shaxs asosiy o'rinni egallaydi va uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi.

Shaxsning tahsil olishi jarayoni, bilim, faoliyat usullarini o'zlashtirishi orqali uning faollashishi, kasbiy-malakaviy sifat va insoniy fazilatlarining tarkib topishi va shakllanishiga asoslanadi. Ushbu qonuniyat har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishga imkon beradi.

Xususan, tasviriy san'atni o'qitishda;

- o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy, aqliy, huquqiy, iqtisodiy, badiiy tarbiyalashning mazmuni va samarali vositalari, metodlari va shakllarini tanlash va amaliyotga joriy etish;

- tasviriy san'at mazmuni va o'qitish jarayonini xalqimizning ma'naviy va intellektual merosi bilan boyitish, umuminsoniy qadriyatlar asosida insonparvarlik yo'nalishini ta'minlash orqali o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, mustaqillik tamoyillari va ona-Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash;

- ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish,

¹ Rahmonov M. Psixologiya kursida ko'rsatmalilik.- T.: O'qituvchi, 1981. - 115 b.

ma'naviy va axloqiy fazilatlarini, o'quv, amaliy, mustaqil va ijodiy fikrlash, darslik va qo'shimcha adabiyotlar ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini faollashtirish nazarda tutiladi;

2. Ta'lim-tarbiya jarayonining tahsil oluvchilarning faoliyati xarakteriga bog'liqligi qonuni.

Bu qonun ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish usuli, olinadigan natija, pedagogik boshqarish va tahsil oluvchilarning faolligini oshirish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aks ettiradi. Mazkur qonun «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash, shu asosda zamonaviy o'quv-uslubiy majmualar yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini metodik jihatdan ta'minlashni, o'quvchilarning qobiliyatlari va ehtiyojlariga muvofiq ravishda tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish, o'quvchilarni o'z o'quv-bilish faoliyatining to'laqonli sub'ektiga aylantirishni ko'zda tutadi¹.

O'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini yalpi o'qitish bilan bir qatorda yakka tartibda, ikki o'quvchi hamkorlikda va kichik guruhlarda tashkil qilish orqali ko'zlangan natijaga erishish nazarda tutiladi.

Tasviriy san'atni o'qitishda o'rganiladigan mavzuning didaktik maqsadini hisobga olgan holda:

- o'quvchilarning yakka tartibda ishlashiga mo'ljallangan o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish;

- ikki o'quvchi hamkorlikda ishlashiga mo'ljallangan o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish;

- o'quvchilarning kichik guruhlarda ishlashiga mo'ljallangan o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish uchun o'quv topshiriqlarini tuzish va ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirish yo'llarini belgilash lozim;

-ta'lim muassasalarida hukmronlik qilayotgan an'anaviy ta'limda

¹ O'zbekiston Respublikasida kadrlar malakasini oshirish, ularni qayta tayyorlash tizimini isloh qilish bo'yicha me'yoriy hujjatlar va 1999-2005 yillarga mo'ljallangan istiqbolli rejalar (o'zbek va rus tillarida) I-qism / Tuzuvchilar S.S.G'ulomov, Q.R.Allaev, M.X.Saidov, X.R.Raimov va boshq. – T.: 1999. – B. 187.

o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini yuqorida qayd etilgan shakllarda tashkil etish imkoniyati cheklanganligi sababli, tasviriyl san'at o'qitishda foydalaniladigan pedagogik texnologiyalarni ajratib ko'rsatish va ulardan foydalanishning metodik asoslarini ishlab chiqish zarur.

4. O'quv faoliyatini individuallashtirish va guruhli o'qitishni tashkil etish birligi va o'zaro bog'liqligi qonuni.

O'qitish jarayonining maqsadi va vazifasiga muvofiq tahsil oluvchilarning barchasi, shu jumladan, har bir shaxsning tahsil olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish, qiziqishini oshirishga asoslanadi. Bu qonuniyat iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularning ehtiyoji va qiziqishiga yarasha bilim olishlariga imkon yaratadi. Buning uchun o'qituvchilar tasviriyl san'at darslarida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini yakka tartibda va kichik guruhlarda tashkil etish hamda ularni uyg'unlashtirish bo'yicha metodik bilimlar, ko'nikma va malakalarni egallagan bo'lishi lozim. Shu sababli, tasviriyl san'at o'quvchilarning ilmiy-metodik tayyorgarligining tarkibiy qismlariga mansub bilim, ko'nikma va malakalarni tahlil qilish, tasviriyl san'at o'qitishda foydalaniladigan pedagogik texnologiyalarning konseptual asoslari haqidagi bilimlar, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va loyihalashga oid ko'nikmalarni kiritish zarur.

5. O'qitishda nazariya va amaliyotning birligi va uzviyl bog'liqligi qonuni. Tahsil oluvchilarning o'qitish jarayonida bilimlar, tushunchalar, g'oyalar, nazariyalarni ongli va mustahkam o'zlashtirishga erishish, ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga asoslanadi. Mazkur qonuniyat fan, texnika, ishlab chiqarish va amaliyl tajribalarning o'quv jarayoni bilan integratsiyasini, uyg'unligini amalga oshirishga imkon beradi. Shuningdek, o'quvchilarning o'quv, amaliyl, darslik va qo'shimcha adabiyotlar ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini faollashtirish orqali o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo'llash, ularda mustaqil va ijodiy fikrlashni tarkib toptirishni ko'zda tutadi. Shu sababli, tasviriyl san'at o'qitishda o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini tarkib toptirish va faollashtirish

yo'llari, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar, darsdan va sinfdan tashqari ishlarning ta'lim-tarbiya jarayonida tutgan o'rni, ularning didaktik maqsadini amalga oshirish yo'llarini belgilash zarurati kelib chiqadi.

6. Pedagogik jarayon birligi va yaxlitligi qonuni.

Pedagogik jarayonning yaxlit va tarkibiy qismlari o'rtasidagi uzviy bog'lanishlar, ularning ta'lim jarayoni mazmuni, vositalari, metodlari va shakllari, o'qituvchining pedagogik va o'quvchining o'quv faoliyati, motivlari kabi tarkibiy qismlarining uyg'un ravishda bog'liqligini ta'minlaydi¹.

Uzluksiz ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan davlat va ijtimoiy buyurtmalar, ularga mos holda ta'lim mazmunining yangilanishi va shakllantirilishi, o'z navbatida, o'qitish metodlari, vositalari va shakllarining uzviyligini ta'minlash maqsadida, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining pedagogik va o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini uyg'un ravishda tashkil etish yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqish zarur.

Respublikamizda faollashgan huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurish tamoyillari uzluksiz ta'lim tizimining barcha turlarida ta'lim-tarbiya jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlashtirishni talab etadi.

Shu sababli ushbu muammoni xal etishning eng ma'qul yo'li o'qitish jarayonini tubdan isloh qilish, mazkur jarayonni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish deb belgilandi.

Demokratlashtirish uzluksiz ta'lim tizimidagi formalizm, byurokratizmni yo'qotib, pedagogik hamkorlikni yuzaga keltiradi.

Hamkorlik - o'qituvchi va tahsil oluvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish, ma'naviy, ahloqiy, intellektual jihatdan bir-biriga uyg'unlashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonining borishi va natijasini hamjihatlikda tahlil qilishga imkon beradi.

Demokratlashtirilgan tizimni insonparvarlashtirish o'quv-tarbiyaviy

¹ Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi. – T.: Sharq, 2002. – B. 15.

jarayonini amalga oshirish, tahsil oluvchilarning o'quv-bilish va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, o'quv mehnatining xarakteri va mazmunini o'zgartiradi, shaxsning uyg'unlikda faollashishiga qulay psixologik muhit yaratadi.

O'qitish - barkamol shaxsni shakllantirish maqsadida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, ijtimoiy-tarixiy tajribalarni o'zlashtirish, qayta ishlash, u yoki bu faoliyatni egallash jarayonidir. Ma'lumki, didaktik jarayon tahsil oluvchilarning motivi, faoliyat va o'qituvchining boshqarish algoritmlariga bog'liq holda o'zgarib turadi.

Har qanday didaktik jarayon muayyan maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Maqsadga muvofiq tashkil etilgan didaktik jarayon, o'z navbatida, o'quvchilarning o'quv motivlarini faollashtirishga imkon yaratadigan o'qitish metodlari, vositalari va shakllaridan foydalanishni, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, ularga mos holda o'qituvchining pedagogik faoliyatini taqozo etadi.

O'qitish jarayonini tizim shaklida, uning faollashishini tarkibiy qismlarining o'zgarishi natijasida yuzaga kelishini tasavvur qilish mumkin.

O'qitish tizimi davlat va ijtimoiy buyurtmalarga muvofiq, yuqorida qayd etilgan o'qitish maqsadlari, ta'lim mazmuni, pedagogik muloqot vositalari (o'qitish vositalari, metodlari va shakllari), o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati shakllari, o'quv-bilish jarayonini tashkil etish va nazorat qilish, olingan natijalarga muvofiq ta'lim jarayonining borishiga tegishli o'zgartirishlar kiritishni o'z ichiga oladi.

Didaktikada o'qitish jarayoni o'qituvchi va o'quvchi faoliyati sifatida ham ko'rib chiqilgan, tadqiqotda ana shu nazariyalarga asoslanildi va quyidagilar e'tiborga olindi:

- tasviriy san'at o'qitishniig dastlabki vaziyatini taxlil qilish, o'qitish jarayonida maqsadga erishish uchun mazmun, vosita va metodlarni tanlash. Ularning tahsil oluvchilar ruhiy va yosh fiziologik holati, motivi, ehtiyoji, qiziqishiga mosligi;

o'qitish jarayonini loyihalash, o'qitish mazmuniga mos holda maqsadga

erishish vositalarini tanlash, o'quv materialini turli usullar yordamida etkazish va tahsil oluvchilar tomonidan ongli o'zlashtirilishiga erishish;

- o'qituvchi va tahsil oluvchilarning o'quv ishlari (o'quv materialini yuqori darajada o'zlashtirish uchun o'quvchilar faoliyati)ni samarali tashkil etish;

o'qitish jarayonida teskari aloqani muntazam tashkil etish, nazorat va o'quv materialini o'zlashtirish jarayoniga tegishli o'zgartirishlar kiritish va o'z-o'zini nazoratni amalga oshirish;

- tahlil va o'z-o'zini taxlil qilish, o'qitish natijasi va maqsadga erishish darajasini aniqlash;

- darsni, o'qitishning boshqa shakllari (darsdan, sinfdan, maktabdan tashqari ishlar, ekskursiyalar) bilan uyg'unlikda tashkil etish.

Ushbu vazifalarni hal etishda o'qitish jarayonining tashkilotchisi va boshqaruvchisi bo'lgan o'qituvchi faoliyati muxim rol o'ynaydi.

Ushbu faoliyat quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

- o'quv materialini tanlash, tizimga solish, mantiqiy ketma-ketlikda loyihalash;

- tahsil oluvchilar uchun o'quv materialini qabul qilish, anglash va ongli o'zlashtirish imkonini beradigan o'qitish vositalari, metodlari va shakllarini tanlash;

- pedagogik jarayonni yaxlit holda tashkil etish, ularning bilimlar tizimi va bilimlarni o'zlashtirish usullarini egallashlariga erishish;

- o'zining va tahsil oluvchilarning mashg'ulot davomidagi faoliyatini rejalashtirish;

- tahsil oluvchilarning bilimlar va ko'nikmalarni o'zlashtirish usullarini egallashga qaratilgan ongli faoliyatini tashkil etish va rag'batlantirish metodlarini belgilash;

- tahsil oluvchilar tomonidan o'quv topshiriqlarining bajarilish sifatini oshirish yo'llarini belgilash;

- nazorat, o'qitish natijalarini tahlil qilish va tahsil oluvchilar shaxsini

faollashtirish bo'yicha kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlarni belgilash;

- o'qitish jarayonining natijasiga muvofiq mazkur jarayonni tashkil etish va boshqarish yuzasidan tegishli o'zgartirishlar kiritish.

O'qituvchining ta'lim jaryonini boshqarish ko'nikmasi o'qitish jarayoniga faqat tegishli o'zgartirishlar kiritish bilan cheklanmasdan balki mazkur jarayonning sub'ekti bo'lgan tahsil oluvchilar shaxsida axloqiy sifatlarning shakllanishi, ularning ma'naviy yuksalishi ko'zda tutiladi. Bunday faoliyatni boshqarish uchun o'qituvchi, avvalo, faoliyat turlari, unga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillar, istiqboldagi maqsad va vazifalarni loyihalashi, olinadigan natijalarni faraz qilishi zarur¹.

O'qituvchining o'qitish jarayonidagi rahbarlik roli tahsil oluvchilarning o'quv materialini ongli va faol o'zlashtirishini boshqarish sanaladi. Buning uchun o'qituvchi:

- ilmiy jihatdan asoslangan o'quv vazifalarini belgilashi;
- tahsil oluvchilar tomonidan ushbu vazifalarni amalga oshirishga imkon beradigan qulay psixologik muhitni vujudga keltirishi;
- o'quv vazifalarini hal etish uchun amalga oshiriladigan faoliyat haqida aniq ko'rsatma berishi;
- tahsil oluvchilar duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni faraz qilishi, ularga o'z vaqtida va etarli darajada yordam ko'rsatishi;
- tahsil oluvchilarda o'zaro hamkorlik, yordam, samimiy muloqot, burch va mas'uliyat hissini vujudga keltirishi zarur.

O'qitish jarayonidagi o'qituvchi faoliyatining har bir bosqichi tahsil oluvchilar faoliyatining xarakteri va shaxsidagi o'zgarishlarga olib keladi. Shu sababli, o'qituvchi faoliyatni amalga oshirishda muayyan bosqich, o'quv fani va uning har bir bo'limidagi o'qitish maqsadlarini aniq bilishi va chuqur tahlil qilishi, ularni evolyutsion tarzda amalga oshirish yo'llarini belgilashi lozim.

¹ Ahliddinov R.Sh. Pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida sifat va samaradorlikni ta'minlash omillari. //Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Axborotnomaning maxsus soni. – T., 2005. – B. 10-15.

O'qitish jarayonida o'quvchilarning faoliyati o'quv-bilish xarakteriga ega bo'ladi. O'qitish jarayonining samaradorligi o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini o'qitish vazifalari va maqsadlariga muvofiq tashkil eta olish ko'nikmalarini egallaganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Tadqiqotda o'quvchilarni DTS me'yorlari bilan belgilangan bilimlarni egallash, ma'naviy-axloqiy tarbiyalash barobarida, ularning mustaqil va ijodiy fikrlashi, darslik va qo'shimcha o'quv adabiyotlari ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini faollashtirish, o'quvchilar tomonidan o'quv materialni mustaqil va ongli o'zlashtirishga erishish maqsad qilib olindi¹.

Yuqorida qayd etilgan fikrlar asosida tasviriy san'at o'qitishga quyidagi talablar qo'yildi:

- tasviriy san'at o'qitishning barcha shakllarida dars, darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlar, ekskursiyalarda ta'lim oluvchilar uchun ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, o'qitishning samarali shakllari hamda usullarini ishlab chiqish va joriy etish;

- tasviriy san'atdan o'qish, mustaqil bilim olishni individuallashtirish va tabaqallashtirish;

- tasviriy san'at o'qitishda yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda samaradorlikka erishish;

- tasviriy san'at darslari jarayonida xalqning boy ma'naviy va intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlari asosida ta'limning insonparvarlik yo'nalishini ta'minlash;

- tasviriy san'atni o'qitishda didaktika fani yutuqlarini pedagogik amaliyot bilan integratsiyasi mexanizmlarini ishlab chiqishi amaliyotga joriy etish;

- tasviriy san'at darslaridan o'quv-uslubiy majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va jorii etish;

¹ 5110800-Tasviriy san'at va muhandisiik grafikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarni tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar "O'zbekiston Davlat ta'lim standarti. -T.: 2011-y.

- o'quv jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlashni amalga oshirish;

- milliy mustaqillik tamoyilari va xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy kadriyatlar ustuvorligi asosida ta'limning barcha darajalari va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlari, huquqiy, iqtisodiy, badiiy ta'limi hamda tarbiyasini takomillashtirish;

- badiiy ta'limida o'quvchi-yoshlar ongi va qalbiga milliy istiqlol mafkurasini singdirish, mafkuraviy tarbiyani bugungi kun darajasiga ko'tarish.

Shunday qilib, mamlakatimizning ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyilari, uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatish tamoyilariga uzviy ravishda tasviriy san'atni o'qitishda foydalaniladigan tamoyilar, mazkur tamoyilar asosida pedagogik amaliyotda qo'llaniladigan o'qitish qonuniyatlari belgilandi, o'qitish tamoyilari mazmuni va mohiyatiga ko'ra badiiy ta'limi mazmuni va ta'lim-tarbiya jarayonining yo'nalishini belgilaydigan tamoyilarga ajratildi, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosiy g'oyalarida ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'yilgan talablari asosida uzluksiz ta'lim tizimidagi tasviriy san'at o'qitishga qo'yiladigan talablar ishlab chiqildi¹, belgilangan o'qitish tamoyillari, qonunlari va badiiy ta'limiga qo'yilgan talablar badiiy ta'limni takomillashtirishni taqozo etadi.

Tasviriy san'atni takomillashtirish muayyan pedagogik shart-sharoitlarni vujudga keltirishini talab etadi. Shu bois, mazkur jarayonni takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini taxlil etish zarurati yuzaga keladi.

1.2. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini o'qitishning didaktik shart-sharoitlari

Uzluksiz ta'lim tizimida tasviriy san'at o'qitishga bo'lgan talablar mazkur jarayonni takomillashtirishni taqozo etadi. Ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan davlat

¹ O'zbekiston Respublikasida kadrlar malakasini oshirish, ularni qayta tayyorlash tizimini isloh qilish bo'yicha me'yoriy hujjatlar va 1999-2005 yillarga

va ijtimoiy buyurtmalarga muvofiq, badiiy ta'limni takomillashtirish va rivojlantirish uchun, fikrimizcha, quyidagilarni bajarish talab etiladi:

1. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirish hamda qalamtasvir darslarida, ekskursiyalar, darsdan va auditoriyadan tashqari ishlarda o'qitishning samarali vositalari, metodlari hamda shakllaridan foydalanish.

2. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirish hamda qalamtasvirni o'qitishda talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarini aniqlash.

3. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirish hamda qalamtasvirni o'qitishda pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

4. Badiiy ta'lim mazmuni va pedagogik munosabatlarni vatanparvarlashtirish va demokratlashtirish.

5. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirish hamda qalamtasvirni o'qitishda talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, mustaqillik tamoyilari va ona-Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ma'naviy va axloqiy fazilatlarini faollashtirish yo'llarini belgilash va amalga oshirish.

6. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirish hamda qalamtasvirni o'qitishda talaba-yoshlar ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish mazmuni, vositalari va metodlarini ishlab chiqish.

7. Ta'lim-tarbiyaning uzviyligini ta'minlash, o'qitishda aqliy, axloqiy, vatanparvarlik, estetik, iqtisodiy, jismoniy, mehnat va baynalminal tarbiyani amalga oshirish.

8. Talabalarning bilish faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etish va boshqarish, mazkur faoliyatni faollashtirishning vosita va metodlarini, o'quv

motivlarini faollashtirish yo‘llarini aniqlash.

9. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirish hamda qalamtasvirni o‘qitishning amaliy masalalariga e’tibor qaratish, talabalarda o‘quv, amaliy va mehnat, ijodiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalari, atrof-muhitga ongli munosabatni tarkib toptirish, badiiy ta’limining kasbiy yo‘nalishini amalga oshirish.

Shuni qayd etish kerakki, yuqorida keltirilgan muammolar alohida ilmiy-tadqiqot mavzulari sanaladi.

Tadqiqotda mazkur muammolarga badiiy ta’limini takomillashtirish va unga bog‘liq holda bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishda qalamtasvir faniga imkon beradigan ijtimoiy-pedagogik va didaktik shart-sharoitlarning omillari sifatida yondashildi.

O‘qitish jarayonida ushbu talablarni amalga oshirish, mazkur jarayonni takomillashtirish uchun, avvalo, zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish lozim. Ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini yaratish muammosi taniqli didaktik olimlardan M.I.Maxmutov, Y.K.Babanskiy¹, I.Yalerner va boshqalarning tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan. Jumladan, M.I.Maxmutov o‘qitishni tashkil etishning shart-sharoitlarini ikki guruhga ajratgan:

1. Ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar;
2. Didaktik shart-sharoitlar.

Tadqiqotda o‘qitishni tashkil etishning shart-sharoitlari mazkur ikki guruh asosida ko‘rib chiqildi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosiy g‘oyalarida o‘qitish jarayonini tashkil etishga qo‘yilgan talablar asosida mazkur shart-sharoitlarga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga tegishli o‘zgartishlar kiritildi.

Ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitning vujudga kelishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida quyidagilar belgilandi:

¹ Maxmutov M.I. Sovremennyy urok.–M.:Pedagogika, 1981.-184s. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta’lim maktablarida o‘qitish metodlari. – T.: O‘qituvchi, 1990. – 232 b.

- pedagogik munosabatlarni vatanparvarlashtirish va demokratlashtirish;
- o'quvchilarda o'quv motivlarining shakllanganligi va bilim darajasi;
- ilmiy-metodik jihatdan mukammal ishlangan darsliklar va moddiy-texnik bazaning mavjudligi;
- qalamtasvir fani o'quv xonasining zamonaviy o'quv-texnik vositalar bilan jihozlanishi.

Didaktik shart-sharoitning vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida esa quyidagilar belgilandi:

- o'qituvchining qalamtasvir va uni o'qitish metodikasi fanini nazariy va amaliy jihatdan o'zlashtirganlik darajasi;
- qalamtasvir fanini o'qitishning ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy yo'nalishini amalga oshirish;
- qalamtasvir mashg'ulotlari jarayonida ta'lim-tarbiyaning o'рни pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishning metodik ta'minoti mavjudligi.
- bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlariga ta'sir etuvchi omillaridan biri pedagogik munosabatlarni vatanparvarlashtirish va demokratlashtirish masalasi ishlab chiqilgan.

Pedagogik munosabatlarni vatanparvarlashtirish va demokratlashtirish asosida vujudga kelgan yangi munosabatlarning o'ziga xos jihati an'anaviy ta'limdagidan farq qilib, o'quvchilarning mustaqilligi va o'quv faoliyatini taqiqlamasdan belgilangan maqsadga yo'naltirish, o'quv faoliyatini boshqarmasdan hamkorlikda tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayonida majburlashdan voz kechib, talabalarni shu faoliyatga ongli ravishda yo'llash, biror bir faoliyatni buyruq orqali amalga oshirmasdan, balki shu faoliyatni samarali tashkil etish orqali talabalarda qiziqish uyg'otish, shaxsning ehtiyoji, qiziqishi, imkoniyatlarini chegaralamasdan erkin huquqini berish sanaladi.

Yangi munosabatlarning asosiy mohiyati shundaki, an'anaviy ta'limda ko'zda tutilgan natijalarni bermayotgan majburan o'qitishdan voz kechish va

uning o‘rniga:

- o‘zaro ishonchga asoslangan talabchanlik;
- ta’lim jarayonini samarali tashkil etish orqali talabalarda fan asoslarini o‘rganishga qiziqish uyg‘otish va ongli intizomni vujudga keltirish;
- maqsadga muvofiq tashkil etilgan ta’lim-tarbiya jarayonida talabalarda muvaffaqiyatga erishish uchun xohish paydo qilish;
- mustaqil ish va mustaqil faoliyatni tashkil etish;
- tegishli talablarni jamoa orqali qo‘llashni amalga oshirish muhim sanaladi.

Yangi munosabatlarning vujudga kelishi shaxsga tafovutlab yondashish, ya’ni ta’lim jarayonini tabaqalashtirish va individuallashtirish tamoyilini talab etadi.

Mazkur tamoyillar asosida ta’lim jarayonini tashkil etishda;

- qalamtasvir mashg‘ulotlarida o‘rta saviyali talabaga nisbatan mo‘ljallanishdan voz kechish;
- qalamtasvir mashg‘ulotlarida talabaning eng yaxshi sifatlarini aniqlash va uni faollashtirish;
- qalamtasvir mashg‘ulotlarida talabaga nisbatan psixologik-pedagogik tashxisni qo‘llash, qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyati, yo‘nalishi, sifatleri, aqliy jarayonining xususiyatlarini aniqlash;
- qalamtasvir mashg‘ulotlarida har bir talabaning ehtiyoji, qiziqishi, iqtidori va imkoniyatiga yarasha o‘quv topshiriqlarini tayyorlash;
- qalamtasvir mashg‘ulotlarining ta’lim-tarbiya jarayonlarida talabaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;
- qalamtasvir mashg‘ulotlarida talabaning rivojlanish dinamikasini tasavvur qilish;
- qalamtasvir mashg‘ulotlarida talabaning faollashishini dasturiga va unga tegishli o‘zgartirishlar kiritish zarur. Ta’lim-tarbiya jarayonining yangicha yondashuv asosida tashkil etilishi talabalarda o‘quv motivlarini shakllantirish va faollashtirishni talab etadi.

Talabalarda o'quv motivlarini shakllantirish didaktikada mukammal o'rganilgan masala sanaladi. Jumladan, L.M.Fridman, V.I.Maxmutovlar¹ tomonidan olib borilgan tadqiqotda o'quvchilar o'quv motivlariga asosan to'rt guruhga ajratilgan:

1. Talabalarda faqat tashqi motivlar ustunlik qiladi, ularda ichki o'quv motivlari kuzatilmaydi, balki salbiy motivlar uchraydi.

2. Talabalarda tashqi motivlar ustunlik qiladi, o'quv-bilish motivlari ikkinchi darajali sanaladi.

3. Talabalarda ichki motivlari ustunlik qiladi, o'quv-bilish motivlari kuchsiz shakllangan bo'ladi.

4. Talabalarda o'quv-bilish motivlari ustunlik qiladi, ularda bilish faoliyati ustun bo'ladi.

O'qituvchi o'z pedagogik faoliyati orqali talabalarda uchinchi va to'rtinchi guruh motivlarni shakllantirgandagina qalamtasvir mashg'ulotlarini o'qitish jarayonidan ko'zlangan maqsadga erishishi mumkin.

Shuningdek, o'rganilayotgan mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy va faollashtiruvchi maqsadlaridan kelib chiqqan holda, qalamtasvir mashg'ulotlarida talabalarning bilish faoliyatini yakka individual tarzda, ikki o'quvchi hamkorligida va kichik guruhlarda tashkil etish va boshqarish yo'llarini bilishi lozim.

Qalamtasvir mashg'ulotlarini o'qitish jarayonini tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlariga ilmiy-metodik jihatdan mukammal ishlangan darslikning mavjudligi bevosita ta'sir etadi. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishda qalamtasvir mashg'ulotlarini takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan yondashuvda esa, o'quv materiali talabalarga tayyor holda berilmagan, balki talabalar darslik ustida mustaqil ishlashlari orqali yangi mavzu materialini o'zlashtirishlari

¹ Fridman L.I., Maxu V.I. Problemnaya organizatsiya uchebnogo protsessa. metodicheskaya razrabotka/ - M.: Pedagogika, -1990. – 62s. Maxmutov M.I. Sovremennyy urok. – M.:Pedagogika, 1981.-184s.

nazarda tutiladi. Natijada darslikning axborot manbai sifatidagi funksiyasi tiklandi va o'quv jarayonida tutgan o'rni yetakchi darajaga ko'tarildi.

Uzluksiz ta'lim tizimi uchun tayyorlangan qalamtasvir darsliklari, o'quv qo'llanmalar va metodik qo'llanmalar taxlil etildi.

Qalamtasvir darsliklarida uchraydigan umumiy kamchiliklar sirasiga tushuncha va atamalarda umumiylikning yo'qligi, o'qitish prinsiplariga to'liq amal qilinmaganligi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari hisobga olinmaganligi, akademik tilda yozilganligi, rasmlarning sifatsizligi va kamligi kabilarni kiritish mumkin.

Ta'lim-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash maqsadida respublikamizda «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarning yangi avlodini Konsepsiyasi» qabul qilingan¹. Mazkur konsepsiyada darsliklar uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining bir turi sifatida e'tirof etilgan. Shuningdek, o'quv adabiyotlariga qo'yiladigan umumiy va xususiy talablar keltirilgan. Jumladan, o'quv adabiyotlarining bir turi bo'lgan darsliklar umumiy talablar sifatida davlat ta'lim standartlari asosida tayyorlanishi, ta'lim-tarbiya jarayonida hamkorlik pedagogikasi va o'qitishning interaktiv uslublarini tatbiq etishda ko'mak berishi, tegishli o'quv fanining nazariy va amaliy faolashishida, uzoq va yaqin o'tmishdagi boy intellektual merosimizning o'rni va ahamiyatini ko'rsatishi, intellektual insonparvarlik g'oyalarining aks ettirilishi, insonning tabiat va ijtimoiy hayotda o'ta masuliyatlilikni anglashga qaratilishi, vatanparvarlik va milliy g'urur hissini shakllantirishi, mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirishi, ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishi, ta'lim va tarbiyaning uzviylagini ta'minlashi, bilimlarni ongli o'zlashtirish, qiziqish uyg'ota oladigan va mustaqil fikrlashga yo'naltira oladigan xususiyatlarga ega bo'lishi, bilim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini faollashtirishga qaratilishi, mustaqil ta'lim olishga qiziqish uyg'otishi kabi muhim omillar ko'rsatilgan.

Qalamtasvir darsligida talabalarning o'quv-bilish faoliyatini

¹ (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 295-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 15-son, 150-modda)

faollashtiradigan, mustaqil ishlash va ijodiy fikr yuritish, o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va o'z-o'zini baholash, mantiqiy fikr yuritish operatsiyalarini bajarish natijasida badiiy bilimlarni ongli o'zlashtirish ko'nikmalarini egallashlariga zamin tayyorlangan.

Darslikda didaktik adabiyotlarda qayd etilgan ta'lim mazmuni quyidagi to'rtta tarkibiy qismda o'z ifodasini topgan:

1. Asosiy g'oyalar, nazariyalar va tushunchalar.
2. Faoliyat usullari (ko'nikma va malakalar).
3. Ijodiy faoliyat tajribalari.
4. Qadriyatlar tizimi.

O'qituvchi qalamtasvir ta'limi samaradorligiga erishish va o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishi uchun ta'lim mazmunining tarkibiy qismlari va ularni talabalar tomonidan o'zlashtirish usullarini bilishi lozim.

Talabalarda faoliyat turlari - ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish ko'nikma tarkibiga kiradigan ish usullarini aniqlash va ularni bajarish, ko'rsatmaga binoan shu ish usullarini takror mashq qilish, ko'nikmalarni tanish, odatiy va kutilmagan yangi vaziyatlarda ijodiy qo'llash kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim mazmunining uchinchi tarkibiy qismi bo'lgan ijodiy faoliyat tajribalarini o'qituvchining tayyor axboroti orqali shakllantirish mumkin emas, u talabalarning mustaqil va ijodiy fikr yuritishiga zamin tayyorlaydi. Shu sababli, talabalarda ijodiy faoliyat tajribalarini shakllantirish uchun ular o'quv materialini mustaqil ravishda o'zlashtirishlari, o'quv topshiriqlarini bajarish jarayonida muammolarni idrok etishi, tasavvur qilishi, abstrakt fikr yuritishi, o'rganilayotgan ob'ektlarni tahlil va sintez qilishi, taqqoslashi, o'xshashlik va umumiy tomonlarini aniqlashi, fikr va g'oyalarni umumlashtirib, xulosa yasash orqali bilim, ko'nikma malakalarini yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llashni o'rganishlari lozim.

Ta'lim mazmunining to'rtinchi tarkibiy qismi hisoblangan qadriyatlar

tizimi o'qitish jarayonida ta'lim-tarbiyaning uzviyligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligini ta'minlash, talabalarda tabiat va butun borliqqa nisbatan ongli munosabatni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Talabalar mazkur tarkibiy qismni o'zlashtirishlari uchun avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda ijodiy qo'llashlari, bir so'z bilan aytganda, ulardan faol o'quv-bilish faoliyati talab etiladi.

Ta'lim mazmunining tarkibiy qismlari davlat ta'lim standartlarining asosini tashkil etadi.

1. Asosiy qism - ta'lim-tarbiya jarayonidan ko'zlangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga imkon beradigan badiiy bilim, ko'nikma va malakalarning majmuasi sanaladi. Mazkur qism ta'lim mazmunining bilimlar, faoliyat turlari - ko'nikma va malakalardan iborat bo'ladi.

2. Kengaytiruvchi tarkibiy qism - o'quvchilarning badiiy bilimlari va mustaqil hayotga tayyorgarligini o'rttirishga imkon beradigan, shaxs yoki guruh qiziqishlarini faollashtirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmunining bir qismi. Ta'lim mazmunining ijodiy faoliyat tajribalari va qadriyatlar tizimini o'z ichiga oladi.

3. Yordamchi qism – qalamtasvir kursi mantiqiy strukturasi yoxlitligini ta'minlovchi talabalarning qiziqishi va ehtiyojlari hisobga olingan holda darsdan tashqari ishlar, kuzatish va tajriba qo'yish hamda auditoriyadan tashqari ishlarni o'z ichiga olgan ta'lim mazmunining ma'lum bir qismidir.

4. Qo'shimcha tarkibiy qism - oliy ta'limi muassasalari yo'nalishlari va mahalliy xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladigan ta'lim mazmunining bir qismi.

DTS ning asosiy va kengaytiruvchi tarkibiy qismlari o'zgarmas bo'lib, o'quv faoliyatning asosiy fundamental va amaliy masalalarini yoritadi, yordamchi va qo'shimcha tarkibiy qismlari o'quvchilarning kelgusida egallaydigan mutaxassisliklariga bog'liq holda, o'quv fanining o'zgarib turadigan qismi sanaladi¹.

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2001 yil, 15-16-son, 104-modda

Tasviriy san'at o'qituvchisi ta'lim mazmunining tarkibiy qismlari va ularni talabalar tomonidan o'zlashtirish usullarini hisobga olgan holda, talabalarning bilish faoliyatini tashkil etishi va boshqarishi zarur. Mazkur jarayonda ko'rgazmali vositalardan o'z o'rnida va samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli badiiy ta'limining samaradorligi qalamtasvir o'quv xonasining jihozlanishi va moddiy bazasining mavjudligiga bog'liq.

Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasida talabalarning puxta bilim va ko'nikmalarni egallashlarida qalamtasvir o'quv xonasining ahamiyati - asosiy talablardan, qalamtasvir xonasini bezatish, tabiat tulumlari, o'quv tajriba maydonchalarini tashkil etish, o'qitish jarayonida foydalaniladigan ko'rgazmali vositalarning turlari aniqlangan va metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

O'qitish jarayonini tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik shart- sharoitlari, o'z navbatida, didaktik shart-sharoitlarni taqozo etadi. Shu sababli quyida didaktik shart-sharoitlarning vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatadigan omillarni ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishda qalamtasvir mashg'ulotlarini o'qitishni takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari ta'lim-tarbiya jarayonining tashkilotchisi va boshqaruvchisi bo'lgan o'qituvchidan muayyan tayyorgarlikni talab etadi. Ushbu tayyorgarlikka o'qituvchining tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanini nazariy va amaliy jihatdan o'zlashtirganlik darajasi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli o'qituvchining tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanini nazariy va amaliy jihatdan o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun Nizomiy nomidagi TDPU kasb ta'limi fakulteti "tasviriy san'at va muhandislik" ta'lim yo'nalishi 1-2 kurs talabalaridan quyidagi so'rovnoma olindi.

Ushbu so'rovnoma magistirlilik dissertatsiya ishini boshlashdan avval o'tkazilgan bo'lib, unda talabalar so'rovnoma orqali berilgan savollarga o'z-o'zini baholash yo'li bilan bergan javoblari orqali talabalarning qalamtasvir fanini nazariy va amaliy jihatdan o'zlashtirganlik darajasini aniqlash imkonini

berdi. So'rovnomadan olingan natijalar qalamtasvir o'qituvchisining ilmiy-metodik tayyorgarligi talab darajasida emasligini ko'rsatdi, Jumladan, qalamtasvir fanini nazariy va amaliy jihatdan o'zlashtirganlik darajangizni baholang, degan savolga so'rovnoma o'tkazilgan 110 nafar talabaning 30 nafarida yetarli, 65 nafarida qoniqarli, 15 nafarida kam darajada ekanligi qayd etilgan. Talabalarning qalamtasvir fanini nazariy va amaliy jihatdan o'zlashtirganlik darajasini orttirish uchun talabalar bilan individual ishlash, tabaqalashtirilgan ta'limni joriy etishni yo'lga qo'yish lozimligi aniqlandi.

Qalamtasvir fanida erishilgan yutuqlar, yangiliklardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi ushbu faoliyatni amalga oshirishi uchun qo'shimcha adabiyotlardan foydalanishi, o'quv materialini tanlash va qayta ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Ushbu savolga talabalarning 33 nafari yetarli, 64 nafari qoniqarli, 13 nafari kam darajada foydalanishini ma'lum qilgan. Bu borada o'qituvchilarga amaliy-metodik yordam ko'rsatish zarurligi sezildi.

Ushbu muammoning hal etilishi iqtidorli talabalar bilan individual ishlash, tabaqalashtirilgan ta'limning metodi, vositalari va shakllaridan foydalanishni taqozo etadi. Olingan so'rovnomada talabalarning 50% qoniqarli, 50% kam darajada iqtidorli talabalar bilan individual ishlayotganligi ma'lum bo'ldi. Qalamtasvirni o'qitishda tabaqalashtirilgan ta'limni joriy etish, iqtidorli talabalar bilan individual ishlash bo'yicha ko'rsatmalar tayyorlash zarurati tug'ildi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma o'quvchi-yoshlar ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish sanaladi. Shu sababli qalamtasvir o'qituvchilari mazkur jarayonning mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarini bilishi hamda amaliyotga ko'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur. Olingan natijalarning taxlili bu borada talabalarning 80% da qoniqarli, 20% da kam darajada amalga oshirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatdi.

Shu sababli, o'quvchi-yoshlar ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishning mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarini ishlab chiqish, bu borada qalamtasvir o'qituvchilariga amaliy-metodik yordam ko'rsatish zarurati

vujudga keldi.

So'rovnomadan o'rin olgan qalamtasvir darslarida o'qitishning texnik, audio-video va axborot texnologiyalaridan foydalanish yuzasidan berilgan savolga 100% talabalar kam darajada foydalanayotganligini qayd etgan. Bu holatni izoxlash uchun ular o'quv muassasalarining moddiy-texnik bazasi yetarli darajada emasligi, o'zlarida mazkur vositalar bilan ishlash ko'nikmalarining yo'qligi, shuningdek, dasturiy-metodik ta'minot mavjud emasligini ko'rsatishgan.

Uzluksiz ta'lim tizimi oddidagi muhim buyurtmalardan biri ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash hisoblanadi.

O'qituvchilarning bu boradagi metodik tayyorgarligi talab darajasida emasligi ma'lum bo'ldi. So'rovnomada ishtirok etgan talabalarning 10% kam darajada, darsning ma'lum qismida talabalarning bilimlarini nazorat qilish va baholashda test topshiriqlaridan foydalanishini ta'kidlashgan. Olingan natija talabalarning ta'lim-tarbiya jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishi uchun zarur bo'lgan metodik bilimlarni shakllantirish, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish dolzarb muammo ekanligini ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, so'rovnoma tahliliga asoslanib, qalamtasvir o'qituvchilarining ilmiy-metodik tayyorgarligiga yetarli darajada emasligi, tadqiqotda qalamtasvir o'qituvchilarining ilmiy-metodik tayyorgarligini tarkib toptirish va mazkur tayyorgarlik darajasini orttirishga e'tibor qaratish muhimligi ma'lum bo'ldi.

Qalamtasvirni o'qitishda uning ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy yo'nalishini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ushbu muammo bo'yicha o'qituvchilarga metodik tavsiyanoma ishlab chiqildi.

Badiiy ta'limni takomillashtirishda ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham tadqiqotda ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llashning metodik ta'minotini yaratishga e'tibor qaratildi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasi hozirgi kunda dolzarb muammo sanalib, juda ko'p olimlarning jumladan, V.P.Bespalko, M.V.Klarin, V.I.Kuznetsov, E.S.Polat, G.K.Selevko, N.N.Azizxo'jaeva, N.S.Sayidaxmedov, L.B.Farberman tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan¹.

Didaktik adabiyotlari tahliliga asoslanib, qalamtasvirni o'qitishda foydalaniladigan pedagogik texnologiyalar o'ziga xos xususiyatlari, mohiyati va mazmuniga ko'ra ikki guruhga ajratildi:

1. Pedagogik jarayonning xarakteri va borishini o'zgartirishda qo'llanadigan pedagogik texnologiyalar.

2. Qalamtasvir darslarida foydalaniladigan texnologiyalar.

Pedagogik jarayonning xarakteri va borishini o'zgartirishda qo'llanadigan pedagogik texnologiyalar guruhiga o'qitishni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar, faollashtiruvchi ta'lim, o'qitishni differensiallashtirish va individuallashtirish texnologiyalari, qalamtasvir darslarida foydalaniladigan texnologiyalar guruhiga esa, didaktik o'yin, muammoli ta'lim, modulli ta'lim, hamkorlikda o'qitish, loyihalash texnologiyalari kiritildi. Qalamtasvir darslari jarayonida pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish uchun, avvalo, pedagogik jarayonning xarakteri va borishini o'zgartirishda qo'llanadigan pedagogik texnologiyalarning mazmuni va mohiyati, ularni ko'llash darajalarini tasavvur qilishi va shu asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishi zarur. Qalamtasvirni o'qitishda maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatish va qulay ijtimoiy-psixologik muhitni vujudga keltirish o'qituvchi tomonidan qo'llanilgan pedagogik texnologiyalarga bog'liq bo'ladi.

¹ Bespalko V.P. Slagaemye pedagogicheskoy texnologii. – M.: Pedagogika, 1989. – 14 s. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse. /Analiz zarubejnogo opyta/ - M.: Znanie. 1989.- 80s.

Kuznetsov V.I. Printsipy aktivnoy pedagogiki: Chto i kak prepodavat v sovremennoy shkole: Uchebnoe posobie dlya studentov vysshih uchebnyh zavedeniy. – M.: Akademiya, 2001. – 120 s. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. / Barcha mutaxassisliklar magistratura yo'nalishlari uchun o'quv qo'llanma. –T.: TDPU. 2003. – 174 b.

Didaktikada ishlab chiqilgan har qanday texnologiya o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, lekin didaktik o'yin, muammoli ta'lim, modulli ta'lim, hamkorlikda o'qitish, loyihalash texnologiyalarida mazkur masala asosiy g'oyani egallaydi.

1.3 Qalamtasvir fan o'qituvchisining kasbiy mahoratiga qo'yilgan talablar

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» yuksak oliy ta'lim madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri o'qib bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir, kadrlarning yangi avlodiga qo'yilgan talablar umumiy bo'lib, bu pedagog kadrlarga ham taaluqli.

Shu sababli mazkur ta'lim muassasalarining o'qituvchilari uchun alohida davlat talablari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Talabalar mashg'ulot faoliyatiga pedagogik rahbarlik metodlari:

1. Talabalar ijodiy faoliyatining xususiyatlari, uning imkoniyatlari va turlarini ifodalovchi metodlar: mustaqil topshiriq berish, natijani tekshirish va h.k.

2. Talabalar o'qish faoliyatining amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantiruvchi metodlar: Talabalar nazariy va amaliy faoliyatining natijalarini nazorat qilish va baholash metodlari: kuzatish, suhbat, natijalarni tekshirish, baholash, test o'tkazish, himoya qildirish va h.k.

3. Pedagogik rahbarlik talabalar mustaqil ta'lim olish faoliyatini takomillashtirish sharti hisoblanadi. Pedagogik rahbarlik samaradorligi bir qator omillar, eng avvalo, o'qituvchi shaxsi, uning obro'siga bog'liq.

Pedagogik rahbarlik metodikasi o'qituvchiga qo'yiladigan quyidagi talablar orqali aniqlanadi:

- talabalarning individual xususiyatlari darajasini bilish;
- har bir talabaning shaxsiy qobiliyatini loyihalash ko'nikmasi;

- talabalarning rivojlanish darajalarini bilish.

Shunday qilib, talabalarning faoliyati murakkab bilish jarayoni bo'lib, talabalar zaruriy aqliy qiziqishlik bilan o'rganilayotgan predmetlar, hodisalarni tahlil qilish va umumlashtirishga mustaqil yondoshgan paytda o'z samarasini beradi. Qalamtasvir fani o'qituvchisidan talab etiladigan ilmiy-metodik tayyorgarlik asosida, mazkur tayyorgarlikka qo'yiladigan minimal va maksimal talablar ishlab chiqildi.

Qalamtasvir fani o'qituvchisining ilmiy-metodik tayyorgarligiga qo'yiladigan minimal talablar sifatida quyidagilar belgilandi:

1. Qalamtasvir fani darslari, ekskursiyalar, darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'qitishning samarali vositalari, metodlari hamda shakllaridan foydalanish;

2. Talabalarni qalamtasvir fani asoslari haqidagi bilimlar bilan qurollantirish, ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarini uyg'un tanlash orqali ta'lim samaradorligiga erishish;

3. Talabalarning bilish faoliyatini maqsadga muvofiq samarali tashkil etish, boshqarish va faollashtirish;

4. Qalamtasvir fanining mazmuni va pedagogik munosabatlarni insonpar-varlashtirish yo'llari, Qalamtasvir fanini o'qitishda talabalarni tarbiyalashning mazmuni, vositalari, metodlarini bilish va amalga oshirish;

5. Talabalarni milliy mustaqillik prinsiplari va ona-Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ma'naviy va axloqiy fazilatlarini faollashtirish yo'llarini belgilash va amalga oshirish ko'nikmalarini egallash;

6. Qalamtasvir bilimlari asos bo'ladigan kasblar haqida tushuncha berish, talabalarni ongli ravishda mutaxassisligiga yo'llash.

Qalamtasvir fani o'qituvchisining ilmiy-metodik tayyorgarligiga qo'yiladigan maksimal talablar etib quyidagilar belgilandi:

1. Qalamtasvir fanini o'qitishda pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish uchun zarur bo'lgan metodik bilim, ko'nikma va malakalar,

2. Ta'lim-tarbiyaning uzviyligini ta'minlash, o'quvchilarga ta'lim berish va tarbiyalashning mazmuni, vositalari va metodlarini bilish, zarur ko'nikma va malakalar.

3. O'quvchi-yoshlar ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish mazmunini tanlash va saralash, o'qitishning samarali vositalari va metodlaridan foydalanish ko'nikmalari.

4. Talabalarning bilish faoliyatini pedagogik texnologiyalar talablari asosida maqsadga muvofiq tashkil etish va boshqarish, faollashtirish, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish yo'llarini bilish.

5. Talabalarning o'quv motivlarini faollashtirish ko'nikmalari,

6. Talabalarda o'quv, amaliy, ijodiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalari, atrof-muhitga ongli munosabatni tarkib toptirish yo'llarini bilish va amaliyotga qo'llash ko'nikmalarini egallagan bo'lishi talab etiladi.

Tadqiqot davomida o'qituvchilarning ilmiy-metodik tayyorgarligi darajasiga ko'yilgan minimal va maksimal talablar asos qilib olindi.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida uzluksiz ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan davlat va ijtimoiy buyurtmalar asosida qalamtasvir fani o'qitishga qo'yiladigan talablar tahlil etildi.

2. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari va uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatadigan prinsiplariga mos holda qalamtasvir fanini o'qitishda foydalaniladigan o'qitish prinsiplari va qonuniyatlari tavsiflandi.

3. Qalamtasvir faniga qo'yilgan talablar aniqlangan o'qitish prinsiplari va qonuniyatlari asosida mazkur jarayonni takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik va didaktik shart-sharoitlarini tashkil etishga ta'sir ko'rsatadigan omillar aniqlandi.

4. Qalamtasvir fani jarayonini takomillashtirish o'qituvchilardan muayyan ilmiy-metodik tayyorgarlikni talab etganligi sababli, me'yoriy

hujjatlar tahlil qilindi va qalamtasvir fani o'qituvchisining ilmiy-metodik tayyorgarligiga qo'yiladigan minimal va maksimal talablar ishlab chiqildi.

Qalamtasvir fani o'qituvchisining pedagogik faoliyatga tayyorgarligining tarkibiy qismlari bo'lgan ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik, ilmiy-metodik tayyorgarlikni unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar bilan o'zaro uzviyligi aniqlandi.

II BOB. BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINI KASBIY MAHORATI-KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

2.1. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy-mahorati kompetentligini rivojlantirishda qalamtasvir fani darajasini oshirishning mazmuni, metod va vositalari

«Faoliyat metodlari - bu faoliyatni amalga oshirish usuli bo'lib, u ko'zlangan maqsadga erishishga olib boradi. Biz to'g'ri metod tanlar ekanmiz, ko'zlangan natijaga komil ishonch bilan va qisqa yo'l bilan erishamiz. Hozirgi kunda insoniyat tomonidan faoliyat metodlarining boy xazinasini to'plangan. Lekin muammolarning to'xtovsiz murakkablashib borishi va yangi imkoniyatlarning yuzaga kelishi ularni hal qilish metodlarni muttasil yangilab turishni talab qiladi. Bu aytilgan gap o'qitishga ham taalluqli».

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida qo'llaniladigan o'qitish metodlari didaktikada juda ko'p tadqiqotchilarning, jumladan, Yu.K.Babanskiy, I.L.Lerner, V.Okon, M.I.Maxmutov ishlarida o'z ifodasini topgan.

Lekin, pedagogika oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, bo'lg'usi o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash, xususan, ularning ilmiy-metodik tayyorgarligini tarkib toptirishga imkon beradigan o'qitish metodlarini o'qitishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar bilan uyg'un ravishda tatbiq etish masalasi didaktikada kam o'rganilgan. Mavjud adabiyotlarning ichida B.Boymetov, S.Abdirasilovlar tomonidan chop etilgan «Qalamtasvir» darsligida pedagogika oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonida muammoli, kontsentrlangan, modulli o'qitish, rivojlantiruvchi, differensiallashtirilgan ta'lim, faol o'qitish, o'yinli

o'qitish texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etilgan¹.

Zamonaviy sharoitda yaxlit pedagogik jarayon, uning alohida tarkibiy qismlari, pedagogik faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liqlikda "metodika" va "texnologiya" tushunchalari ko'p qo'llaniladi. Hatto, mazkur tushunchalar mohiyatini tavsiflashda ham xilma-xil yondashuvlar mavjud bo'lib, pedagogik sohada faoliyat yurituvchi shaxslar o'rtasida ham ko'pgina tortishuv, bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, ma'lumotlarni umumlashtirish orqali mazkur tushunchalarning aniq ta'rifini shakllantirish mumkin.

Umumiy ma'noda "metodika" tushunchasi ma'lum bir ishni bajarish uchun zarur bo'ladigan metod va usullar yig'indisidir. Ko'pgina izohli lug'atlarda ham "Metodika – qat'iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgari o'rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish bo'lib, biror bir ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmuasi"ni ifoda etishi ko'rsatib o'tilgan². "Metodika" tushunchasiga berilgan xilma-xil ta'riflarga tayangan holda quyidagi umumlashmalarga kelish mumkin:

- 1) metodika – bu o'qituvchi ishini tashkil etishning shakl, metod va vositalari;
- 2) ma'lum bir faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan metod va usullar yig'indisi;
- 3) bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonini maqsadga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish, rejali va tizimli amalga oshirishga yordam beruvchi usullar yig'indisi.

"Metodika" tushunchasi turli fanlarni o'qitish bilan ham bog'liklikda qo'llanilib, ma'lum sohani o'qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari,

¹ Abdiraslov S., N. Rangtasvir. T.: O'zbekiston nashriyoti, 2006.

² Hasanboev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. –T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2009. –B.311; Ojegov S. I., SHvedova N. Yu. Толковый словарь русского языка: 80 000 слов и фразеологических выражений / Российская академия наук. Институт русского языка им. В. В. Виноградова. — 4-е изд., дополненное. — М.: Azbukovnik, 1999; Словарь бизнес-терминов. Akademik.ru. 2001.

tamoyillari, shakl, metod va vositalari yig'indisini o'zida ifoda etadi. Pedagog olim A.M.Stolyarenkoning fikricha, "O'quv fanlarini o'qitish metodikasi metodika ma'lum bir pedagogik vazifalarni hal etish bilan bog'liq metod, metodik usullar, vosita va tashkiliy chora-tadbirlar majmuidir"¹. G.M.Kodjaspirova, A.Yu.Kodjaspirovlarning fikricha, "O'qitish metodikasi pedagogik faoliyatni amalga oshirishning aniq usullari, uslublari va texnikasidir"².

O'qitish metodikasiga qo'yiladigan zaruriy talablarga quyidagilar kiradi:

- 1) hayot bilan uyg'unlik;
- 2) qayta ishlab chiqishga yo'nalganlik;
- 3) aniqlik;
- 4) rejalashtirilgan harakat maqsad va vazifalariga moslik;
- 5) asoslanganlik;
- 6) natijaviylik.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, o'qitish metodikasi o'zida:

- ta'limning maqsad va vazifalarini – ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, tashkiliy;

- ta'limning qonuniyat va tamoyillarini;
- ta'lim mazmunini;
- ta'limni tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllarini;
- ta'limning umumiy va xususiy metodlarini;
- o'quv vositalari;
- o'qitish natijasini aks ettiradi.

Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, quyida o'qitish metodikasi mohiyatini yoritib beruvchi asosiy tushunchalarga izoh berib o'tamiz:

1) o'rgatish – o'qitish maqsadini amalga oshirish bo'yicha pedagogning tartiblangan faoliyati;

¹ Stolyarenko A.M. Psixologiya i pedagogika. M.: YuNITI-DANA, 2008. – S.368.

² Kodjaspirova G.M. i Kodjaspirov A.Yu. Slovar' po pedagogike. – M.: IKTS «MarT», 2005.– S.174.

2) o'rganish – anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o'zgaradi;

3) o'qitish – qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan o'quvchilarning tartiblangan o'zaro harakati;

4) ta'lim– o'qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko'nikma, malakalar, fikrlash usullari tizimi;

5) bilim – ma'lum bir fanni nazariy o'zlashtirishni aks ettiradigan inson g'oyalari yig'indisi;

6) ko'nikma – egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash usullarini egallash;

7) malaka – avtomatlashgan, biror bir usul bilan bexato bajarish, ko'nikmaning takomillashgan darajasi;

8) maqsad– o'qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo'sinda safarbar etilishi;

9) mazmun – o'qitish jarayonida egallanishi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi;

10) tashkil etish – qo'yilgan maqsadni yaxshi amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon;

11) shakl – o'quv jarayonining tashqi ifodasi, uning ichki mohiyati, mantig'i, mazmuni uchun qobiq;

12) metod – o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo'li;

13) vosita – o'quv jarayonining predmetli qo'llab-quvvatlanishi, yangi materialni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan foydalaniladigan ob'ekt;

14) natija– o'quv jarayonining so'nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi.

Ilm-fan va ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi jamiyatni iqtisodiy taraqqiy ettirish bilan bir qatopda ijtimoiy munosabatlar mazmunida ham tub o'zgarishlarning ro'y berishiga zamin yaratmoqda. Shuningdek, iqtisodiy sohada bo'lgani singari ijtimoiy, shu jumladan, ta'lim sohasida ham texnologik yondashuvni tatbiq etishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

“Pedagogik texnologiya – bu ta'lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil metodidir” (YUNESKO).

“Pedagogik texnologiya – pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan shaxsiy imkoniyatlar, jihozlar va metodologik vositalarda amalda bo'lishning tizimli yig'indisi va tartibini bildiradi”¹ (M.V.Klarin).

“Pedagogik texnologiya – psixologik va pedagogik o'gitlar yig'indisi bo'lib, shakllar, metodlar, usullar, o'qitish yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus to'plamidir. Ayni zamonda u pedagogik jarayonning tashkiliy-metodik omilini ham bildiradi”² (B.T.Lixachev).

“Pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini amalga oshirishning mazmuniy texnikasi”³ (V.P.Bespalko).

“Pedagogik texnologiya – rejalashtirilgan o'qitish natijalariga erishish jarayoni tavsifi” (I.P. Volkov).

“Pedagogik texnologiya -tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta'lim shakllarini kulaylashtirish, natijasini kafolatlash va ob'ektiv baholash uchun inson calohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro ta'sirini inobatga olib, ta'lim maqcaddapini oydinlashtirib, o'qitish va bilim o'zlashtirish jarayonlarida qo'llanadigan usul va metodlar majmuidir”⁴. (M.O.Ochilov).

¹ Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse. /Analiz zarubejnogo opyta/ - M.: Znanie. 1989.- 80s.

² B.T.Lixachev pedagogicheskoy texnologii

³ Bespalko V.P. Slagaemye pedagogicheskoy texnologii. – M.: Pedagogika, 1989. – 14 s.

⁴ M.O.Ochilov, N.Ochilova «O'qituvchi odobi». T. «O'qituvchi» 1997 y. 7. “Uzluksiz ta'limda malaka oshirish tizimi va unda “Ustoz-shogird” an'alarining o'rni”

“Pedagogik texnologiya bu o‘qityvchi (tarbiyachi) tomonidan o‘qitish (tarbiya) vositalari yordamida o‘qyvchilarga ta’sir ko‘pcatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni”⁵ (N.Saidaxmedov).

Yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, pedagogik texnologiyaning ahamiyati avval o‘zlashtirilgan nazariy bilimlar bilan yangi o‘zlashtiriladigan bilimlar orasida mustahkam bog‘lanishlarning yuzaga kelishi bilan belgilanadi.

Ta’lim amaliyotida “pedagogik texnologiya” tushunchasi uch darajada qo‘llaniladi:

Umumpedagogik (makro) daraja. Mazkur darajaga muvofiq keladigan texnologiyalar yaxlit pedagogik jarayonga tegishli bo‘lib, ta’lim tizimining barcha turlarida qo‘llash imkonini beradi.

Xususiy-metodik (mezo) daraja. Ushbu daraja o‘zida ma’lum bir o‘quv fani, alohida ta’lim oluvchilar guruhi, ma’lum ixtisoslikka mansub pedagoglarga yo‘nalganlikni aks ettiradi.

Lokal daraja (mikro). Mazkur darajaga tegishli texnologiyalar o‘quv-tarbiya jarayonining alohida tarkibiy qismi, alohida shaxs sifatlarini shakllantirish, maxsus o‘quv ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

“Metodika” va “texnologiya” tushunchalari tahlili asosida xulosa qilish mumkinki, mazkur tushunchalar o‘zaro aloqadorlik va umumiylikka ega bo‘lishi bilan birga ayrim o‘ziga xosliklar bilan ham tavsiflanadi¹.

Ma’lumki, so‘nggi yillarda ta’lim-tarbiyaga texnologik yondashuvning keng miqyosda tatbiq etilishi pedagogikaning alohida sohasi hisoblangan “metodika” bilan “texnologiya” tushunchalarining mohiyatini aniqlashtirib

⁵ Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T., O‘zMU qoshidagi OPI. – 88 bet.

¹ Hasanboev J., Hasanboeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. –T.: “Fan va texnologiya”nashriyoti, 2009. –B.311; Ojegov S. I., SHvedova N. Yu. Толковъу slovarъ russkogo yazyka.: Azbukovnik, 1999; Slovarъ biznes-terminov. Akademik.ru. 2001.

olishga alohida ehtiyoj sezilmoqda. Chunki aksariyat hollarda mazkur tushunchalarning mohiyatini aniq farqlay olmaslik natijasida ularning birini ikkinchisidan ustun qo'yish, yoxud ularning o'rnini almashtirgan holda qo'llanilishi ko'zga tashlanmoqda.

Albatta, "metodika" va "texnologiya" tushunchalari mohiyatini tushuntirishda aniq chegara qo'yish bir oz murakkab masala. Biroq ularning o'ziga xosliklarini tahlil etish, ayrim farqli jihatlarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi. Metodika – bu xususiy didaktika, ya'ni biror bir fanni o'qitish nazariyasi. O'zaro ta'sir etishning turli shakllarini o'rganish asosida biror fanni o'qitish va o'rganish yo'llarini o'quv fani metodikasi ishlab chiqadi va ta'lim oluvchilarga ta'sir etishning aniq tizimini o'qituvchilarga taklif etadi. Bu tizimlar DTS, o'quv dasturi va darsliklarda ochib beriluvchi ta'lim mazmunida o'z aksini topadi hamda ta'lim metodlari, shakllari va vositalari orqali amalga oshadi. O'quv fani metodikasi didaktika bilan mustahkam bog'langan va uning umumiy qoidalariga tayanadi. Tarbiya tamoyillarig aasoslanib esa, metodika o'quv fani maqsadi, uning ta'lim oluvchi shaxsini rivojlanishidagi ahamiyatini ochib beradi.

Didaktika turli ta'lim muassalarida xilma-xil o'quv fanlarini amalga oshiriladigan o'quv jarayonining umumiy qonuniyatlarini aks ettiradi. Tabiiyki, har bir o'quv fani o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlariga ega, o'zining alohida metodlari va ta'limni tashkil etish shakllarini talab etadi. Mazkur masalalar bilan xususiy metodika, yoki alohida o'quv fanlarini o'qitish metodikasi (tarix, matematika, pedagogika, psixologiya va boshqalar) shug'ullanadi.

Ta'limga texnologik yondashish – bu ma'lumot va ta'lim mazmunini atroflicha tahlil qilish yo'li bilan o'quv-tarbiya jarayonining umumiy, xususiy maqsadlarini tahlil qilish, o'qituvchi va o'quvchi maqsadlarining uchrashgan nuqtalarida (o'qitish maqsadi, o'qish maqsadi) ta'limning didaktik maqsadini belgilash asosida ta'limni loyihalash va amalga oshirish yo'llari bilan mo'ljaldagi etalonga erishishdir. Umuman, ta'lim texnologiyasi haqida gap

ketganda o‘zaro daxldor quyidagi hodisalarni bir-biridan farqlashga ehtiyoj tug‘iladi: ta’limni didaktik loyihalash, loyihani amalga oshirish, ta’limning joriy va oraliq natijasiga ko‘ra didaktik loyihaga tuzatish va o‘zgartirishlar kiritish; ta’limni takrorlash va yakuniy nazoratdan iborat. Bu hodisalarning birinchi va ikkinchisi an’anaviy ta’lim tajribasida ham uchraydi. Ta’lim texnologiyasining an’anaviy ta’lim tizimidan farqi shundaki, ta’lim natijasi va uning etalon darajasida bo‘lishi doimo o‘qituvchi hamda o‘quvchining diqqat markazida turadi. O‘qituvchi ta’lim natijasini tez-tez tekshirib, o‘quvchilarni o‘zlari erishgan yutuqlardan ogoh qilib turadi va o‘quvchilar o‘zlari erishgan yutuq va kamchiliklarni anglab, yutuqlarini yanada ko‘paytirishga, kamchiliklarini esa bartaraf etishga harakat qiladi. O‘quvchilar ta’limning zaruriyligini, ular ta’lim jarayonining haqiqiy sub’ektiga aylangan paytida sezishadi.

So‘nggi vaqtlarda “texnologiya” tushunchasini metodikadan ustun qo‘yishga urinishlar yuzaga kelmoqda. Aslida “metodika” tushunchasi texnologiyadan yuqori turadi. Chunki metodika – bu metatexnologiya. Agar mazkur tushunchani o‘quv jarayoniga tatbiq etadigan bo‘lsak, o‘quv jarayoni, maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakl, metod va vositalarini belgilashga doir umumiy talablar mavjud. Har bir o‘quv mashg‘ulotini amalga oshirish ma’lum belgilangan algoritmik ketma-ketlikka asoslanadi. Metodika ana shu algoritmik ketma-ketlikning umumiy va xususiy qoidalariga asoslanishni talab etadi. O‘qituvchi o‘quv maqsadi bilan bog‘liqlikda mashg‘ulotni o‘tkazish texnologiyasini erkin tanlashi mumkin. Aniqroq aytganda, har bir mashg‘ulotda kutiladigan natijaga mos holda o‘quv bosqichlarini alohida-alohida loyihalash, har bir bosqichda qo‘llaniladigan shakl, metod va vositalarni tanlab olish imkoniyati yuzaga keladi.

Ayrim holatda “metodika” va “texnologiya” tushunchasini farqlashda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini asos qilib ko‘rsatishga harakat qilinadi. Ya’ni metodikada o‘qituvchining dars jarayonidagi faoliyati yoritib berilsa, texnologiyada o‘quvchilarning o‘quv harakatlari oydinlashtiriladi, degan

mulohaza bayon qilinadi. Biroq bunday yondashuvni ma'qullab bo'lmaydi. "Metodika" ham, "texnologiya" ham o'qituvchi-o'quvchi faoliyatini yaxlitlikda tashxis etadi. Texnologiya metodikadan farqli ravishda har bir bosqichda o'qituvchi-o'quvchi faoliyati mazmunini alohida-alohida oydinlashtiradi. Har bir bosqichda erishilgan natijalarni tashxis etib, o'z vaqtida korrektsiyalash imkonini beradi. Ana shu jihat ta'limga texnologik yondashuvning eng asosiy xarakterli tomonidir.

"Metodika" va "texnologiya" tushunchalarining bahs doirasi bilan ham bog'liqlikda ayrim farqli jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Jumladan, metodik tizim "Qanday o'qitish?", "Nima uchun o'qitish?", "Nimaga o'rgatish?" kabi savollarga javob izlaydi, texnologiya esa, "Qanday tarzda samarali o'qitishga erishish mumkin?" degan savolni markazga qo'yadi. Metodika o'quv jarayonini qanday tarzda tashkil etish lozimligini nazarda tutsa, texnologiya qay yo'sinda o'quv jarayonini eng qulay, maqbul tarzda amalga oshirishga diqqat-e'tiborni qaratadi.

Agar interfaol metodlarni "texnologiya" so'zi bilan ifoda etayotgan mutaxassislar ularni qo'llash bosqichma-bosqich amalga oshirilishini nazarda tutib, shunday yondashuvga asoslanayotgan bo'lsalar bunday nazariy-metodologik asos didaktik nuqtai nazardan mutlaqo xato. Chunki texnologik jarayon ikki – loyihalash va rejalashtirish bosqichlaridan tashkil topadi. Ta'lim loyihasi ma'lumot mazmunini davlat standartlari talablari asosida tahlil etishdan boshlanadi. Tahlil ma'lumot mazmuni elementlari (bilim, ko'nikma va malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar) dasturlarda qanday berilganligi, darsliklarda qanday aks ettirilganligiga qaratiladi. Keyin ta'lim mazmuni o'rganiladi, u yoki bu mavzuni o'rganishdan ko'zda tutilgan maqsad, ta'limning didaktik maqsadi, o'qituvchi va o'quvchilar maqsadi, maqsadlarni amalga oshirish va hisobga olish varaqalari, beriladigan uy ishlari miqdori, mavzular bo'yicha o'tkaziladigan test savollari, reyting nazorati bosqichlari, etalon darajasida o'zlashtirish shakl, metod va vositalari oldindan belgilab qo'yiladi. Bu ishlarning barchasi ta'lim modelini yaratishga olib keladi.

Rejalashtirish mashg'ulot bosqichlarini loyihalash, har bir bosqichda professor-o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini oydinlashtirish, qadamlar ketma-ketligini aniqlashtirishni talab etadi. Natijada mashg'ulotning texnologik xaritasi yaratiladi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, ta'lim texnologiyasi o'qitish metodikasi asosida qurilib, uning qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalariga asoslangan holda, kutiladigan natijalarga asoslangan holda o'qitish jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, loyihaga muvofiq o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini aniq belgilangan ketma-ketlikda amalga oshirishning samarali texnikasidir.

Zamonaviy sharoitda yaxlit pedagogik jarayon, uning alohida tarkibiy qismlari, pedagogik faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liqlikda "metodika" va "texnologiya" tushunchalari ko'p qo'llaniladi. Hatto, mazkur tushunchalar mohiyatini tavsiflashda ham xilma-xil yondashuvlar mavjud bo'lib, pedagogik sohada faoliyat yurituvchi shaxslar o'rtasida ham ko'pgina tortishuv, bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, ma'lumotlarni umumlashtirish orqali mazkur tushunchalarning aniq ta'rifini shakllantirish mumkin.

Umumiy ma'noda "metodika" tushunchasi ma'lum bir ishni bajarish uchun zarur bo'ladigan metod va usullar yig'indisidir. Ko'pgina izohli lug'atlarda ham "Metodika – qat'iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgari o'rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish bo'lib, biror bir ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmuasi"ni ifoda etishi ko'rsatib o'tilgan¹.

"Metodika" tushunchasiga berilgan xilma-xil ta'riflarga tayangan holda quyidagi umumlashmalarga kelish mumkin:

1) metodika – bu o'qituvchi ishini tashkil etishning shakl, metod va vositalari;

2) ma'lum bir faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan metod va usullar yig'indisi;

3) bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonini maqsadga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish, rejali va tizimli amalga oshirishga yordam beruvchi usullar yig'indisi.

“Metodika” tushunchasi turli fanlarni o'qitish bilan ham bog'liklikda qo'llanilib, ma'lum sohani o'qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari yig'indisini o'zida ifoda etadi. Pedagog olim A.M.Stolyarenkoning fikricha, “O'quv fanlarini o'qitish metodikasi metodika ma'lum bir pedagogik vazifalarni hal etish bilan bog'liq metod, metodik usullar, vosita va tashkiliy chora-tadbirlar majmuidir”¹.

Ilm-fan va ishlab chiqapishning jadal rivojlanishi jamiyatni iqtisodiy tapaqqiy ettirish bilan bir qatopda ijtimoiy munosabatlar mazmunida ham tub o'zgapishlapning po'y berishiga zamin yapatmoqda. Shuningdek, iqtisodiy sohada bo'lgani singari ijtimoiy, shu jumladan, ta'lim sohasida ham texnologik yondashuvni tatbiq etishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Albatta, “metodika” va “texnologiya” tushunchalari mohiyatinini tushuntirishda aniq chegara qo'yish bir oz murakkab masala. Biroq ularning o'ziga xosliklarini tahlil etish, ayrim farqli jihatlarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, ta'lim texnologiyasi o'qitish metodikasi asosida qurilib, uning qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalariga asoslangan holda, kutiladigan natijalarga asoslangan holda o'qitish jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, loyihaga muvofiq o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini aniq belgilangan ketma-ketlikda amalga oshirishning samarali texnikasidir.

Pedagogik texnologiya doirasida yuzaga kelgan atamalarni to'g'ri qo'llash maqsadida quyida ularning aniq ta'rifini berib o'tishga harakat qilamiz:

¹ Stolyarenko A.M. Psixologiya i pedagogika. M.: YuNITI-DANA,2008. – S.368.

Pedagogik texnologiya – bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda yshby maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmynidip.

O'qitish texnologiyasi – o'quv mashg'ulotining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, kutiladigan natijalarni oldindan aniqlashtirish, har bosqichda qo'llaniladigan shakl, metod va vositalarini oqilona tanlab olish, professor-o'qituvchi va o'quvchining vazifalarini oydinlashtirish qaratilgan algoritmik ketma-ketlik.

Tarbiya texnologiyasi– tarbiya natijalariga asoslanib, tarbiyaning maqsad va vazifalarini oydinlashtirish, tarbiya jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, tarbiyaning shakl, metod va vositalarini aniq belgilab olishga qaratilgan tizimli jarayon.

Identiv o'quv maqsadi– texnologik jarayonning asosiy komponenti bo'lib, kutiladigan natijaga aynan mos keladigan o'quv maqsadi.

Interfaol metod– o'quv jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, bir vaqtning o'zida ham professor-o'qituvchi, ham o'quvchini faollashtirishga yo'naltirilgan o'qitish usullari majmui.

Grafik organayzerlar – o'quv jarayonida qo'yilgan maqsadga erishishda yordam beruvchi chizma, jadval, grafiklar majmui. Agar grafik organayzerlarni o'qituvchi tayyor (to'ldirilgan) holda qo'llasa vosita vazifasini, o'quvchilarning mashg'ulot mavzusiga doir bilimlarini mustahkamlash va fikrlashini rivojlantirish maqsadida ishlatilsa, metod vazifasini bajaradi.

2.2. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy-mahorati kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim faoliyati modeli

O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tizimli yangilanishlar dunyo miqyosida yuz berayotgan innovatsion tashabbuslar bilan hamohang ravishda olib borilmoqda. O'zbekiston davlati o'z rivojlanish yo'lida yangidan

yangi islohatlarni amalga oshirib kelmoqda. Jumaldan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim haqidagi" Qonunida quyidagi vazifalarni maqsad qilib qo'ygan. Qo'yilgan vazifa va maqsadlarning muvaffaqiyatli amalga oishirilishi pedagogik oliy ta'lim tizimini tubdan o'zgartirishni, maqsad va masalalarni aniqlab olish, bo'lajak o'qituvchilarni "zamonaviy maktab" va jamiyatning ijtimoiy buyurtmaning yangi talablariga muvofiq ravishda olib borilishini talab qiladi. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishda qalamtasvir fani o'qituvchisini ilmiy-metodik tayyorgarlik darajasini oshirishning turli ilmiy asarlarda turlicha talqin qilinadi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishda qalamtasvir fani o'qituvchisini ilmiy-metodik tayyorgarlik darajasini oshirish tushunchasi badiiy ta'limga oid adabiy manbalarda faoliyat yo'nalishi sifatida turlicha tushuntiriladi: masalan, N.N.Rostovsevning fikricha "qalamtasvir fani o'qituvchilarini tayyorlashda o'qituvchilar kelgusidagi faoliyati bilan bog'liq naturadan chizish mashg'ulotlarida zarur bo'ladigan akademik qalamtasvir chizish ta'limi asosida shakllangan natijadr"¹deb tushuntiradi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishda qalamtasvir fani o'qituvchisini ilmiy-metodik tayyorgarlik darajasini oshirishda kelajakdagi o'ta muhim bo'lgan, ya'ni maktabdagi faoliyatida mavzuga oid chizishni tashkillashtirish jarayonida zarur bo'lgan pedagogik va kompozitsion tayyorlash jarayoni hisoblanadi. Ushbu kategoriyani E.V.Shoroxov ana shunday tushuntiradi.

Bizning fikrimizcha, V.S.Kuzinning bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash haqidagi fikri juda ahamiyatli, ya'ni qalamtasvir fani o'qituvchisini tayyorlash – bu bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining talabalarni badiiy asarlar, atrofdagi olamning go'zalligi va tabiyat mujizalarini tushunishlarini tashkil etish ishlarida zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va tajribalar

¹ N.Rostovsev «Metodika prepodavaniya izorazitel'nogo iskusstva v shkole», ...

hisoblanadi². N.V. Unkovskiyning fikricha, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishda qalamtasvir fani o'qituvchisini ilmiy-metodik tayyorgarlik darajasini oshirishda ijodiy muammoni «kura olish», badiiy g'oyalarni va badiiy fikrlashni generiratsiya qila olish qobiliyatida yaqqol namoyon bo'luvchi innovatsion faoliyat komponentlari markaziy hisoblanadi, pedagogika uni standart bo'lmagan faoliyatdagi ob'ektiv zaruriyat, pedagogik mehnatning shartli talablaridan biri sifatida belgilaydi.

L.G.Medvedevning fikricha, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy mahoratini shakllantirish vositasi, hamda atrof olamni va tabiat manzaralarini o'rganish asosida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash - K.Eralinning fikricha, bu oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi faoliyati tizimida talabalarda badiiy-amaliy, pedagogik, uslubiy, san'atshunoslik kabi faoliyat asoslarini shakllantirishga yo'naltirilgan tayyorlash jarayonidir. Ushbu tayyorlash jarayoni tasviriy san'at o'qituvchisining yuqorida ko'rsatib o'tilgan faoliyat turlarining integratsiyalanishi natijasida hosil bo'ladi. O'.N.Nurtaevning ta'kidlashicha, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishda qalamtasvir fani o'qituvchisini ilmiy-metodik tayyorgarlik darajasini oshirishda – bu bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining oliy ta'lim tizimida talabalar badiiy-amaliy, pedagogik va psixologik, ilmiy-uslubiy, san'atshunoslik kabi faoliyat asoslarini shakllantirishga yo'naltirilgan tayyorlash jarayonidir¹. Ushbu tayyorlash jarayoni tasviriy san'at o'qituvchisining yuqorida ko'rsatib o'tilgan faoliyat turlarining integratsiyalanishi natijasida hosil bo'ladi va san'at vositalari orqali shakllantirilgan pedagogik sifati hisoblanadi.

² Kuzin V. S. Psixologiya.-Moskva: Vo'sshaya shkola. 1982.-256 s.

¹ Nurtaev U.N. Metodika izucheniya izobrazitelnogo iskusstva Uzbekistana v sisteme podgotovki budumix uchiteley, avtoreferat.-Moskva: 1994. -62 s.

V.K.Lebedkoning fikricha, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishda qalamtasvir fani o'qituvchisini ilmiy-metodik tayyorgarlik darajasini oshirish jarayonida bu o'qituvchilarning shunday sifatladiki, ya'ni maktabda tasviriy san'at asarlarini o'rganish jarayoni, san'at haqida mulohazalar, suhbatlarga bag'ishlangan mashg'ulotlarda keng qullanadigan pedagogik hislatlaridan biridir. U ushbu hislatni san'at tarixi fani bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish hamda olib borish jarayonida oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi o'qituvchilarda ham ko'rish mumkin deya ta'kidlaydi.

Shuni ham aytib o'tish joyiz, badiiy ta'lim pedagogikasi sohasida bo'lajak pedagog-rassomlarni professional rassomlik va pedagogik faoliyatiga muvaffaqiyatli tayyorlashga yo'naltirilgan yangi samarali o'qitish turlari, ta'lim usullari va texnologiyalarini joriy etishga hissa qo'shishgan qator olimlarni ham keltirib o'tsak. V.A.Slastenin, V.S.Kuzin, N.V. Unkovskiy, L.G.Medvedev, K.Eralin, S.Bulatov, B.Boymetov, U.Nurtaev, S.Abdirasilov, N.Tolipov K.Gulyamov va boshqa qator olimlar tomonidan faoliyat psixologiyasi nuqtai nazaridan kelib chiqib, ijod tushunchasining turli jihatlarini va uning bo'lajak pedagog-rassomni badiiy-pedagogik ijodiy faoliyatida amalga oshiriladigan ijtimoiy tayyorlash orqali transformatsiyalanishi kompleks tarzda o'rganish harakatlari amalga oshiriladi¹.

Shuningdek, V.S.Kuzin bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishda talabalarning tushunchasini badiiy faoliyat va ijodkorlikga to'g'ridan-to'g'ri aloqaga ega bo'lgan, qalamtasvir asosini turmush hodisalari va ijodiy yondoshishni tashkil etish hamda sifatli kadrlarni tayyorlashni tushuntiradi. Aynan shuning uchun qalamtasvir bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishda alohida in'omi hisoblanadi.

¹ Abdirasilov S., N. Rangtasvir. T.: O'zbekiston nashriyoti, 2006. Tolipov N. Talabalarda ijodiy faollikni shakllantirish yo'llari // Pedagogik ta'lim. 2003. - №3.- B. 24-27.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati -kompetentligini rivojlantirishning mutanosibligi nuqtai nazaridan S.Abdirasilovning fikricha pedagog-rassomning badiiy va ijodiy faoliyati muammolarini o'rganish jarayonida, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishda quyidagilarning o'rganilishi zarur: ta'lim sub'ekting umuminsoniy madaniyatga qo'shgan hissasi darajasida; kasbiy mahorati va pedagogik texnikasining tegishli turlaridan foydalangan holda erishilgan ma'lum darajadagi pedagogik natijalarni hisobga olgan holda o'rganilishi shart. Shuning uchun, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishning qalamtasvir jarayonida kasbiy-amaliy va ijtimoiy-siyosiy faoliyatida namoyon bo'luvchi ko'p jihatli tizimli hodisa sifatida o'rganuvchi integrativ negizini ko'rsatadi. Umuman olganda, bizning fikrimizcha bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishda qalamtasvir jarayonini namoyon qilish, intellektual individualliligi, tashabbuskorligi, ijodiy darajasining integrativ xususiyatidir. Qalamtasvir jarayoni tayyorlovidan o'tgan bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari –badiiy-ijodiy va pedagogik faoliyatda o'z-o'zining muhimligiga erishgan, o'z-o'zini rivojlantirib borishga yo'naltirilgan, yuqori darajada shakllantirilgan ijodiy takomillashganligidir.

- Qalamtasvir chizishga o'rgatish jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy holati;
- Qalamtasvir chizishga o'rgatish jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini maxsus tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari;
- Qalamtasvir chizishga o'rgatish jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kompetentligini rivojlantirishning badiiy ta'limga qo'yiladigan talablar;
- Qalamtasvir chizishga o'rgatish jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kompetentligini rivojlantirishning mazmuni va badiiy ta'lim tizimi;

- Qalamtasvir chizishga o'rgatish jarayonida bo'lajak tasviriyl san'at o'qituvchilarini kompetentligini rivojlantirishning modelini amalga oshirish bosqichlari;

- Qalamtasvir chizishga o'rgatish jarayonida bo'lajak tasviriyl san'at o'qituvchilarini kompetentligini rivojlantirishning modelini bo'lajak tasviriyl san'at o'qituvchilarini badiy-professional jihatdan tayyorlashning aniq nazariyasiga tayanadi. Ushbu nazariya tasviriyl san'at o'qituvchisi tomonidan olib boriladigan (oldindan tahlili qilishga imkon beruvchi va ushbu bazada taqdim etilayotgan tahminning amalga oshirilishiga va tahmin qilinayotgan metodik tizimning ishlab chiqilishiga imkon beradi) real ta'lim-tarbiya ishlarida kelajakdagi badiy-pedagogik faoliyatining maqsadlari, vazifalari, bilimlari, ko'nikmalari va tajribasini aniqlash imkonini beradi.

Taqdim etilayotgan modelda qalamtasvir chizishga o'rgatish jarayonida bo'lajak tasviriyl san'at o'qituvchilarini kompetentligini rivojlantirishning mazmuni, maqsad va vazifalari, usullari va vositalari alohida o'rin egallaydi.

Bo'lajak pedagog-rassom o'qituvchilarini kompetentligini rivojlantirish sharoitlarida qalamtasvir faniga tayanish respublika oliy ta'lim muassasalari tizimida ta'lim-tarbiya jarayonida o'quv materiallarining etarli darajada mustahkamlanishini ta'minlaydi. Qalamtasvir fanlarni va maxsus kurslarni o'qitish, pedagogik amaliyotlarni, kurs va diplom ishlarini olib borishda aynan tasvirlash dasturlarini qo'llash va o'rganish talabalarni maxsus tayyorlashda tegishli bilim, ko'nikmalar va ish tajribalarini shakllantirishga, badiiy-professional, pedagogik, metodik va san'atshunoslik jihatlari orasida integratsiyalar, differentsiatsiya va tayanch bilimlarini aniq belgilashga imkoniyat yaratadi¹.

Talabalarining badiy ta'limi va estetik tarbiyasi tizimi bo'lajak tasviriyl san'at o'qituvchilarini kompetentligini rivojlantirish tizimining nazariy konsepsiyasining asosiy uslubiy tamoyillariga to'liq muvofiq keladi: birinchi tizim qalamtasvir fanini ta'lim va tarbiya vositasi sifatida o'rganadi, ikkinchisi

¹ Abdirasilov S., Tolipov N., Oripova N. Rangtasvir. T.: O'zbekiston nashriyoti, 2006.

– pedagog-rassomlarning badiiy-professional, pedagogik, metodologik va san'atshunoslik jihatidan tayyorlash integratsiyasi vosita sifatida o'rganadi.

Shunday qilib, oliy ta'lim tizimida qalamtasvir chizishga o'rgatish jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kompetentligini rivojlantirishning kompleksli metodik tizim bo'lib, quyidagilardan iborat:

-Qalamtasvir chizishga o'rgatish jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kompetentligini rivojlantirishning mazmuni;

-Qalamtasvir chizishga o'rgatish jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kompetentligini rivojlantirishning metodikasi;

-umumiy o'rta ta'lim mazmunining (qalamtasvir vositalari yordamida ta'lim-tarbiya berish) va maxsus kurslarda, amaliyot jarayonida, kurs va diplom ishlarida, ilmiy ishlarda, auditoriyadan tashqari ishlarda va boshqa mashg'ulotlarda qalamtasvir chizishga o'rgatish jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kompetentligini rivojlantirishning mazmuni, talabalarni metodik tayyorlash, tasviriy san'at vositalari yordamida o'quvchilarda estetik didni tarbiyalashda o'zaro bog'liqligi.

Qator psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilib, maktablardagi, oliy ta'lim muassasalaridagi tasviriy san'at o'qituvchilarining ko'p yillik mehnat faoliyatini va talabalarning faoliyatini kuzatib, hamda o'z ish tajribamdan kelib chiqib ushbu tahminni taqdim etaman: bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kompetentligini rivojlantirish, qalamtasvir chizish bo'yicha quyidagilarni amalga oshirgan taqdirdagina mumkin, ya'ni:

-Qalamtasvir chizishga o'rgatish jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kompetentligini rivojlantirishning pedagog va ijodiy faolligini shakllantirish vositasi sifatida qarash zarur.

- Qalamtasvir chizishga o'rgatish jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ilm sohasida ishlab chiqilgan va kompleksli jihatlarga ega bo'lgan pedagogik faoliyatga o'qituvchining professional darajada tayyorliligiga to'liq muvofiq kelishi zarur.

-Ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarning badiy ta'limi va estetik tarbiyasining o'ziga xos turlari va usullariga tayanish zarur.

Biz tadqiq qilish uchun talabalarning, ya'ni bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy ta'lim berishga tayyorligi (biz buni bo'lajak o'qituvchilarning kasb faoliyati jarayoni va natijasi deb atadik) muammosini tanladik. Qalamtasvir chizishga o'rgatish jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kompetentligini rivojlantirishda biz qalamtasvir nazariyasi va texnologiyasini o'rganishning to'liq mazmunini o'zlashtirishning nazariy hamda amaliy darajasini, shu bilan birga talabalarda yangi pedagog kadrlarni tayyorlashning yangi sharoitlarda pedagogik faoliyat bilimlari, ko'nikmalari va tajribalarini shakllantirishni tushunamiz.

Bunday tayyorgarlik, pedagogik tizim jarayoni va natijasi sifatida pedagogik yangiliklarni faol ishlab chiqish va ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etishga, joriy hodisalarga tez rioya qiluvchi va ularning tan olinishi va to'liq tushunilishiga yordam beruvchi pedagogik faoliyatning imkoniyatlarini rivojlantirib va takomillishtirib borishga xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida keltiriladigan o'qituvchilarni tayyorlashga to'laqonli yondoshuv ta'lim-tarbiyaning integral vazifalarini bajara oladigan, pedagogik tajribalarni sinovdan o'tkaza oladigan, eng ilg'or badiy-professional pedagogik tajribalarni o'rganib chiqib joriy eta oladigan badiy ijodiyot pedagog kadrlarini tayyorlashning yangi avlodlarini tarbiyalashda beligilangan yo'nalishlarga javob beradi.

Qalamtasvir fanlariga bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kompetentligini rivojlantirishni o'rganish butun bir yaxlit tizim sifatida joriy etilganidan keyin uning talablariga muvofiq qalamtasvirga o'rgatish jarayonini tashkillashtirilishini yo'lga qo'yilishini doimiy ravishda nazorat qilib borish maqsadida uning tarkibi, tuzulishi, vazifalari, tarkibiy bo'limlarini batafsil o'rganib chiqish imkonini berdi.

Qalamtasvir chizishga o'rgatish jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kompetentligini rivojlantirishni takomillashganligi shundan

iboratki, ya'ni taqdim etilgan pedagogik tizimning beliglangan qismlari (badiy-professional, pedagogik, metodologik va san'atshunoslik va boshqa) alohida emas, balki qator ko'p turdagi ichki va tashqi o'zaro bog'liq aloqalarning butun bir yaxlitligidir. Tadqiq qilinayotgan tizim, ya'ni qalamtasvir chizishga o'rgatish jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kompetentligini rivojlantirish tizimi uning xech bir qismida mavjud bo'lmagan yangi integrativ sifatga egaligi bilan ham keskin ajralib turadi.

Maktabdagi tasviriy san'at o'qituvchisi bolalarda estetik didni tarbiyalaydigan, ijodiy faoliyatni faollashtiruvchi va shu bilan birga ijodiy g'oyalarni amalga oshirishga va yaratishga yetarli bo'lgan rasm chizishning amaliy ko'nikmalarini shakllantiruvchi yuqori darajadagi tayyorgarlikga ega bo'lishi kerak¹. Buning barchasi oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarin tayyorlashning zamonaviy jihatdan xar tomomnlama takomillashtirilib borilishida jiddiy masalalarni yuzaga keltiradi. Shuning uchun bugungi kunda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini professional darajada tayyorlab borish sohasida ilmiy izlanishlar ma'lum darajada faollashib bormoqda.


Bolalarning tasviriy san'atida eng avvalo mazmunning ochiqligi va ranglarning hilma-hilligi diqqatni o'ziga tortadi. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirish bo'yicha pedagogik texnologiyani joriy etish eng muhimi dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Shunday qilib, oliy ta'lim muassasasida qalamtasvir chizishga o'rgatish jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishning metodik tizimini tashkil etadi va quyidagi bo'limlardan iborat:


- Qalamtasvir chizishga o'rgatish jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishning mazmuni;
- Qalamtasvir chizishga o'rgatish jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishning metodikasi;

¹ Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. - 29 b.

- Umumiy o'rta ta'lim mazmunining (qalamtasvir vositalari yordamida ta'lim-tarbiya berish) va maxsus kurslarda, amaliyot jarayonida, kurs va diplom ishlarida, maxsus ilmiy ishlarda, auditoriyadan tashqari ishlarda va boshqa mashg'ulotlarda qalamtasvir chizishga o'rgatish jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishning mazmuni, aniq bir reja assosida tasviriy san'at vositalari yordamida o'quvchilarda estetik didni tarbiyalashda o'zaro bog'liqligi Biz tadqiqot jarayonida talabalar dars mashg'ulotlariga bog'liq holda mustaqil ta'lim olish faoliyatining modelini ishlab chiqdik.

Talabalar dars mashg'ulotlariga bog'liq holda mustaqil ta'lim olish faoliyatining modeli





Uning mazmuni quyidagilardan iborat:

I. Amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim olishning mohiyati

Amaliy mashg'ulotlar davomida pedagog tomonidan berilgan bilimlarni to'ldirish va mustahkamlash uchun mavzulashtrilgan mustaqil ta'lim topshiriqlari beriladi.

Mustaqil ta'lim – talabalarning maqsadga yo'naltirilgan o'quv faoliyati bo'lib, u o'qituvchi tomonidan beriladigan o'quv axborotlarini o'zlashtirish, o'quv mashg'ulotlari jarayonida egallangan bilim va malakalarni mustahkamlashdan iborat. Mustaqil ta'lim jarayoni bir necha funksiyalarni amalga oshirish uchun o'ziga xos katta imkoniyatlarga ega: ta'limiy, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi, kasbga yo'naltiruvchi.

Talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyati uchta asosiy yo'nalishda amalga oshiriladi:

- o'qituvchilar tomonidan tashkil etiladigan o'quv mashg'ulotlarida (ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda qisqa mustaqil ishlar bajarish jarayonida);
- mustaqil ishlarning turli - tuman shakllarida (grafik ishlar, kurs ishlarini bajarish, referat yozish, hisobot tayyorlash va h.k);
- uyda, axborot resurs markazi (kutubxona)da va h. k.

II. Amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'limning bog'liqligi:

talabalar mustaqil ta'lim olish faoliyatining asosiy bo'g'inlari:

- o'qituvchilar tomonidan tashkil etiladigan o'quv mashg'ulotlarida (ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda qisqa mustaqil ishlar bajarish jarayonida
- onglilik va ijodiy faollik;

- tizimlilik, izchillik va uzviylik;
- ish murakkabligi va qiyinchilik darajasining muntazam oshishi;
- ilgari egallangan bilimlarga tayanish;
- o'zlashtirilgan bilim va malakalarni boshqa o'quv fanlaridan olingan bilimlarga integratsiyalash (muvofiglashtirish);
- bilimlarni to'ldirish va boyitishga alohida qiziqish;
- o'z o'qishining natijalariga yuksak talabda bo'lish;
- yangi bilimlarni egallashda tadqiqotchilik nuqtai nazardan yondoshuv;
- mustaqil ta'lim olish faoliyatini ongli tashkil qilish;
- mustaqil ta'lim olish faoliyati barcha turlarining hissiy bo'lishlik va qiziquvchanlik.

III. Talabalar mustaqil ta'lim olish faoliyatining turlari:

- o'qituvchi tomonidan auditoriyada berilgan ilmiy axborotlarni mustahkamlash;
- qo'shimcha o'quv va uslubiy adabiyotlardan o'rganilgan mavzuning ilmiy axborotlar sig'imini kengaytirish;
- mustaqil bajarish uchun berilgan topshiriqlarni bajarish.

Talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyati uning vazifalari va rejalashtirilgan natijalar mazmuniga bog'liq holda individual (yakka tartibda) va jamoa xarakterida bo'ladi.

IV. Mustaqil ta'lim tamoyillari

- yangi bilimlarni egallash, esda saqlashda ichki xohish;
- onglilik va ijodiy faollik;
- tizimlilik, izchillik va uzviylik;
- ish murakkabligi, va qiyinchilik darajasining muntazam oshishi;
- ilgari olingan bilimlarga tayanish;
- o'zlashtirilgan bilim va malakalarni boshqa turdosh fanlardan olingan bilimlarga integratsiyalash (muvofiglashtirish);
- bilimlarni to'ldirish va boyitishga alohida qiziqish;
- o'z o'qishining natijalariga yuksak talabda bo'lish;

- yangi bilimlarni egallashda tadqiqotchilik nuqtai nazardan yondoshuv;
- mustaqil ta'lim olish faoliyatini ongli tashkil qilish;
- mustaqil ta'lim olish barcha turlarining hissiy bo'lishlik va qiziquvchanlik.

V. Rassom-pedagogning ijodkorlik qobiliyati

Talabalar mustaqil ta'lim olish faoliyatining xususiyatlari, uning imkoniyatlari va turlarini ifodalovchi metodlar: mustaqil topshiriq berish, natijani tekshirish, mustaqil ishni himoya qilish va h.k.

VI. Talabalarning darsga va darsdan tashqari faoliyatga tayyorgarlik me'zonlar:

1. Talabalarning dars faoliyatiga psixologik tayyorligini ifodalovchi mezonlar:

- bilishga oid qiziqishlar, qobiliyat va ehtiyojlar;
- o'qish motivlari, uning zarurligini anglash.

2. Talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyati uchun zarur bo'lgan nazariy bilim darajasini ifodalovchi mezonlar:

- inson hayotida bilimlarning tutgan o'rnini, uni doimiy to'ldirib borish zarurligini tushunish;
- mustaqil ta'lim olish faoliyatining tutgan o'rnini anglash;
- mustaqil ta'lim olish faoliyatining xususiyatlari, uning imkoniyatlari, tur va metodlarini bilish.

VII. Mustaqil ta'lim olishning tarkibiy qismlari

1. Mustaqil ta'lim vazifasini aniqlash, uning mohiyatiga etish, uni hal qilish zarurligini tushunish.

2. Kutilayotgan natijalarni loyihalash.

3. Ishlarni rejalashtirish.

4. Ish o'rnini va barcha zaruriy o'quv vositalarini tayyorlash.

5. Vazifalarni hal qilishga yo'naltirilgan faol harakatni boshqarish.

6. O'z - o'zini nazorat qilish va baholashni amalga oshirish.

7. Olingan bilimlarni o'zlashtirish, xulosalarni mustaqil ifodalash.

Talabalar mustaqil ta'lim olish faoliyatining asosiy mezonlari o'quv motivlari (dalillar, ichki xohish) hisoblanadi va u talabalarni faol faoliyatga yo'llaydi.

VIII. Mashg'ulotlarga pedagogik raxbarlik qilish

- pedagogik rahbarlik talabalar mustaqil ta'lim olish faoliyatini takomillashtirish sharti hisoblanadi. Pedagogik rahbarlik samaradorligi bir qator omillar, eng avvalo, o'qituvchi shaxsi, uning obro'siga bog'liq.

Pedagogik rahbarlik metodikasi o'qituvchiga qo'yiladigan quyidagi talablar orqali aniqlanadi:

- talabalarning individual xususiyatlari darajasini bilish;
- har bir talabaning shaxsiy qobiliyatini loyihalash ko'nikmasi;
- talabalarning rivojlanish darajalarini bilish.

Shunday qilib, talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyati murakkab bilish jarayoni bo'lib, talabalar zaruriy aqliy qiziqishlik bilan o'rganilayotgan predmetlar, hodisalarni tahlil qilish va umumlashtirishga mustaqil yondoshgan paytda o'z samarasini beradi.

Tadqiqotda ishlab chiqilgan ushbu bo'lajak me'mor-talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyati modelida ularning mustaqil ta'lim olish faoliyatini tashkil qilish va boshqarish texnologiyasi muhim o'rin tutadi.

2.3. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy-mahorati kompetentligini rivojlantirishni tashkil etish texnologiyasi

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishni yagona usuli, ularning o'quv faoliyat bilan shug'ullanishlarini tashkil etish va boshqarish hisoblanadi. Talabalarning ijodiy tayyorgarlik jarayonida amaliy va nazariy ta'limni tashkil etish uzluksiz va uzviy amalga oshirilmog'i lozim. Bizningcha, bu yo'nalishda yuqori natijaga erishish ta'lim jarayonida, xususan ma'ruza va amaliy-laboratoriya mashg'ulotlarida

talabalarda o'rganilgan o'quv materialini mustahkamlashga qiziqish hosil qilish, o'quv axborotlari sig'imini darslik va qo'shimcha adabiyotlardan mustaqil holda o'qish asosida kengaytirishga ishtiyoq hosil qilishga asoslanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarda kasbiy maxoratini hosil qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar keng imkoniyatlarga ega.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga texnologik yondoshish, ya'ni o'quv jarayonini ishlab chiqarish jarayoni kabi takrorlanuvchan tavsifga ega bo'lishini ta'minlashga oid dastlabki izlanishlar o'tgan asrning 50-yillarida amerikalik pedagog olimlar tomonidan olib borilgan. Xususan, «o'qitish texnologiyasi» iborasi ham, birinchi marta amerikalik olim Skinner tomonidan ishlatilgan. U «o'qitish texnologiyasi – psixologiya fani yutuqlarini pedagogik amaliyotda qo'llashdan iborat»¹ - deb ta'riflagan.

Akademik V.P.Bespalko fikricha, - “Pedagogik texnologiya–o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir”²

O'.Q.Tolipov va M.Usmonboevalar «Pedagogik texnologiya muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir» deb tushuncha beradi³.

Pedagog - olima Q.M.Abdullaeva ta'kidlaganidek, bugungi kunda ta'lim jarayoniga “yangi pedagogik texnologiya” nomi bilan kirib kelayotgan metodlar o'qituvchidan hamda talabadan ortiqcha aqliy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt mobaynida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Talaba ta'lim jarayonining o'qitilishi kerak bo'lgan ob'ektivlikdan o'zining tarbiyalanishida bevosita ishtirok etadigan sub'ekti darajasiga ko'tarilmoqda. Ta'lim oluvchi xuddi o'qituvchi singari dars jarayonining egasiga aylanmoqda. Yangi pedagogik texnologiyali darslarda o'qituvchi hokim emas, talabaning

¹ B.F.Skinner “Yangi pedagogik texnologiya” 19-b

² Беспалко В.И., Татур Ю.С. Системно-методическое обеспечение учебно-воспитательного процесса подготовки специалистов. М.: Высшая школа, 1988. -144 с

³ O'.Q.Tolipov va M.Usmonboevalar “Pedagogik texnologiya tushunchasi”

katta yoshli hamkori, uning fikrlari, qarashlari bilan hisoblashadigan, dars jarayonida munozaralarda birgalikda aktiv qatnashadigan hamkori hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning shunday turli-tuman ta'riflari mavjudligi mazkur tushunchaning ko'p qirraliligidan dalolat beradi. Shu sabab unga pedagogik, psixologik, didaktik, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa nuqtai nazarlardan yondoshish mumkin. Demak, pedagogik texnologiya jarayonida o'qituvchi o'zining bor mahorati va bilimini namoyon qilib, darsning hamma bosqichlarida o'zi ham, talaba ham faol ishtirok etadi hamda qisqa vaqt ichida ko'zlangan maqsadga erishadi. Ta'lim muassalaridagi o'quv jarayonini davlat ta'lim standartlariga mos ravishda ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil qilish, oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilaridan ham yuqori malakani talab qiladi. Hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy tayyorgarligi sifat va samaradorligini oshirishda quyidagi pedagogik texnologiyalarni qo'llash maqsadga muvofiqdir:

1. Talaba faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan pedagogik texnologiya – muammoli ta'lim, turli xil o'yinlar.
2. O'quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlashga asoslangan pedagogik texnologiya.
3. O'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilishga asoslangan pedagogik texnologiya – tabaqalashtirilgan, individuallashtirilgan, dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyalari, ta'limning jamoa usuli, guruhli, kompyuterli ta'lim texnologiyalari.
4. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari – talaba shaxsining ijobiy sifatlarini, ayrim sohadagi bilimlarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

Ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalash, loyihalangan pedagogik texnologiyani pedagogik jarayonga tatbiq etish o'qituvchidan texnologik loyihalash qobiliyatini talab etadi.

Optimal o'quv jarayonida mustaqillik, erkinlik va ijodkorlik yaxshi rivojlanadi. Bunday sharoitda muhim intellektual ko'nikmalar shakllanishi kerak. Ulardan eng asosiysi kasbiy maxorat kompetensiyalaridir. Har qanday ta'lim

oluvchi mustaqil ravishda materiallardan yaxshi foydalanishni bilavermaydilar. Shu bois o'qituvchi oldida ma'sul vazifa turadi: zaruriy axborotni tanlay bilish, baholash, taqqoslash, tahlil etish, muammoli vaziyatni hal etishga o'rgatish lozim.

Kasbiy maxorat kompetentligini rivojlantirishni tashkil qilish va boshqarish quyidagi texnologik asosda amalga oshirildi:

- kafedra o'qituvchilari yoki qalamtasvir fan o'qituvchisi tomonidan har bir talaba uchun individual tarzda topshiriqlari tayyorlanadi va uni nazorat qilish jadvali ishlab chiqildi.

- ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar jarayonida talabalarni mustaqil ta'lim olish faoliyatiga yo'naltirish ishlari amalga oshiriladi, ya'ni: ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidan fanning mustaqil ta'lim uchun ajratilgan o'quv soatlari asosida va o'quv dasturi bo'yicha o'zlashtirilgan mavzularni talabalarga taqsimot jadvalini ishlab chiqildi, guruh talabalari va tegishli o'qituvchilar bilan hamkorlikda ishlarning himoyalari o'tkazildi va baholandi.

Shuning uchun talabalarga o'quv jarayonida bilim berishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanib tasviriy san'at fanlariga yo'naltirish lozim.

Qalamtasvir fani darslarida talabalarni kasbiy maxorat kompetentligini rivojlantirish quyidagi ketma-keilikda amalga oshirildi:

1. Qalamtasvir fani amaliy mashg'ulotlarida talabalarga nazariy tushunchalar berildi va materialshunoslik haqida tushuncha berildi.

2. Qalamtasvir fani darslarida talabalarga online tarzda usta rassomlar bilan muloqot qilindi va ularning ijodiy ishlaridan namunalar ko'rsatildi.

3. Bo'lajaktasviriy san'at o'qituvchilarining maktab va kollej darslarida kuzatuvchi sifatida darsdan tashqari vaqtlarda ishtirok etishi.

4. Mustaqil ijodiy ish topshiriqlari talabalarning qobiliyatiga mos, ular diqqatini tortadigan, qiziqtiradigan qilib tanlandi.

Bu metodlardan Qalamtasvir darslari jarayonida bir qanchasi ishlatildi. Bulardan og'zaki, ko'rgazmalilik, o'qitishning mantiqiy metodlari dars turining ma'ruza shaklida qo'llanilib, mustaqil ishlash, muammoli metodlar fanning amaliy mashg'ulotlarida keng qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Har bir mashg'ulotda qo'llaniladigan metodlar uchun pedagogik tizimda ularning o'ziga xos xususiyatlari bor. Tushunchalar va hatti - harakatlarning shakllanishini o'qituvchi boshqarib boradigan asosiy mashg'ulot turi amaliy mashg'ulotlar hamda boshqa dars metodlari bo'lib, uni o'tkazish metodikasi pedagogik tajriba va mahoratga bog'liqdir. Bu jarayonni tinmay o'rganib borish o'qituvchining o'z kasbiga mohirligi o'qitish texnologiyalari va ularning maqbul shakllari majmuasini egallab olganligi bilan belgilanadi.

Ta'lim jarayonida har bir mavzuni o'tishda yangi pedagogik texnologiyaning qaysi uslubi ma'qul, qulay, mavzuni yoritish uchun qanday jihozlar bo'lishi zarurligi aniqlab olindi. Fan mavzularini yangi pedagogik texnologiyaning u yoki bu uslubi, uslublar birikmasi bilan o'tish xaritasi tuzib olindi.

Qalamtasvir – barcha tasviriy san'at turlarining asosi hisoblanadi. Rassom tasviriy san'at turining qaysi birida ijod qilishidan qat'iy nazar, qalamtasvirga asoslanadi. U o'zining kuzatishlari, katta asar kompozitssiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalamda dastlabki chizgilar bilan ifodalaydi. San'at asarlarini yaratishda esa, ushbu bajarilgan chizgilar rassomga yordamchi manba bo'lib xizmat qiladi. Rassom u yoki bu kartinasining yaratishni qalamdan boshlaydi. Shudan keyingina ushbu san'at asari ranglar jilosi orqali tomoshabinga estetik huzur baxsh etadi. Boshqacha qilib aytganda, qalamtasvirsiz hech bir rassom o'z asarini yetuk holga keltira olmaydi.

Mavzu: Qalamtasvir fanining mazmuni, maqsadi, vazifalari geometrik jismlarning perspektiva qonunlariga asosan chiziqli-konstruktiv rasmini chizish (kub, shar, piramida, silindr)

O'quv mashg'ulotning maqsadi: Qalamtasvir fanining maqsadi va vazifalarini yoritish xamda qalamtasvir texnologiyasi va geometrik jismlarni amalda tasvirlashni bajarish.

O'quv faoliyatining natijalari: Qalamtasvir fanining mazmuni, maqsadi, vazifalari xakida ma'lumotga ega buladi, geometrik jismlardan tashkil topgan shakillarni chizishni o'rganadi va amalda bajaradi, Geometrik jismlardan tashkil topgan shakillarni qog'oz yuzasiga to'g'ri joylashtirish yo'llari, soya-yorug' qonuniyatlari xaqida tuchunchaga ega bo'ladi.

Qalamtasvir boshqa san'at turlari orasida mustaqil ravishda tugallangan dastgohli san'at asari ham bo'lishi mumkin. Tush, sangina, pastel, sous, qalam bilan bajarilgan ko'plab kartinalar jahonning turli san'at muzeyi va ko'rgazmalaridan joy olgan. Qalamtasvir mashg'ulotlari ko'rib-kuzatib to'g'ri tasvirlash, borliqni idrok etish, qo'l, ong va sezgi orginlarini shakllantirishda nafaqat bo'lajak rassomga, balki turli kasb sohasidagi kishilarga zarurdir.

Uyg'onish davrining buyuk rassomi va olimi **Leonardo da Vinchining «Rangtasvir qonunlari»** nomli asarida jumladan shunday degan edi: «Yoshlar o'zlarini ilm-fan, tasviriy san'atda sinamoqchi bo'lsalar, avvalo rasm chizishni mukammal bilmoqlari lozimdir».

Qalamtasvir mashg'ulotlari boshqa mutaxassislik fanlari qatorida bo'lajak o'qituvchi-rassomlarni tayyorlashda asosiy mezon hisoblanadi. Qalamtasvir darslari talabalarga 1-2 kurslarda nazariy va amaliy mashg'ulotlar orqali olib boriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, amaliy mashg'ulotlar qatorida nazariy bilimlar bo'lajak mutaxassislarga ularning keyingi pedagogik, ijodiy va ilmiy faoliyatlarida muhimdir. Borliqni tasvirlash talabalarga amaliy bilimlarni beribgina qolmay, balki ularning umumiy dunyoqarashlarini o'stirishda katta ahamiyatga ega. Realistik tasvirlash san'ati, shuningdek yoshlarda borliqni haqqoniy obrazlarda ifoda etish mahoratlarini rivojlantiradi.

Rasm chizishni o'rganish talabalarga atrofdagi jismlarning hajmini haqqoniy tasvirlash bilan birga, ularning estetik didlarini ham o'stirishda katta ahamiyatga ega.

Rasm chizish asoslarini o'rganish, narsaning o'ziga qarab bosqichma-bosqich tarzda tasvirlash prinsipida qurilgandir. Tabiatga muhabbat va kuzatuvchanlik, buyumlarni to'g'ri tasvirlash kabi fazilatlar har bir tasviriy san'at bilan shug'ullanadigan talabalarga xos bo'lmog'i kerak.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining etuk malakaga ega bo'lishda nafaqat amaliy bilimlarni chuqur o'zlashtirgan bo'lishi, balki tasvirlash san'ati sohasida nazariy tayyorgarligining puxtaligiga ham bog'liq.

Bo'lg'usi pedagog-rassomlarni buyuk rassom va tasviriy san'at sohasida ko'plab nazariy, amaliy bilimlarni meros qilib qoldirgan shaxslar hayoti va ijodiy faoliyatlari bilan tanishtirish, ularning asarlarini chuqur o'rganish ham katta ahamiyatga ega.

Qalamtasvir mashg'ulotlari «tasviriy san'at va muhandislik grafikasi» bakalavriyat ta'lim yo'nalishining o'quv fan rejalarining asosiy fan sifatida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga quyidagi asosiy qonunlarni o'rgatishni maqsad qilib qo'yadi:

1. Tasviriy san'atda kompozitssiya asoslari.
2. SHakllarning chiziqli konstruktiv tuzilishi.
3. Buyumlarning o'z-aro nisbatlari.
4. Tasviriy san'atda perspektiva qonunlari.
5. SHakllarda yorug' va soya qonuniyatlari.
6. Tasvirni metodik ketma-ketlikda «analiz» va «sintez» qilib to'g'ri bajarish (1-a,b,v rasmlar).

Bu ko'nikma va malakalar talabaning oliy o'quv yurtining barcha bosqichlari davomida bilim olish vaqtida o'quv mashqlarini bajarish orqali rivojlanadi va takomillashib boradi. Shuningdek, ushbu bilimlar bo'lajak o'qituvchi-rassomning oliygohni tugatgandan so'ng, pedagogik va ijodiy ish jarayonida ham muhimdir.



b)



a)

GIPS GEOMETRIK SHAKLLARNING QALAMTASVIRI



v)

1-rasm

Gips geometrik shakllarning qalamtasviri ham tasviriy san'atning oddiydan murakkabga uslubida amalga oshiriladi. Buning uchun o'quv dasturlarida belgilangandek gips geometrik shakllarni tasvirlash muhimdir. Bu shuning uchun zarurki, bizni o'rab turgan predmetlar dunyosining barchasi geometrik shakllarga ega (shar, kub, prizma, konus, silindr va hokazolar). Shakllar tarkibining gipsdan bo'lishining asosiy sababi, ular aksariyat

xollarda sun'iy yoritgichlar bilan yoritilib, o'quv-mashq maqsadlarila qo'yiladi. Yorug' soya majmuasi (yorug', soya, yarimsoya, refleksi, shaxsiy va tushuvchi soya, shula) oq buyumlarda yaqqol ko'rinadi. Bundan tashqari oddiy qora qalam vositasida shakllarning tus munosabatlarni echish orqali talabani tartib bilan ish yuritishga o'rgatadi. Eng muximi dasturda ko'rsatilgan murakkab vazifalarni (me'morlik bo'lagi, gipsli rozetka elementi, inson portreti va gavdasi) oddiy geometrik shakllar, tekisliklar bilan tasvirlash uchun zamin bo'lib xizmat qiladi. Yuqorida keltirilgan barcha malakalar bilan qatorda, geometrik shakllar qalamtasvirini bajarish mashqlari asosida talaba buyumlarning kenglikdagi fazoviy holati, yorug'-soya munosabati va o'zaro nisbatlari kabilar haqida to'la ma'lumotga ega bo'ladi.

Gipsli geometrik jismlardan tashkil topgan shakillarni chizish bilan parallel ravishda talaba ushbu shakllar nusxasini simdan yasab olishi va buyum tekisligiga turli xolatlarda qo'yib, uning joylashini, konstruktiv tuzilishi, perspektiv qisqarishi, shakillning ko'rinar va ko'rinmas tomonlarini yaqqol tasavvur etishi, hamda uzining bilimlarini yanada chukurlashtirishi mumkin. Ayniqsa, bu guruh geometrik shakllarni tasvirlashda ushbu usul talabaga yengilik tug'diradi. Chunki, bir shakil ikkinchi bir shakilni to'sib turganda, ularning joylashgan eri, birlashgan joylari (burchaklari), o'zaro nisbatlari yaqqol namoyon bo'ladi.

Shunisi muhimki, auditoriyada ishlangan mashqlar bilan bir qatorda uyda ushbu geometrik shakllar namunasini vatman qog'ozidan yasab olib, ularni alohida va ikki, uch, to'rt buyum ishtirokida turli kompozitsiyalar tuzib tasvirlash muhimdir. Shakllarni turli holatlarda qo'yish va yoritish orqali chizuvchining fazoviy va hajm borasidagi bilim hamda tasavvurlari rivojlanadi.

Quyida ufq chizig'idan pastroq joylashgan va yuqori old tomondan yoritilgan kubning 5 ta metodik bosqichlarda bajarilgan namunasini ko'rib chiqamiz.

1 – bosqich. Shaklning eng chekka tomonlari asosida uni qog'oz sirtida ko'rinar va ko'rinmas qirlarini tasavvur etgan holda joylashtirish hamda,

tomonlarining nisbatlari, balandligi, harakat xolatiga qarab perspektiv ko‘rinishining dastlabki belgilarini aniqlash.

2 – bosqich. Shaklning konstruktiv tuzilishini yengil chiziqlar bilan tasvirlab, tutash nuqta orqali yon tomonlarining perspektiv qisqarishini ufq chizig‘iga binoan aniqlash.

3 – bosqich. Kub tomonlari nisbatlari va perspektiv ko‘rinishlarini quyuoqroq chiziqlar bilan aniqlash, uning buyum tekisligidagi tushuvchi soyasini belgilash.


4 – bosqich. Shakldagi qayta yaxlit soyalar o‘rnini belgilab tushlash (shaxsiy, tushuvchi soyalar), buyum uchun qo‘yilgan fonni tushlash.

5 – bosqich. Kub shaklining barcha yorug‘-soya munosabatlarini belgilash, tomonlari tus nisbatlarini aniqlab, refleksi, yaltiroq qismlarini topib vazifani bir butun yaxlitlikka keltirish.


Quyida silindr, shar shakllarini tasvirlash ham kub shaklini tasvirlash bosqichlari asosida olib boriladi esa, ikkita konusning bir-biriga nisbatan turli xolatda tuzilgan kompozitsiyasi ko‘rsatilgan. Bunda ularning o‘zaro munosabatlar, tasvirlashda yordamchi chiziqlar o‘tkazib ish yuritish metodi, perspektiva qonunlariga asoslanish kabilarni ko‘rishimiz mumkin.

Geometrik shakllarni tasvirlashda ularni oddiydan boshlash kerak so‘ngra sekin-asta murakkabroqlariga o‘tiladi.


O‘tilgan mavzularga qiyoslab talaba uyda mustaqil ko‘plab xomaki rasm va qalamchizgilar bajarishi muhim ahamiyatga ega. Chunki auditoriyada bajarilgan har bir vazifa asosida parallel ravishda uyda ishlangan mashqlar talabaning o‘qituvchi rahbarligida kompozitsiya olgan fazoviy tasavvur, chiziqli konstruktiv tuzilish, yorug‘-soya munosabatlari, perspektiva qonuni, nisbatlarni to‘g‘ri belgilash va ayniqsa, tasvirlash malakalarini rivojlantiradi. Buning uchun quyidagi turli shakillarga ega bo‘lgan quti, kursi, yashik, bidon, ko‘za, choynak, piyola, stakan va boshqa ko‘plab uy jihoz va buyumlari kifoya.




1-bosqich




2-bosqich



3-bosqich




4-bosqich



5-bosqich

2-rasm



3-rasm

1- yorug'lik, 2 – yaltiroqlik, 3 – yarim soya, 4 – shaxsiy soya, 5 – refleks, 6 – tushuvchi soya

II BOB bo'yicha xulosa

Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijasida quyidagilarga erishildi:

Qalamtasvir chizishga o'rgatish jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishda asos bo'lib xizmat qiladigan pedagogik-psixologik tayyorgarlikning mazmuni taxlil qilindi va mazkur jarayonni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Qalamtasvir chizishga o'rgatish jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirish mazmuni, vositalari, metodlari ishlab chiqildi.

2. «Tasviriy san'at o'qitish metodikasi» kursini o'qitishni takomillashtirish maqsadida mazkur kurs mazmuni qalamtasvir chizishga o'rgatish jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishning tarkibiy qismlarini shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash nuqtai nazaridan taxlil qilindi

3. Qalamtasvir chizishga o'rgatish jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlandi.

4. Pedagogika oliy o'quv yurtlarida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalaridan uyg'unlashgan holda foydalanishni yo'lga qo'yish bo'lg'usi o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini orttirishning muhim omili ekanligi aniqlandi.

5. Talabalar va magistrnlarning mustaqil ishi va ta'limini rejali, bosqichma-bosqich, evolyusion tarzda tashkil etilishi ularni maqsadli ijodiy va ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'llash imkonini berishi ma'lum bo'ldi.

tadqiqot jarayonida talabalar dars mashg'ulotlariga bog'liq holda mustaqil ta'lim olish faoliyatining modelini ishlab chiqildi.

III. BOB. BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINI KASBIY MAHORATI -KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNI ANIQLASH BO‘YICHA OLIB BORILGAN TAJRIBA-SINOV ISHLARI

3.1. Tadqiqot natijalarini tajriba-sinovdan o‘tkazish metodikasi hamda baholash ko‘rsatkichi va mezonlari.

Tadqiqot davomida asosiy e’tibor tasviriy san’at o‘qituvchisining ilmiy-metodik tayyorgarligi darajasini orttirish jarayonini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganishga qaratildi.

Tajriba-sinov davomida belgilangan maqsadlarning aniq, natijalarga ega bo‘lishi, olg‘a surilgan ilmiy farazning amaliyotda o‘z isbotini topishi, biologiya o‘qituvchisining ilmiy-metodik tayyorgarligini orttirish yuzasidan ishlab chiqilganv metodik tizimning tarkibiy qismlari to‘g‘ri tanlanganligi, vazifalarning aniqligi, talabalar va tinglovchilarining o‘quv-bilish faoliyati pedagogik texnologiyalar talablari asosida puxta rejalashtirilganligi, shuningdek, tajriba-sinov ishlarining uzluksiz, izchil va tizimli tashkil etilganligi hamda bosqichlar o‘rtasida muayyan izchillikning qaror topganligi kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Tadqiqot muammosi doirasida yaratilgan metodik qo‘llanmalar va tavsiyalar mazmuni bilan nazariy tanishib chiqish asosida amaliy tajriba-sinov ishlarini maqsadga muvofiq tashkil etish bo‘yicha yagona xulosaga kelindi.

Tajriba-sinov ishlari uchun ob’ekt sifatida Nizomiy nomidagi TDPU Kasb ta’lim fakulteti «tasviriy san’at va muhandislik grafikasi» mutaxassisligining bakalavr yo‘nalishi tanlandi.

Pedagogik tadqiqotlarning ilmiy-nazariy asoslari bilan, birgalikda ularning amaliy ahamiyati ham e’tiborga olinishi lozim. Amaliy ahamiyatni ilmiy asoslash ilmiy-nazariy ishlanmalarning nechog‘lik amaliyotga foydasi tegishligini tajriba sinov ishlari bilan aniqlanadi.

Tajriba sinov ishining maqsadi: yaratilgan amaliy faoliyat nuqtai nazaridan o'qitish usuli natijalarini tahlil qilish, imliy ishlanmalar natijalari ko'rsatkichlarini baholash va ulardan amaliyotga joriy etishga qulay holga keltirish, yaratilgan ta'lim metodi bilan ta'lim oluvchilarni qurollantirish, ta'lim oluvchilarda o'rganilayotgan mavzuni yaratilishi va uni o'rganish bosqichlari hamda rivojlanish darajalarida haqidagi bilim va tasavvurlarni shakllantirish hamda ular shaxsining ma'naviy-axloqiy tamoyillari to'g'risida, ularning bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi ahamiyati to'g'risida bilim, ko'nikma, malaka va tasavvurlarni hosil qilishdan iboratdir.

Tajriba sinov ishining maqsadini belgilashda tajriba masalasining qo'yilishi, eng avvalo, tadqiqot olib borishning samaradorligiga ijobiy ta'sir etadi.

Tajriba masalasini aniq qo'yish bu-tadqiqot ob'ektining modelini tuzish, u eng avval tajribaning tadqiqot ishchi faraziga asosan aniq maqsad va vazifani ko'rsatishdir.

Tajriba sinov ishi odatda ilmiy ishlanmaning ob'ektga o'xshashligini tekshirish va shu jarayonni optimallashtirish uchun o'tkaziladi.

Identifikatsiya (aynan o'xshash) bu-tajriba natijasida olingan axborotlarning ba'zi bir faraz qilingan nazariy aloqadorlikka mos kelishi ya'ni nazariy tadqiqot natijalarini va tajriba davomida olingan funksional yoki statistik bog'liqlarini o'rnatish.

Optimallashtirish bu - eng yaxshi va qulay yechimni izlash.

Bunda tajriba sinov ishi maqsadi aniq ifodalanishi kerak. Umumiy farazlar bilan cheklanish yetarli emas. Tajriba nazariy tadqiqot natijalarini tasdiqlash uchun yoki qandaydir yaratilgan ta'lim texnologiyasining hayotiyligini tadqiq qilish uchun o'tkaziladi.

Tajriba sinov ishining vazifasi tadqiqot ilmiy-nazariy asoslarining amaliy ahamiyatini qay darajadiligini baholashdan iboratdir.

Buning uchun dars jarayonlari uchun hozirgi ta'lim tizimi yo'nalishiga mos uslublar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish katta ahamiyatga ega. Biz

olib borayotgan tajriba sinov ishlarining maqsadi bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy mahorati kopetensiyalarini rivojlantirish qalamtasvir fanining ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning nazariy-pedagogik asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Biz olib borayotgan tajriba sinov ishlarining maqsadi bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy mahorati kopetensiyalarini rivojlantirish qalamtasvir fanining ta'lim sifati va samaradorligini aniqlash maqsadida 2018-2019 yillarda Nizomiy nomidagi TDPU va K.Behzod nomidagi MRDIda pedagogik tajribalar o'tkazdik.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini olib borishda Nizomiy nomidagi TDPUda 5110800- Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi guruhlarida olib borildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari quyidagi ikki bosqichda olib borildi:

Birinchi o'rganuv bosqichida muammoning amaldagi holati o'rganildi. Buning uchun o'quv me'yoriy hujjatlar, ilmiy manbalar va amaliyot tahlil etilib, maqsad va unga erishish uchun yechimini topish lozim bo'lgan vazifalar belgilab olindi.

Ikkinchi bosqichida tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan shakllantiruv tajribaviy ta'lim olib borildi.

Tadqiqot jarayonida Qalamtasvir fani darslaridan foydalanib tekshirish ishlari tadqiqotchi tomonidan o'tkazildi.

Talabalarni baholashda reyting tizimidan foydalanib, eng yuqori ("a'lo"), yuqori ("yaxshi"), o'rta ("qoniqarli") darajali mezondan foydalanildi.

Tajriba usullarini o'rganish o'ta ahamiyatli bo'lib, u tajriba sinov ishlarini o'tkazishga sarf bo'ladigan vaqt va harajatni sezilarli darajada kamaytiradi. Bunga esa tajribalarni rejalashtirish va tajriba natijalariga statistik ishlov berish usullari samarali yordam qila oladi.

Tajribani rejalashtirish - bu aniq va optimal variantlari mavjud tajribalarni uyushtirishning algoritmik tizimi bo'lib o'zgaruvchilarni (ko'rsatkichlarni)

ilgaridan (nazariy tadqiqotlar paytida) ishlab chiqilgan sxema bo'yicha qo'yishi ta'minlangan tajriba o'tkazish tartibi.

Rejalashtirish maqsadi - bu eng kam vosita (texnologiya) va vaqt sarflab, tadqiqot yo'nalishi bo'yicha maksimum darajadagi ma'lumot olish va ularning yetarli darajadagi aniqligiga erishish.

Ixtiyoriy tajriba sinov ishlari quyidagi bosqichlar ketma-ketligi asosida olib borilsa, tadqiqot maqsadiga yetib borish imkoniyati yanada kuchayadi.

- tajriba davomida paydo bo'lgan qo'shimcha mulohazalarni oldindan shakllantirilgan ishchi farazni hisobga olgan holda tajriba muammosiga qo'shish;
- tajribani tashkillashtirish;
- tajriba natijalarini tahlil qilish va shu asosda optimal yechim haqidagi xulosani chiqarish.

Tajribani rejalashtirishda muhim bo'lgan tajriba sinov ishlari va ularning tuzuvchilarini quyidagicha ifodalash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Demak, TSIni olib borishda, mazkur jarayonni rejalashtirish, ushbu jarayonga tayyorlanish bosqichi, tajriba masalasining qo'yilishi, tajriba variantini tanlash va o'tkazish tartibini aniqlab olish imkonini berar ekan, aks holda tadqiqotchida kerakli "manzil" ga etib (borishda, ya'ni qo'yilgan muammo yechimini topishda ko'p vaqt sarf qilinishi mumkin yoki natija olishning optimal variantiga ega bo'la olmasligi mumkin va hattoki xato natijani qo'lga kiritish holati ham ro'y berishi mumkin.

Monitoring bu - ta'lim jarayonining kuchli yoki zaif tomonlarini yaqqol ko'rsatib beradi. Olingan raqamlarni, ma'lumot va ko'rsatkichlarni unumli tahlil etish, ko'zlangan maqsad sari bosqichma-bosqich rejali qadam bosish, samarali natijaga erishish zaminini ham monitoring tashkil etadi.

Tajriba-sinov ishlari monitoringi va samaradorlikni aniqlash mezonlari

Pedagogik monitoring esa mazmuniga ko'ra quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ta'lim oluvchida psixo-fiziologik test o'tkazish va ular orqali ta'lim oluvchilarda siljish (dinamikasi) haqidagi fikrlarni shakllantirish;

- ta'lim oluvchilarni didaktik testdan o'tkazish va ular orqali mavjud ma'lumotlardan foydalanish hamda tahlil qilish ko'nikmasini ta'lim oluvchilar ongida shakllantirish;

- ta'lim oluvchilar ongida mavjud ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va kerakli maqsadlar bo'yicha keyingi bosqichga uzatish ko'nikmalarini shakllantirish;

- ta'lim oluvchilarda va ta'lim beruvchida oraliq nazorat natijalarini baholay bilish ko'nikmalarini shakllantirish;

- ta'lim jarayonida dastur-uslubiy ta'minotni joriy qilish natijalarini muntazam ravishda DTS talablaridagi BKM bilan solishtirib borish va oraliq natijalari tahlili bo'yicha ta'limni boshqarishga tavsiyalar berish.

Har qanday pedagogik tadqiqot jarayonida oxirgi natija tadqiqot muammosi maqsadiga erishganlikni ifodalash imkonini beradi. Bunda ham maqsadga erishganlik, tadqiqot va TSI rejasi, ulardagi tadqiqot metodlari va vositalari aloqadorliklari e'tiborga olindi. Bular asosida pedagogik tadqiqotlarning (TSIni) monitoringini aniqlashni quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirish mumkin:

- tadqiqot ob'ekti bo'yicha dastlabki ma'lumotlarni yig'ish va sinif (tizim)larga ajratish;

- ma'lumotlar hajmini va qamrovini aniqlash (nazariy, amaliy, spravochnik va h.k.);

- tadqiqot uchun ishlatiladigan ma'lumotlar (ko'rsatkichlar) orasidagi bog'lanishlarni aniqlash, asosiy va asosiy bo'lmagan ko'rsatkichlarni aniqlash;

- ko'rsatkichlarni aniqlash va o'zgarish sohalarini aniqlash;

- tadqiqot kechishi jarayoni va ular orasidagi TSI jarayonining tashkiliy-tuzilmaviy modelini o'rnatish;

- hosil qilingan bog'lanishlarni algoritmlar va boshqa analitik ifodalar

yordamida modellashtirish hamda ulardagi o'xshashlik shartini asoslash;

- yaratilgan ilmiy ishlanmalar (algoritm, model, qonun, qoida, metod, metodologiya, texnika, texnologiya va h.k.) dan TSIda foydalanish mezonlarini aniqlash;

- muntazam ravishda TSIIdagi tajriba jarayoni monitoringini kuzatib borish va lozim topilganda kerakli rostlash ishlarini amalga oshirish.

Ushbu ketma-ketlik bo'yicha TSI tashkillashtirish va uyushtirish, shubhasiz, ITI (TSI)dagi muammo yechimini topishning optimal yo'li kafolatlanadi.

ITIning ushbu jarayon orqali solishtirma tadqiqotlar muammosi paydo bo'ladi. Uning xususiyati, solishtirishning ratsional mezonlarini qidirish zarurligini va mos soha (yo'nalish) bo'yicha yetarli ilmiy salohiyat talab etiladi. Bu ilmiy salohiyatning ifodalaridan biri umumlashtirish nomli tadqiqot metodi bo'lib, u ilm-fan uchun xususiyydan umumiyga rivojlanishini ifodalaydi va uni induksiya usuli, deb yuritiladi.

Umumlashtirishning borligi shug'ullanayotgan ilmiy yo'nalish taraqqiyotining yuqori ekanligi belgisi bo'ladi. Xususiylar ilmlarni umumlashtirish - ITIning eng muhim xususiyatlaridan (metodlaridan) biridir.

Ushbu tadqiqot metodi TSI natijalarini tahlil qilishda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi va ayniqsa ITIning xulosalashda, ular bo'yicha tavsiyalar berishda umumlashtirishning ahamiyati kattadir.

Pedagogik tadqiqotlarda samaradorlikni aniqlash.

Buning uchun tajriba va nazorat guruhlarini tashkil etiladi. Tadqiqotchi ishchi farazi asosida tajriba guruhida ta'lim-tarbiya beruvchi va talabalar bilan tadqiqot haqida qisqacha suhbatlar o'tkaziladi va shu kabi ishlar amalga oshirilib TSIlari boshlanadi va u uch bosqichda amalga oshiriladi. Ularning natijalari bo'yicha samaradorlikni aniqlash quyidagi yo'nalishlar bo'yicha olib boriladi:

- aynan bir tushunchani o'rganish bo'yicha;
- aynan bir ko'nikma va malakani shakllantirish bo'yicha;
- bilish faoliyatini faollashtirish bo'yicha va h.k.

3.2. Tajriba–sinov ishlari natijalari

Ushbu dissertatsiya ishi yuzasidan 2018-2019 o'quv yilida Nizomiy nomidagi TDPU va K.Behzod nomidagi MRDIda pedagogik tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Tajriba-sinov ishlari 5110800- Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi I kurs talabalarida Qalamtasvir fani amaliy darslarni takomillashtirish olib borildi. Ushbu dissertatsiya ishida keltirilgan ishlar ketma-ketlik, uzviylik asosida sinab ko'rildi.

Bu jarayonda I kurs talabalariga Qalamtasvir fani darslarida mavzularning o'qitilishi va masalalar ishlashi metrik va pozitsion masalalardan foydalanildi va quyidagi natijalar olindi.

Buning uchun I kurs talabalaridan tashkil topgan ikkita bilim darajasi teng bo'lgan guruhlar olindi, bular – TS 201va TS 202 guruhlar. TS 201 guruh talabalari $N_1 = 19$ va TS 202 guruh talabalari $N_2 = 20$ nafarni tashkil etdi. TS 201guruh talabalarida Qalamtasvir fani darslari an'anaviy shaklda olib borildi, TS 202 guruhda esa uzviylik asosida o'qitildi va Qalamtasvir fanini o'qitishda talabalar faoliyatini takomillashtirishda yangi texnologiyalardan foydalanildi hamda ikkala guruhlardan ham yozma ishlar olindi.

Ularning natijalari yuz ballik ("o'rta", "yaxshi", "a'lo") reyting tizimi asosida baholandi.

TS 202 tajriba guruhida "5" baholar soni 9ta, "4" baholar soni 8 ta, "3" baholar soni 3 ta.

TS 201 nazorat guruhida "5" baholar soni 6 ta, "4" baholar soni 9 ta va "3" baholar soni 4 ta .Har ikkala guruh ham nazorat savollari orqali o'zlashtirish ko'rsatkichi aniqlandi. Ular tahlil qilinganda nazorat guruhi talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichi tajriba guruhi talabalariga nisbatan past

ekanligi aniqlandi. Nazorat guruhida samaradorlik 70,75%ni tashkil etgan bo'lsa, tajriba guruhida esa 85%ni tashkil qildi.

Tajriba va nazorat guruhlarining o'zlashtirishini taqqoslash maqsadida guruhlarda o'zlashtirish bahosini o'rtacha qiymati $\bar{X} = \frac{\sum x_i m_j}{N}$ deb olindi. Bu yerda x_i —o'zlashtirish ko'rsatkichi (baho qiymati) bo'lib, ular 2, 3, 4, 5 qiymatlarni qabul qiladi. m_j —baholarning takrorlanish soni, N – tajribada ishtirok etayotgan talabalar soni.

Olingan natijalarni qayta ishlaymiz. Tajriba va nazorat guruhlarining o'zlashtirish bahosining o'rtacha qiymati.

$$\bar{X} = \frac{\sum x_i m_j}{N}$$

$$\bar{X}_T = \frac{1}{19} [10 \cdot 5 + 8 \cdot 4 + 2 \cdot 3] = \frac{1}{19} (50 + 32 + 6) = \frac{88}{19} = 4,5$$


$$\bar{X}_N = \frac{1}{20} [6 \cdot 5 + 9 \cdot 4 + 4 \cdot 3] = \frac{1}{20} (30 + 36 + 12) = \frac{78}{20} = 3,9$$

Foiz qiymatda esa diagramma ko'rinishida ifodalangan.


$$\text{Samaradorik koefitsienti } \eta = \frac{X_T^*}{X_N^*} \quad \eta = \frac{4,5}{3,9} = 1,15$$

Tajriba-sinov davomida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirish darajasining ortish dinamikasini o'z-o'zini nazorat qilish varaqasi vositasida baholash amalga oshirilgan bo'lib, ulardan olingan natija metodik tizim tarkibiy qismlari natijalariga yaqin.


Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirish mavzusida olib borilgan tajriba sinov natijalaridan ko'rinib turibdiki, tajriba guruh 4.5 va nazorat guruhi 3.9 ko'rsatki natijalarini bergan. Tadqiqot ishi yuzasidan qilingan ishlar va Qalamtasvir fanini o'qitishda qo'llanilgan metod va zamonaviy texnologiyalar natijasida 1.15 % ko'rsatki yuqori natijaga erishildi. Ko'rsatkichlar quyidagi diagrammada ko'rsatilgan (4-5-6-rasmlar).



4-rasm



5-rasm



6-rasm

III. bob bo'yicha xulosa

Shunday qilib pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari tahlil qilinganda samarali natijalarga erishildi va quyidagi xulosalarga kelindi:

- tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'tkazilgan amaliy mashg'ulotlar talabalarda BKM ni hosil qiladi.
- darslarda ijodiy yondashuv va fikrlash, bilish faoliyati faollashtiriladi;
- talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyati shakllanadi;
- talabalar darsdan ijobiy saboq oladilar, darsga nisbatan qiziqishi oshadi;
- bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy maxoratini o'strish imkoniyatlarini beradi.

Umumiy xulosa

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishda tarkib toptirish va mazkur tayyorgarlik darajasini orttirish maqsadida olib boradigan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosaga kelindi:

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida uzluksiz ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan

davlat va ijtimoiy buyurtmalar asosida qalamtasvir fani o'qitishga qo'yiladigan talablar tahlil etildi.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari va uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatadigan prinsiplariga mos holda qalamtasvir fanini o'qitishda foydalaniladigan o'qitish prinsiplari va qonuniyatlari tavsiflandi.

Qalamtasvir fani jarayonini takomillashtirish o'qituvchilardan muayyan ilmiy-metodik tayyorgarlikni talab etganligi sababli, me'yoriy hujjatlar tahlil qilindi.

Qalamtasvir fani o'qituvchisining pedagogik faoliyatga tayyorgarligining tarkibiy qismlari bo'lgan ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik, ilmiy- metodik tayyorgarlikni unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar bilan o'zaro uzviyligi aniqlandi.

Yuqori malakali, raqobatbardosh pedagog kadrlar tayyorlash uchun uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'inlari bo'lgan umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy pedagogik ta'lim, pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi o'rtasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashga e'tibor qaratildi. Qalamtasvir o'qitish jarayonida samaradorlikni orttirishning muhim sharti sifatida pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyati kengaytirildi, shuningdek, tasviriy san'at o'qituvchilariga amaliy yordam beradigan o'quv-metodik qo'llanmalar yaratildi. O'qituvchilarning kasbiy-pedagogik, xususan, ilmiy-metodik tayyorgarligi uzluksiz ta'lim tizimidagi ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni va tashkil etishdagi yangiliklar bilan uyg'unligi ta'minlandi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishda beradigan metodik tizim ishlab chiqildi. Mazkur tizimda o'qitish mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarining uyg'unligiga erishildi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini orttirishning kafolati bo'lgan o'qituvchilarning pedagogik faoliyatga tayyorgarligi, xususan ilmiy- metodik tayyorgarligi darajasini orttirish muammosi kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning

tarkibiy qismlari bo'lgan ilmiy-nazariy, psixologik- pedagogik tayyorgarlik bilan uzviy ravishda, mazkur tayyorgarlikka ta'sir ko'rsatadigan omillar bilan o'zaro aloqadorlikda, shuningdek, ta'lim- tarbiya jarayoni bilan bog'liq holda tadqiq etish ko'zlangan natijaga erishish imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishda qalamtasvir darajasini orttirish yuzasidan ilmiy-uslubiy tavsiyalar tayyorlandi.

Pisixologiya va pedagogika fanlarini o'qitishda talabalarda kasbiy sifat va kasbiy tayyorgarlikning tarkibiy qismlarini shakllantirishga e'tibor qaratish, yuqori darajadagi psixologik-pedagogik tayyorgarlikka erishish orqali ilmiy-metodik tayyorgarlikka asos yaratish, ushbu jarayonda ularning uzviyligini nazarda tutish.

Qalamtasvir chizishga o'rgatish jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishda asos bo'lib xizmat qiladigan pedagogik-psixologik tayyorgarlikning mazmuni taxlil qilindi va mazkur jarayonni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Qalamtasvir chizishga o'rgatish jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirish mazmuni, vositalari, metodlari ishlab chiqildi.

«Tasviriy san'at o'qitish metodikasi» kursini o'qitishni takomillashtirish maqsadida mazkur kurs mazmuni qalamtasvir chizishga o'rgatish jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy mahorati kompetentligini rivojlantirishning tarkibiy qismlarini shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash nuqtai nazaridan taxlil qilindi

Talabalar va magistrnlarning mustaqil ishi va ta'limini rejali, bosqichma-bosqich, evolyusion tarzda tashkil etilishi ularni maqsadli ijodiy va ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'llash imkonini berishi ma'lum bo'ldi.

tadqiqot jarayonida talabalar dars mashg'ulotlariga bog'liq holda mustaqil ta'lim olish faoliyatining modeli ishlab chiqildi.

Tavsiyalar

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy mahorat kompetentligini rivojlantirish mavzusida olib borilgan tadqiqot yuzasidan tavsiyalar quyida keltrildi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish jarayonida taniqli usta rassomlar bilan ijodiy uchrashuvlarni tashkil etish;

Mashg'ulotlar davomida online tarzda chetel usta rassomlari bilan masterklass o'tkazish, Qalamtasvir fanining ishchi o'quv dasturi mavzulariga qisman o'zgartrishlar kiritish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997 – B. 64.
2. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997 – B. 64.
3. O'zbekiston Respublikasida kadrlar malakasini oshirish, ularni qayta tayyorlash tizimini isloh qilish bo'yicha me'yoriy hujjatlar va 1999-2005 yillarga mo'ljallangan istiqbolli rejalar (o'zbek va rus tillarida) I-qism / Tuzuvchilar S.S.G'ulomov, Q.R.Allaev, M.X.Saidov, X.R.Raimov va boshq. – T.: 1999. – B. 187.
4. Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi pedagoglari hamda rahbar kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha davlat talablari. I-qism O'zbekiston Respublikasi kadrlar malakasini oshirish, ularni qayta tayyorlash tizimini isloh qilish bo'yicha me'yoriy hujjatlar va 1999-2005 yillarga mo'ljallangan istiqbolli rejalar /Tuzuvchilar: S.S.G'ulomov, Q.R.Allaev, M.X.Saidov va boshqalar. - T.: 1999. – B. 187.
5. Uzlusiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi. – T.: SHarq, 2002. – B. 15.
6. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. / Barcha mutaxassisliklar magistratura yo'nalishlari uchun o'quv qo'llanma. –T.: TDPU. 2003. – 174 b.
7. Ahliddinov R.Sh. Pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida sifat va samaradorlikni ta'minlash omillari. //Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Axborotnomaning maxsus soni. – T., 2005. – B. 10-15.

8. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2003 - 174 b.
9. Stolyarenko A.M. Psixologiya i pedagogika. M.: YUNITI-DANA, 2008.– S.368.
9. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003 – 172.
10. Tolipov O'.Q. Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari: Dis. ... ped. fan. dok. – Toshkent: 2004. - 314 b.
11. Байсалов Дж.У. Научно-методические основы создания и использования модульного обучения в методической подготовке студентов-математиков в педвузе: Автореф. дисс...док. пед наук. –Алматы: 1998.–48 s
12. Bespalko V.P. Osnovy teorii pedagogicheskix sistem. – Voronej: Universitet, 1977. – 292 s.
- 13.. Abdirasilov S., Azimov B. Rangtasvir. T.: Musiqa nashriyoti, 2011.
14. Беспалко В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 14 с.
15. Abdirasilov S., Boymetov B., Tolipov. Tasviriy san'at. T.: CHO'lpon nashriyoti, 2012.
16. Булатова О.С. Педагогический артистизм. Пособие для студентов высших педагогических учебных заведений. – М.: Академия, 2002. –288 с.
17. Вилкеев Д.В. Применение гипотезы в познавательной деятельности школьников при проблемном обучении. Дидактическое пособие. –Казань: КГУ, 1994. – 86 с.
18. Вяткин Л.Г., Железовский Г.И. Опыт развития самостоятельности студентов // Педагогика. – 1993. - №1. – С. 61-66.
19. Abdirasilov S., Xasanov M. Rasm o'qitish metodikasi. T.: Iqtisod-moliya. 2010

20. G'ofurov A.T., Tolipova J.O. Kadrlar qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida modulli o'qitishni joriy etish tajribasidan. // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya -T., 2002.–B 14-16
21. Tojiev B, Mahkamova S. “Qalamtasvir” (dastlabki saboqlar). Metodik qo'llanma. Toshkent, 2013.
22. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. T.: O'qituvchi, 2004. -104 b.
23. Yo'ldoshev J.G'. Davlat umummilliy dasturi talablari asosida malaka oshirish sifati va samaradorligini kafolatlash hamda monitoringining tashkiliy pedagogik asoslari. // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Axborotnomaning maxsus soni - T., 2005. B.15-20
24. Каргиева З.К. Формирование профессиональной устойчивости у студентов университетов будущих учителей: Автореф. дис... канд. пед. наук – Л., 1983. -17 с
25. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. /Анализ зарубежного опыта/ - М.: Знание. 1989.- 80с.
26. Кузнецов В.И. Принципы активной педагогики: Что и как преподават в современной школе: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – М.: Академия, 2001. – 120 с.
27. Кузмина Н.В. Профессионализация личности преподавателя и мастера производственного обучения. – М.: Высш. шк., 1990. – 119с.
28. Abdirasilov S. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. T.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2012.
29. Леднев В.С. Содержание образования: сущность, структура, перспективы. 2-е переработанное изд. -М.: Высш. шк., 1991.- 224 с.
30. Ziyomuhhammadov B., Tojiev M. Pedagogik texnologiya – zamonaviy o'zbek milliy modeli. – T.: “Lider Press”, 2009.

31. Kuziev T., Abdirasilov S., Nurtaev O., Sulaymonov A. Tasviriy san'at. 5 sinf. Darslik. SHarq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. – T., 2012.

32. Nazarova T.S. Pedagogicheskaya texnologiya: novyy etap evolyusii? // Pedagogika. – 1997. - №3. -S. 20-27.

33. Pedagogik mahorat. Pedagogika oliy o'quv yurtlari uchun dastur. /Tuzuvchilar To'xtaxo'jaeva M.X., Sultonova G.A. va boshq. – T.: TDPU, 2003. – 12 b.

34. Pedagogik texnologiyalar. Pedagogika oliy o'quv yurtlari uchun dastur. /Tuzuvchilar Madiyarova S.A., Usmonbaeva M. va boshqalar – T.: TDPU, 2003.- 8 b.

35. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Pedagogika oliy o'quv yurtlari uchun dastur. / Tuzuvchilar Nishonova S., Xasanboev J. va boshqalar – T.: TDPU, 2003. – 44 b.

36. Sayidaxmedov N.S. Pedagogika amaliyotida yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. – T.: YAngi asr avlodi, 2001.- 40 b.

37. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T., O'zMU qoshidagi OPI. – 88 bet.

38. Nurtaev O' "Rangshunoslik asosalari" Ilm ziyo Toshkent 2008.

39. Селевко Г.К Современные технологии обучения. – М.: Народное образование , - 1998. – 325с.

40. Сериков Г.Н. Педагогические основы совершенствования управления самообразованием студентов: Автореф. дис.. д-ра. пед. наук.- Тбилиси. 1987. – 48с.

41. Tolipov U.K. Pedagogicheskie tehnologii razvitiya obshchetrudovyx i professionalnyx umeniy i navykov v sisteme vysshego pedagogicheskogo obrazovaniya. Avtoref. dis...d-ra. ped.nauk. T., 2004. 38 s.

42. Tolipova J.O. Pedagogik amaliyot pedagogik kadrlarning ilmiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish asosi. //Uzluksiz ta'lim jarayonini takomillashtirishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. – Toshkent, 2004. – B. 51-54.
43. Tolipova J.O. Talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirish yo'llari // Pedagogika va psixologiya fanlari sohasidagi ilmiy ishlar tanlovi g'oliblarining maqolalari to'plami. –T., -2003. -B.45-51.
44. Tolipova J.O. Ta'lim jarayonida milliy istiqlol g'oyasi // Xalq ta'limi. -2001. - № 6.- B. 8-12.
45. Abdirasilov S. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. T.: Ilm-Ziyo nashriyoti, 2011.
46. Toshmuxamedov M. "CHizmatasvir". o'quv qo'llanma. -T.: "Noshir" 2012. -1246.
47. Фридман Л.И., Маху В.И. Проблемная организация учебного процесса. /методическая разработка/ - М.: Педагогика, -1990. – 62 с.
48. Шаталов В.Ф. Педагогическая проза: Из опыта работы школ г. Донецка.- М.: Педагогика, 1980 – 96 с.
49. Abdirasilov S., Tolipov N., Oripova N. Rangtasvir. T.: O'zbekiston nashriyoti, 2006
50. Bulatov S. Amaliy san'at qisqacha lug'ati.-Toshkent: HBM, 1992.
51. Boymetov B.B. Egamov A.E. Chizmatasvir.T.: Ilm-Ziyo. 2001.
52. Boymetov B., Abdirasilov S. Chizmatasvir.T.: G.Gulom. 2004.
53. Живописные мистерии Сергея Алибекова. ||Саноат.-1999.-№2.- с.16-18.
54. Hasanboev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: "Fan va texnologiya"nashriyoti, 2009. – B. 311Yangi O'zbekiston san'ati. ||San'at.-1999.-№4.-42-47 b.
55. Валиулина Н. Рцзи Чориев-Тошкент: /офур /улом.1983.-95
56. Xudayberganov R. A. "Rangshunoslik asoslari", O'quv qo'llanma. T.: "G'. Gulom" 2006. -92b

57. Oydinov N. Rassom o'qituvchilar tayyorlash muammolari.-Toshkent: O'qituvchi. 1997.-215
58. Kodjaspirova G.M. i Kodjaspirov A.YU. Slovar po pedagogike. – M.: IKS «Mart», 2005.– S.174.
59. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
60. Sulaymonov A., Abdullaev N. Tasviriy san'at. 7 sinf. T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2002
61. Internet saytlari: www.glazychyev.ru/projects/obrdocl/2004
62. www.school2100.ru/arch-pdf/programm/
63. 1[www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
64. 2.[www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)
- 66 3. www.lex.uz - Uzbekistan Respublikasi Konun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
- 67.4.tdpu-INTERNET. P

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

«Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi» kafedrası magistranti Xudoyberdiev Mirolimning **1kurs**
talabalari uchun

“QALAMTASVIR”

fanidan

O‘QUV - METODIK TAVSIYANOMA

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	110000 – Pedagogika
Bakalavriat yo‘nalishi:	5110800 – Tasviriy san’at va muxandislik grafikasi

Toshkent-2019 yil

O‘QUV - METODIK TAVSIYANOMA

MUNDARIJASI

1. “Qalamtasvir” fani bo‘yicha ishchi dastur.....
2. Ta’lim texnologiyalar ishlanmasi.....
3. Amaliy mashg‘ulotlarning dars ishlanmasi.....
4. Mashg‘ulotlarning texnologik ishlanmasi.....

LOYIHA

Tuzuvchi:

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti,

«Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi» kafedrası

dots. O‘.N.Nurtayev

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti,

«Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi» kafedrası

Magistranti – Mirolim Xudoyberdiyev

QALAMTASVIR

FANINING ISHCHI O'QUV DASTURI

(1-kurslar uchun)

Ta'lim yo'nalishi:

**5110800 – Tasviriy san'at va muhandislik
grafikasi**

№	Mashg'ulot turi	Ajratilgan soat	Semestr	
			I	II
1	Nazariy (ma'ruza)	-	-	-
2	Amaliy mashg'ulot	110	76	34
3	Seminar	-	-	-
4	Laboratoriya mashg'ulot	-	-	-
6	Mustaqil ta'lim	78	52	26
7	Kurs ishi			
8	Jami auditoriya soati	110	76	34
9	Umumiy yuklama hajmi	188	128	60

I. O‘quv fani o‘qitilishi bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar

“Qalamtasvir” fani talabalarga amaliy ko‘nikmalar, estetik did va ma’naviyatini yuksaltirish hamda dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga quyidagi talablar qo‘yiladi.

Talaba:

- Qalamtasvir fani **to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi**;
- Qalamtasvir ishlashning qonun qoidalarini **bilish va ulardan foydalana olishi**;
- Qalamda murakkab natyurmortlarni hajmli qilib tasvirlash **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi**

kerak;

I. Amaliy mashg‘ulotlar

1-jadval

№	Amaliy mashg‘ulotlari mavzulari	Dars soatlar i haimi
1-semestr		
1.	Qalamtasvir fanining maqsad va vazifalari, asosiy tushunchalar	16soat 2
	Qalamtasvir fanida ishlatiladigan materiallar, talab etiladigan ish qurollari, qalamtasvir texnologiyasi bo‘yicha tushunchalar	2
	Geometrik jismlardan tashkil topgan shakillar qalamtasviri (kub, shar)	6
	Geometrik jismlardan tashkil topgan shakillar qalamtasviri (prizma, silindr)	6
2.	Murakkab bo‘lmagan gipsli rozetkadan tashkil topgan natyurmort qalamtasviri.	12 soat
	Gipsli rozetka tasvirini formatga to‘g‘ri joylashtirish va konstruktiv qurilmasini bajarish	4
	Gipsli rozetkadan tashkil topgan natyurmort qalamtasvirining soya-yorug‘larini, nisbatlarini aniqlash va shtrixlash	4

	Gipsli rozetkadan tashkil topgan natyurmort qalamtasviri ishini umumlashtirish va yakunlash	4
	Kulrang fonida gipsli rozetka, sopol idish va mevalardan tashkil topgan natyurmort qalamtasviri.	12soat
3.	Gipsli rozetka, sopol idish va mevalardan tashkil topgan natyurmortni formatga to'g'ri joylashtirish va konstruktiv qurilmasini bajarish	4
	Gipsli rozetka, sopol idish va mevalardan tashkil topgan natyurmortni konstruktiv qurilmasini tug'ri bajarish va soya-yorug'larini aniqlash	4
	Gipsli rozetka, sopol idish va mevalardan tashkil topgan natyurmortni nisbatlarini aniqlash va tasvirni umumlashtirish va yakunlash	4
	Uy-ro'zg'or buyumlaridan tashkil topgan natyurmort (Sopol idish, mis qumg'on, chinni lagan v,b)	12 soat
4.	Uy-ro'zg'or buyumlaridan tashkil topgan natyurmortni qog'azga to'g'ri joylashtirish, perspektiva holatlariga e'tibor berish qalamtasvir qonun-qoydalarini bajarish	4
	Uy-ro'zg'or buyumlaridan tashkil topgan natyurmortni konstruktiv qurilmasini bajarish va nisbatlarini aniqlash	4
	Uy-ro'zg'or buyumlaridan tashkil topgan natyurmort buyumlarini alohida shtrixlash, detallashtirish, ishni umumlashtirish va yakunlash	4
	Gipsli rozetka, sopol idish va qush tulimidan tashkil topgan natyurmort	12 soat
5.	Gipsli rozetka, sopol idish va qush tulimidan tashkil topgan natyurmortni qog'azga to'g'ri joylashtirish, perspektiva holatlariga e'tibor berish, qalamtasvir qonun-qoydalarini bajarish	4
	Gipsli rozetka, sopol idish va qush tulimidan tashkil topgan natyurmortni nisbatlarini aniqlash va konstruktiv qurilmasini bajarish	4

	Gipsli rozetka, sopol idish va qush tulimidan tashkil topgan natyurmortni soya-yorug'larini aniqlash va tasvirni umumlashtirish	4
	Xolis fonda gipsli kapitel va uy ruzg'or buyumlaridan tashkil topgan natyurmort	12 soat
6.	Xolis fonda gipsli kapitel va uy ruzg'or buyumlaridan tashkil topgan natyurmortni qog'az satqiga tug'ri joylashtirish va perspektiv xolatlarini bajarish	4
	Xolis fonda gipsli kapitel va uy ruzg'or buyumlaridan tashkil topgan natyurmortni yordamchi chiziqlar yordamida aniq tasvirlash, narsalarning nisbatlarini aniqlash va shtrixlash	4
	Xolis fonda gipsli kapitel va uy ruzg'or buyumlaridan tashkil topgan natyurmortni konstruktiv qurilmalarini bajarish ishni umumlashtirish va yakunlash	4
	Jami soat	76
2-semestr		
	David boshining bo'laklari qalamtasviri (burun, quloq, lab, ko'z)	16 soat
1.	David haykalining burun bo'lagini formatga to'g'ri joylashtirish, konstruktiv qurilmasini bajarish va ishni yakunlash.	4
	David haykalining quloq bo'lagini formatga to'g'ri joylashtirish, konstruktiv qurilmasini bajarish va ishni yakunlash. Soya-yorug' munosabatlarini aniqlash va ishni shtrixlash bosqichi.	2
	David haykalining lab bo'lagini formatga to'g'ri joylashtirish, konstruktiv qurilmasini bajarish va ishni yakunlash.	2
	David haykalining ko'z bo'lagini formatga to'g'ri joylashtirish, konstruktiv qurilmasini bajarish va ishni yakunlash.	
	David haykalining maskasini tasvirlash	8
2.	David haykalining maskasini tasvirini qog'ozga to'g'ri joylashtirish, konstruktiv qurilmasini bajarish	4

	David haykalining maskasini tasvirlashda soya-yorug' munosabatlarini aniqlash, shtrixlash ishni umumlashtirish va yakunlash	4	
3.	Gipsli kesik kallani tasvirlash (rublennaya golova) Gipsli kesik kallaning tasvirini qog'ozga to'g'ri joylashtirish, konstruktiv qurilmasini bajarish	10 5	
	Gipsli kesik kallani tasvirlashda soya-yorug' munosabatlarini aniqlash, shtrixlash ishni umumlashtirish va yakunlash	5	
	Jami soat	34	
	Jami soat		110

11

Amaliy mashg'ulotlar maxsus dastgohli uskunalar bilan jihozlangan o'quv ustaxonalarida har bir akademik guruh kichik guruhlarga bo'lingan holda o'tiladi. Mashg'ulotlar davomida "masterklass"lar o'tkaziladi.

2. Mustaqil ta'lim

2-jadval

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Dars soatlari jadvali
1-semestr		
1	Rassom va pedagoglarning qalamtasvir va grafika bo'yicha yaratgan asarlarini tahlil qilish	4
2	Qalamtasvir asosiy qonun va qoidalarini namoyish etuvchi tasvirlarni tahlil qilishni o'rganish; qalamtasvirga tegishli adabiyotlarni mutolaa qilish;	4
3	Tabiat qo'ynida chiziqli va havo perspektivasini qo'llagan holda qalamchizgi va qoramalar ishlash;	4
4	Mavzular yuzasidan qalamchizgilar bajarish;	4
5	Tasvirlashning turli texnikalaridan foydalanib kompozitsiyalar bajarish.	4

6	Geometrik jismlarni chiziqli konstruktiv qurilishini tasvirlashga oid mashqlar bajarish.	6
	Jami	26
2-semestr		
1	Uy-ro'zg'or buyumlaridan tashkil topgan murakkab bo'lmagan natyurmort.	4
2	Odam yuz qismi bo'laklarini tasvirlash (ko'z, quloq, burun, ko'z)	6
3	Inson qiyofasining tez qalamchizgilarini bajarish	4
	Jami	14
Jami soat		40

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha qoralamalar, qalamtasvirlar ishlanadi. Ularning sifatli chizilganligiga qarab baholanadi. Mustaqil ta'lim baholari joriy nazorat ballariga singdiriladi.

3. Grafik ishlar

3-jadval

№	Grafik ishlar	Soati
1-semestr		
1	Uy-ro'zg'or buyumlardan tashkil topgan natyurmortlar, yakka buyumlar qalamtasviri.	4
2	Gipsdan ishlangan rozetkalarining qalamtasvirini bajarish	4
3	Mevalar va sabzavotlardan tashkil topgan natyurmortlar, meva va sabzavotlarning yakka tasvirlari.	6
4	Uy-ro'zg'or buyumlaridan va mevalardan tashkil topgan	6
5	Daraxt shohlari, toshlarning ko'rinishi va manzara bo'laklarini tasvirlash.	6
	Jami soat	26
2-semestr		
1	Natyurmort kompozitsiyasini bajarish	2
2	Sodda ijodiy kompozitsiyalar bajarish.	2
3	Antik davr haykallari namunalarini tasvirlash	2
4	Odam boshini turli rakurslarda yoritilgan holdagi	2
5	Avtoportret ishlash	4
	Jami soat	12
Jami soat		38

Belgilangan mavzu bo'yicha talabalar grafik ish topshiradi. Grafik ishlarga mustaqil ta'lim soatlarining teng yarmi ajratiladi. Grafik ishlar A3 va A4 formatlarda bajariladi. Grafik ishlarning baholari joriy nazoratga singdiriladi.

**4. Fan bo'yicha talabalar bilimni baxolash va
nazorat qilish me'zonlari**

Baholash usullari	Amaliy ishlari		
Baholash me'zonlari	86-100% (a'lo) baho: - Amaliy vazifalarini to'liq bajara olganligi va yakunlanganligi; - Metodik izchillikda bajarilganligi; - Qalamtasvir qonuniyatlariga to'la rioya etilganligi; - Mavzu yuzasidan mustaqil ishlar bajarilganligi va grafik ishlarning to'liq bajarilganligi. 71-85% (yaxshi) baho: - Amaliy vazifalarini to'liq bajara olganligi va yakunlanganligi; - Metodik izchillikda bajarilganligi; - Qalamtasvir qonuniyatlariga to'la rioya etilganligi; - Grafik ishlarning to'liq bajarilmaganligi hamda mustaqil ishlar bajarilmaganligi. 55-70% (qoniqarli) baho: - Dars mavzularini o'rtacha tushunish va amaliy bajarish; - Amaliy vazifalarini tugallanganligi ammo qonuniyatlarga bo'ysinilmaganligi; - Konstruktiv qurilishlarida yoki qog'ozga joylashtirilishida xatolikga yo'l qo'yilganligi; -Grafik ishlar va mustaqil ishlar bajarilmaganligi. 0-54% (qoniqarsiz) baho: - Fan mavzulari bo'yicha aniq tassavurga ega emaslik; - Vazifalarni to'liq bajara olmasligi hamda fanning mazmunini DTSda belgilangan BKMLar darajasida o'zlashtirilmaganligi.		
	Baholash turlari	Baho	O'tkazish vaqti
	I-semestr		
	1-Amaliy ish. Qalamtasvir fani tasviriyl san'atning asosi sifatida. Gipsli geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmortning konstruktiv chiziqli qalamtasviri.		Semestr davomida

	2-Amaliy ish. Gipsli rozetkadan tashkil topgan natyurmortning qalamtasviri		
	3-Amaliy ish. CHiziqli va havo perspektivasi haqida asosiy tushunchalar. Murakkab bo‘lmagan shakldagi gips naqshli rozetkaning qalamtasviri.		
	5-Amaliy ish. Uy-ro‘zg‘or buyumlarining konstruktiv qoralamasi (uy jixozlari, duradgorlik ashyolarini chiziqli perspektiva asosida).		
	YAkuniy nazorat		
	II-semestr		Semestr davomida
	1-Amaliy ish. Gipsli anotomik bosh qalamtasviri		
2-Amaliy ish. Apolon gipsli bosh qalamtasviri			
3-Amaliy ish. David boshining maskasini tasvirlash			
	YAkuniy nazorat		
	YAkuniy nazorat amaliy ish shaklida o‘tkaziladi: 1.Semestr davomida o‘tilgan mavzular mazmunidan kelib chiqqan holda natyurmort qo‘yilmasini A3 format qog‘ozda tavirlaydi, bunda bir akademik guruh uch kichik guruhlarga bo‘lingan holda Izoh: har-bir kichik guruhga alohida qo‘yilma qo‘yiladi YAN shakli fakul’tet kengashi bilan kelishib rektor buyrug‘i bilan tasdiqlanadi		22-23 haftalar

5. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar

№	Muallif	Adabiyot nomi va turi	Nashr yili	Adabiyotning ARMdagi shifri	Adabiyotning ARMdagi Mavjudligi soni
1.	B.Boymetov	Qalamtasvir. darslik	“Musiqqa” nashriyoti 2006	85.100.6 B 83	80
2	R.Xalilov	Risunok	Izdatelstvo «Navruz» 2013		1

Qo'shimcha adabiyotlar

1.SH.M.Mirziyoev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'shlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Halq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, № 11.

2. B.Boymetov “Qalamtasvir” Pedagogika institutlari va universitetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 1997.

3.Tojiev B, Mahkamova S. “Qalamtasvir” (dastlabki saboqlar). Metodik qo'llanma. Toshkent, 2013.

4.P.Thomas, A.Taylor Drawing, London-2011

5.B.Barber “Full course of the drawing”, Barselona-2014.

Internet saytlari

1.www. tdp. uz

2.www. Ziyonet. uz

3.www. edu. uz

4.tdp-INTERNET. Ped

Mavzu: Qalamtasvir fanining maqsad va vazifalari, asosiy tushunchalar Qalamtasvir fanida ishlatiladigan materiallar, talab etiladigan ish qurollari, qalamtasvir texnologiyasi bo'yicha tushunchalar, geometrik jismlardan tashkil topgan shakillar qo'yilmasi (kub, shar, piramida, silindr)

Vahti – 16 soat	Talabalar soni: 20-25 nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli:	Og‘zaki bayon qilish, vizual va amaliy ish bajarish.
Amaliy mashg‘ulot rejasi:	1. Qalamtasvir fanining mazmuni, maqsadi, vazifalari 2. Qalamtasvir fanida ishlatiladigan materiallar, talab etiladigan ish qurollari, qalamtasvir texnologiyasi bo‘yicha tushunchalar 3. Geometrik jismlardan tashkil topgan shakllarni tasvirlash vazifalarini bajarish.

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Qalamtasvir fanining maqsadi va vazifalarini yoritish xamda qalamtasvir texnologiyasi va geometrik jismlarni amalda tasvirlashni bajarish.

Pedagog vazifasi:	O‘quv natijalari:
- Qalamtasvir fanining mazmuni, maqsadi, vazifalari haqida ma’lumot berish;	- Qalamtasvir fanining mazmuni, maqsadi, vazifalari xakida ma’lumotga ega buladi.
- Geometrik jismlardan tashkil topgan shakillarni chizish vaifalarini bajarish uchun qo‘yilma tashkil kiladi.	-Geometrik jismlardan tashkil topgan shakillarni chizishni o‘rganadi va amalda bajaradi.
Geometrik jismlardan tashkil topgan shakillarni qog‘oz yuzasiga to‘g‘ri joylashtirish yo‘llari, soya-yorug‘ qonuniyatlari xaqida, shtrixlash xaqida tushuncha beradi;	Geometrik jismlardan tashkil topgan shakillarni qog‘oz yuzasiga to‘g‘ri joylashtirish yo‘llari, soya-yorug‘ qonuniyatlari xaqida, shtrixlash xaqida tushunchaga ega bo‘ladilar;
O‘qitishning uslubi va texnikasi:	Suhbat, savol – javob, muhokama, mavzuga oid videorolik namoyishi, amaliy ishlar, “Klaster”, “Aqliy hujum” texnologiyasi.
O‘qitish vositalari	Darslik, proektor, tarqatma materiallar

O'qitish shakli:	Qo'llaniladigan metodlardan kelib shiqib guruh yoki guruhshalarga bo'linadi
O'qitishning shart-sharoitlari:	Mahsus ish sharoiti yaratilgan t/s auditoriyasi, qog'oz tortilgan planshet, qalam, va x.k. Proektor.
Monitoring va baholash:	Kuzatish va amaliy ish natijalari tahlili.

1-amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich Kirish (10 min.)	1.1. Yangi mavzuni, uning rejasini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadini va o'quv faoliyatidan kutilayotgan natijalarini tushuntiradi. (1-ilova)	- Tinglaydilar, mavzu nomini yozib oladilar.
	1.2. Reja va muammoli holatlarni ifodalovchi savollarni ekranga shiqaradi, mashg'ulotni o'tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi (2-ilova).	Eshitadi va yozib oladi.
2-bosqich	2.1. <i>Talabalarining e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javoblar o'tkazadi.</i> Javoblarni birgalikda umumlashtiradi (3-ilova).	Eshitadi, savollarga javob beradi va umumlashtirilgan to'g'ri javobni eshitadi.

Asosiy (25 min.)	2.2. Qalamtasvir fanining mazmuni, maqsadi, vazifalari xaqida ma'lumot berib, unga misollar keltirilgan slaydlar namoyish kilinadi. (4-ilova)	- eshitadilar, ko'radilar, yozib oladilar
	2.3. Geometrik jismlardan tashkil topgan shakillarni chizish vazifalarini bajarish uchun ko'yilma ko'yib beriladi (kub va silindr yoki prizma hamda shar). (5-ilova)	- Ko'radilar, savol-javob qiladilar va amaliy ishga kirishadilar.
3-bosqich 15 soat	3.1. Kub va silindrdan yoki prizma hamda shardan iborat bulgan buyilmaning qalamtasvirini bajarish. (6-ilova)	- Ok qog'oz tortilgan planshetga vazifani bajaradilar.

4-boskich YAkuniy (15 min.)	4.1. Olingan bilim va ko'nikmalarni klaster va aqliy xujum metodlarini qo'llash yordamida mustaxkamlaydilar. (7 va 8-ilova) 4.2. Amaliy ish yakunlarini ko'rik tanlov uyushtirish orqali baxolaydi. (9-ilova)	- «Klaster» tuzishda ishtirok etadilar. - Bajargan ishlarini ko'rikka qo'yadilar va ish natijalarini yozib oladi
---------------------------------------	--	---